Дастлабки имаголарининг учиб чиқиш даври апрел ойининг 17 санасига тўғри келди. Унга кўра дарахтлар сонига нисбатан 0,4 донани ташкил этди. Бу даврда ҳаво ҳарорати кундузи ўртача +26°C, кечаси +19°C ташкил этиб, нисбий ҳаво намлиги 64% ни ташкил этди. Шу ҳолатда ҳар уч кунда назорат қилиб борилди ва зараркунанда имаголари дарахтдаги қуртларга нисбатан олинган миқдор атрофида зараркунандалар бир туп дарахтда бўлиши асосида уларнинг ялпи учиб даври аниқланди. Унга кўра 2019 йилда Хоразм вилояти шароитида шаҳар мўйловдорининг ялпи учиб даври май ойининг иккинчи ўн кунлиги ва июн ойининг бошига тўғри келди.

Кимёвий ишловлар зараркунанда имаголари энг кўп бўлган давр май ойининг учинчи ўн кунлигида ўтказилди. Бу даврда бир туп дарахтда ўртача зараркунанда кўнғизларининг сони 4,5 донани ташкил этди. Кимёвий воситалардан Багира 20% с.э.к., Индокс 15% сус.к., Атилла 5% эм.к., Матч 5% м.к.сус., Два-трин 10 % эм.к., Агрофос-Д 55% эм.к., Проклейм 5% с.э.г. препаратларини аввалги белгиланган миқдорларда қўлланилди. Қўлланилиш жараёни зараркунанданинг биологик хусусиятларини ўрганилишига мувофиқ куннинг эрта-лабки соат 9-10 ларда бажарилди. Бу даврда имаголарнинг кўп қисми пана жойлардан чиқиб, қуёшда тобланиш ва оталаниш яъни жуфтини топиш учун дарахт танаси бўйлаб ҳаркатланади.

Кимёвий ишловлар зараркунанда имаголари энг кўп бўлган давр май ойининг учинчи ўн кунлигида ўтказилди. Бу даврда бир туп дарахтда ўртача зараркунанда кўнғизларининг сони 4,5 донани ташкил этди. Кимёвий воситалардан Багира 20% с.э.к., Индокс 15% сус.к., Атилла 5% эм.к., Матч 5% м.к.сус., Два-трин 10 % эм.к., Агрофос-Д 55% эм.к., Проклейм 5% с.э.г. препаратларини аввалги белгиланган миқдорларда қўлланилди. Қўлланилиш жараёни зараркунанданинг биологик хусусиятларини ўрганилишига мувофиқ куннинг эрта-лабки соат 9-10 ларда бажарилди. Бу даврда имаголарнинг кўп қисми пана жойлардан чиқиб, қуёшда тобланиш ва оталаниш яъни жуфтини топиш учун дарахт танаси бўйлаб ҳаркатланади.

Кимёвий воситалар моторли пургагич қўл аппарати ёрдамида бажарилди. Дарахт танаси бўйлаб баландлиги бўйича бир текис қилиб пуркалди. Пуркалган даврда ҳаво ҳарорати +22°C, шамол тезлиги секундига 1-2 метр, нисбий ҳаво намлиги 62% ни ташкил этди. Қўлланилган препаратларнинг самарадорлиги 3, 7, 14-кунларда назорат қилинди.



3-расм. Қайрағоч баргхўри миқдорини бошқаришда кимёвий воситаларни қўллаш самарадорлиги (Хоразм вилояти Янгибозор тумани, 2019-2021 й)

Унга кўра, Багира 20% с.э.к. қўлланилганда биологик самарадорлик 3-кунда 73,0%, 7-кунда 90,3%, 14-кунда 84,6% эканлиги аниқланди. Индокс 15% сус.к. препарати қўлланилганда 3-кунда 60,4%, 7-кунда 86,0%, 14-кунда эса 79,0% эканлиги кузатилди. Атилла 5% эм.к. препарати қўлланилган вариантда ҳам 3-кунда 64,8%, 7-кунда 88,8%, 14-кунда 79,6% самарадорлик кўрсатди. Матч 5% м.к.сус. препарати қўлланилганда эса самарадорлик 3-кунда 73,9%, 89,1%, 14-кунда 84,7% гача кўнғизлар миқдори камайган. Два-трин 10 % эм.к. препарати қўлланилган вариантда ҳам юқори самарадорлик 7-кунда 85,7% бўлган бўлса, Агрофос-Д 55% эм.к. препарати қўлланилган вариантда 3-кунда 64,7%, 7-кунда 91,1% гача кузатилган бўлса, 14-кунга бориб самарадорлик пасайди ва 70,5% эканлиги аниқланди. Проклейм 5% с.э.г. препарати қўлланилган вариантда 3-кунда биологик самарадорлик 69,5%, 7-кунда 89,1%, 14-кунда 82,6% самарадорликка эришилган. Юқоридаги тадқиқотларнинг барчасида самарадорлик 7-кунда эканлигини кузатиш мумкин. 14-кунга бориб зараркунандалар миқдори ўртача бир тупда 0,9 донга эканлиги аниқланган.

Аммо зараркунандалар миқдорини камайтиришда самарали натижага эришиш учун ишловларни яна бир мартаба ўтказиш бўйича тадқиқотлар давом эттирилди. Ушбу тадқиқотларда ҳам юқоридаги кимёвий воситалар қўлланилди. Унга кўра бунда ҳам юқори самарадорлик 7-кунда аниқланиб, 100% натижага эришилди, аммо Индокс 15% сус.к. ва Два-трин 10 % эм.к. қўлланилган вариантларда 7-кунда 88,8-91,6% самарадорликка эришилди.

Тадқиқотнинг 14-кунда аниқланган натижаларда зараркунанжалар миқдори ўртача бир туп дарахтда 0,2 донани ташкил қилди. Бу эса иқтисодий ҳафли сондан паст ҳисобланади. Шу сабаб зараркунандаларнинг имаголарига нисбатан кураш тадбирлари қўлланилмади.

Ўрмон ва манзарали дарахтлар биоценозида учрайдиган *Lepidoptera* туркумининг ихтисослашган паразит-энтомофаги ҳисобланган *Trichogramma dendrolimi* паразит-энтомофагини ўрмон ва манзарали дарахтлар биоценозларида

Қайрағоч баргхўрининг ривожланиш босқичларига турли кимёвий воситаларнинг таъсирчанлик даражаси (ТошДАУ Лаборатория тадқиқотлари, 2019-2021 йй).

Вариант	Ўртача бир тўп дарахтда имаголар сони				Тухумлар зарарланиши, % кунлар бўйича									
	Сарф меъёри л/га	Препарат билан зарарланган кунлар бўйича, 2019 й			Препарат қўлла-гунча	Паразит билан зарарланган кунлар бўйича, 2020 й			Препарат қўлла-гунча	Паразит билан зарарланган кунлар бўйича, 2021 й				
		3	7	14		3	7	14		3	7	14		
Атилла 5% эм.к.	0,6	20,2	5,3±0,01	2,1±0,05	4,4±0,01	17,1	4,2±0,01	1,4±0,03	2,7±0,02	16,8	3,8±0,01	1,6±0,06	2,7±0,05	
	0,7	18,7	4,2±0,05	1,2±0,02	2,7±0,03	16,8	4,0±0,06	1,2±0,02	3,1±0,02	22,1	3,4±0,03	1,3±0,03	2,8±0,03	
Матч 5% м.к.сус.	0,5	16,1	3,8±0,03	2,0±0,01	2,9±0,06	24,3	5,5±0,04	2,4±0,01	3,4±0,06	20,9	4,1±0,04	2,1±0,01	3,3±0,03	
	0,7	18,4	3,3±0,02	1,1±0,03	2,4±0,01	19,7	4,3±0,02	1,6±0,02	3,1±0,05	22,7	3,0±0,02	1,4±0,02	2,9±0,05	
Багира 20% с.э.к.	0,5	17,6	4,6±0,04	2,3±0,04	3,7±0,03	19,4	5,1±0,05	2,2±0,05	2,9±0,04	23,4	3,5±0,03	1,7±0,06	3,0±0,06	
	0,7	19,4	4,2±0,05	2,1±0,06	3,4±0,01	22,4	3,1±0,03	1,2±0,02	2,2±0,06	24,6	3,1±0,02	1,2±0,02	2,1±0,04	
Индокс 15% сус.к.	0,5	21,5	5,1±0,01	1,9±0,04	4,1±0,02	26,7	4,3±0,01	2,4±0,06	3,0±0,02	22,6	4,0±0,01	2,3±0,02	3,1±0,02	
	0,7	20,6	4,1±0,03	1,2±0,02	5,6±0,05	21,7	4,2±0,02	1,3±0,01	2,9±0,03	19,1	3,2±0,05	1,1±0,05	2,4±0,02	
Назорат (сув)	-	22,4	23,6	24,4	25,1	26,4	27,6	28,4	29,1	17,1	18,3	19,9	21,1	
Биологик самардорлик %														
Вариант	л/га	3	7	14	3	7	14	3	7	14	3	7	14	
	0,5	75,1	91,2	80,6	74,8	92,3	85,6	78,8	91,8	86,9	76,2	91,8	84,3	
Атилла 5% эм.к.	0,7	78,5	94,1	87,1	77,2	93,3	83,2							85,6
	Матч 5% м.к.сус.	0,5	77,6	88,6	83,9	78,3	90,8	87,3	81,7	91,5	87,2	79,2	90,3	86,1
0,7		82,9	94,5	87,9	79,1	92,4	85,7	87,6	94,7	89,6	83,2	93,8	87,7	
Багира 20% с.э.к.	0,5	75,1	88,0	81,2	74,8	89,4	86,4	86,0	93,7	89,6	78,6	90,4	85,7	
	0,7	79,4	90,0	84,3	86,7	95,0	91,0	88,2	95,8	93,0	84,7	93,6	89,4	
Индокс 15% сус.к.	0,5	77,5	91,9	82,9	84,6	91,6	89,8	83,4	91,2	88,8	81,8	91,5	87,1	
	0,7	81,1	94,6	75,7	81,4	94,4	87,8	84,3	95,1	89,8	82,5	94,7	84,4	

Қайрағоч баргхўрининг ривожланиш босқичларига турли кимёвий воситаларнинг таъсирчанлик даражаси
(ТошДАУ Лаборатория тадқиқотлари, 2019-2021 йй).

Ўртача бир тўп дарахда имаголар сони		Тухумлар зарарланиши, % кунлар бўйича												
Вариант	Сарф меъёри л/га	Препарат қўлла-гунча	Препарат билан зарарланган кунлар бўйича, 2019 й			Препарат қўлла-гунча	Паразит билан зарарланган, кунлар бўйича, 2020 й			Препарат қўлла-гунча	Паразит билан зарарланган, кунлар бўйича, 2021 й			
			3	7	14		3	7	14		3	7	14	
Агрофос-Д 55% эм.к	0,5	20,2	4,7+0,03	2,3+0,07	3,8+0,01	17,1	3,0+0,01	1,7+0,06	2,1+0,02	16,8	6,3+0,01	3,1+0,08	5,4+0,02	
	0,7	18,7	4,1+0,02	2,0+0,09	3,1+0,05	16,8	2,7+0,09	1,5+0,01	1,9+0,07	25,1	4,2+0,02	1,2+0,02	2,7+0,07	
Проклейм 5% с.э.г.	0,5	21,4	4,4+0,06	2,1+0,06	3,2+0,06	21,4	6,2+0,08	3,5+0,06	4,2+0,06	17,2	5,8+0,07	3,0+0,07	4,9+0,06	
	0,7	18,9	3,1+0,04	1,4+0,04	2,1+0,03	22,1	3,7+0,02	1,8+0,07	2,6+0,02	19,2	3,3+0,03	1,1+0,03	2,4+0,08	
5Два-трин 10 % эм.к.	0,5	16,1	3,5+0,05	1,6+0,06	2,6+0,04	24,3	6,7+0,06	4,1+0,09	5,6+0,01	20,9	6,6+0,01	3,3+0,02	5,7+0,05	
	0,6	18,4	3,1+0,01	1,3+0,02	2,8+0,02	19,7	4,1+0,05	1,4+0,02	2,5+0,03	22,7	3,2+0,02	1,7+0,04	2,8+0,06	
Назорат (сув)	-	22,4	23,6	24,4	25,1	26,4	27,6	28,4	29,1	17,5	18,3	19,4	21,1	
Биологик самарадорлик %														
Вариант	л/га		3	7	14		3	7	14		3	7	14	Ўртача
Агрофос-Д 55% эм.к	0,5		77,9	89,5	83,2		83,6	90,7	88,8		64,1	83,3	73,3	81,7
	0,7		79,1	90,2	85,2		84,6	91,7	89,7		83,9	95,6	91,0	88,6
Проклейм 5% с.э.г.	0,3		80,4	90,1	86,6		72,2	84,8	82,1		67,7	84,2	76,3	81,7
	0,5		84,4	93,1	90,0		83,9	92,4	89,4		83,5	94,8	89,6	89,7
Два-трин 10 % эм.к.	0,5		79,3	90,8	85,5		73,6	84,3	79,1		69,8	85,7	77,3	80,6
	0,6		84,0	93,5	86,1		80,0	93,4	88,5		86,5	93,4	89,7	88,1

катта иқтисодий зарар етгаздиган қайрағоч баргхўри зараркунандасига қарши қўллаш ва биологик самарадорлигини аниқлашда, унинг иқтисодий самарасини баҳолаган ҳолда амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Шу сабаб, манзарали дарахтлар орасида қайрағоч дарахтларида учрайдиган ва катта иқтисодий зарар етказадиган қайрағоч барг хўрига (*Xanthogaleruca luteola*) зараркунандасига қарши қўлланиладиган кимёвий ҳамда биологик кураш усулларининг иқтисодий самарадорлиги бўйича ҳам тадқиқотлар олиб борилди.

Илмий изланишлар Хоразм вилоятининг бир неча туманларида йўл четларида экилган қайрағоч дарахтларида ўтказилиб, кузатувлар май ойининг учунчи ўн кунлиги ҳамда июнь ойларида олиб борилди. Бу давр зараркунанданинг оммавий кўпайиши қайрағоч баргхўри оммавий тухум қўйиши ҳамда личинкалари ривожланиш даврига тўғри келди.

Қайрағоч баргхўри тухумлари битта дарахтда ўртача $22,4 \pm 0,03$ донга учрашни бошлаганда олиб борилди. Хоразм вилоятида қайрағоч плантатсиялари қайрағоч дарахти майдони уч қисмга бўлинди, умумий майдоннинг турли жойларидан (диаганал бўйлаб) модель дарахтлар ажратиб олинди. Шунингдек, ҳар битта модель дарахтларининг вариантларни оралиқ ҳимоя масофаси 100 метр қилиб белгиланди.


Манзарали дарахтларда кимёвий препаратларни қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилганда биологик самарадорлигини аниқлаш билан бирга иқтисодий самарадорликларини аниқлашга ҳам алоҳида эътибор қаратдик. Бунинг учун ҳар йили ҳимоя чора-тадбирлари ўтказилган майдонларда мавсум охирида манзарали дарахтларнинг ҳосилдорлигини аниқлаб бордик.

Қайрағоч манзарали дарахтида қайрағоч баргхўрига қарши инсектицидларнинг самарадорлигини ва ишлатиш тизимини яратиш тадқиқотларимизнинг асосий босқичларидан бири бўлиб ҳисобланди. Тадқиқотларда 7 та номдаги замонавий инсектицидлар синалди ва уларнинг айримлари бошқа екинларни ҳимоя қилишда ҳам кенг қўлланилади. Қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилган усул ва воситалар энг аввало ўзини иқтисодий жиҳатдан оқлаши лозим. Бундан ташқари, пестицидларни қишлоқ хўжалигида ишлатишнинг иқтисодий самарадорлигини ўрганиш айниқса, бозор иқтисодиётига ўтиш муносабати билан алоҳида ўрин эгаллайди.


Маълумки, манзарали дарахтлар орасида кенг тарқалган бир неча дарахтлар мамлакатимиз ва дунёда кўплаб ёғоч ўймакорлигида энг муҳим хом-ашё сифатида ишлатиладиган ёғочбop ўсимликларни етиштириш муҳим ҳисобланади. Ёғочлиги қиммат хом-ашё сифатида кўриладиган қайрағоч дарахти ҳам муҳим ҳисобланади. Бу дарахтнинг ёғочларидан ҳар хил мебел ясашда кенг фойдаланилади. Биз тадқиқотларимизда қайрағоч баргхўрининг қайрағоч ўсимлигига қанчалик иқтисодий зарар келтиришини ғисоблаб чиқдик.

Шу сабаб тажрибаларимизда синалган усулларнинг юқори биологик самарадорликни кўрсатган препаратларнинг ҳўжалик ва иқтисодий самарадорлигини ўрганишни ҳамда ишлаб чиқариш учун биологик самарадорлиги паст бўлмаган ҳолда ҳўжалик ва иқтисодий самараси юқори бўлган усулларни иқтисодий самарадорлигини аниқлашни мақсад қилиб олдик. Тадқиқотларимиз 2019-2021 йиллар давомида Хоразм ва Тошкент шаҳарларида қайрағоч баргхўрига қарши ўтказилди. Тадқиқотлар аҳоли дам оладиган ва сўлим масканлардаги қайрағоч (*Ulmus*) дарахтида ўтказилди.

Тадқиқотлар 2019-2021 йилларнинг май ойида олиб борилди. Бунинг учун ҳар вариантлардаги қайрағочлар юқоридаги усуллар асосида мавсумда икки мартаба ишлов асосида ўтказилди. Препаратнинг ҳўжалик самарадорлигини аниқлашдан олдин дарахтларнинг ҳар бирига 5 дондан қайрағоч баргхўри билан зарарлантирилди. Зарарлантирилган дарахтлар ҳар ойда бир марта назоратдан ўтказилиб турилди. Бунда зараркунанданинг ривожланиши, дарахтнинг зарарланиши ўрганилди. Назорат (ҳимоясиз) вариантда ҳам зараркунанда кўртлари билан зарарлантирилди.



4-расм. Қайрағоч дарахтида қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилган ҳимоя тадбирларнинг иқтисодий самарадорлиги.



5-расм. Қайрағоч дарахтида қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилган ҳимоя тадбирларнинг иқтисодий самарадорлиги

Оддий усул ёрдамида кимёвий воситаларни қўллаш ёрдамида ўртача 100 тупдан олинган ёғоч маҳсулоти $25,1 \text{ м}^3$ бўлган бўлса, назоратга нисбатан сақлаб қолинган ҳосил $12,9 \text{ м}^3$ ни ташкил қилди.

Назорат вариантимида эса тадқиқотдаги терактларнинг 78,0 % зарарланди ва олинган ёғоч маҳсулоти $12,2 \text{ м}^3$ ни ташкил қилди. Бу еса ушбу дарахт турининг зараркунанда билан зарарланиш даражаси юқорилиги ва экологик муҳитнинг қулайлиги ҳам кураш чораларини олиб борилмаган ҳолда юқори даражада зарарланиши ва ёғоч маҳсулотларини олиш имконияти кескин камайиши мўмкинлигини кўрсатди.

Бунда қайрағоч дарахтини кимёвий воситаларни пуркаш усули ҳамда биологик (энтомофагларни қўллаш) усулларининг ўзаро самарадорлиги аниқланди. Ҳар икки усулларда аввалги тадқиқотларда юқори биологик самарадорликка эришилган. Шунга кўра қайрағоч баргхўри зараркунандасига қарши курашда 7 турдаги кимёвий препаратлардан фой-

даланди. Биологик курашда тухум паразити *Trichogramma dendrolimi* энтомофагини 3 хил нисбатда қўлланилди ва самарадорлиги аниқланди.

Қайрағоч зараркунандасига қарши Атилла 5% эм.к. (0,7 л/га) инсектициди қўлланилган вариантда назоратга нисбатан - 12,5 м³, Матч 5% м.к.сус. (0,7 л/га) инсектицидида – 11,3 м³, Багира 20% с.э.к. (0,5 л/га) – 11,1 м³, Индокс 15% сус.к. (0,7 л/га) – 11,2 м³, Агрофос-Д 55% эм.к (0,7 л/га) инсектицидида – 12,8 м³, Проклейм 5% с.э.г.инсектицидида -11,7 м³ ва Два-трин 10 % эм.к. (0,7 л/га) инсектицидида – 11,2 м³ ҳосил сақлаиб қолинган.

Қайрағоч зараркунандасига қарши қўлланилган усул ва воситаларнинг рентабеллиги турли вариантларда фарқланиб, 167,8% (Проклейм – 0,7 л/га) 190,1% гача (Агрофос – 0,7 л/га) оралиқда ташкил қилди. Қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилган восита ва усулларнинг биологик ва иқтисодий самарадорлигига баҳо беришда маълум бўлдики, Проклейм – 0,7 л/га инсектицидининг биологик ва хўжалик самарадорликлари Индокс - (0,7 л/га) ва Багира (0,7 л/га) инсектицидларига нисбатан паст бўлишига қарамай, иқтисодий самарадорлиги кейингиларга нисбатан эса юқори бўлган.

Қайрағоч баргхўрига қарши қўлланилган усул ва воситаларнинг иқтисодий самарадорлигини ўрганиш давомида, Иккинчи тадқиқотларимизда *Trichogramma dendrolimi* ни 3 хил нисбатда қўлланилди ва самарадорликлари олинди. Бунга кўра *Trichogramma dendrolimi* 1:5 нисбатда қўлланилганда

назоратга нисбатан 8,8 м³; *Trichogramma dendrolimi* 1:10 да назоратга нисбатан 7,8 м³; *Trichogramma dendrolimi* 1:10 назоратга нисбатан 5,4 м³; ҳосил сақлаб қолинган.

Қайрағоч баргхўрига қарши биологик ҳимоя қилиш усулларининг рентабеллиги эса қуйидагича бўлди: *Trichogramma dendrolimi* 1:5 - 151,8%; *Trichogramma dendrolimi* 1:10 -144,6 %; *Trichogramma dendrolimi* 1:15 -122,1%.

Юқорида келтирилган усуллар асосида ушбу воситаларнинг белгиланган сарф меъёрларида қўлланилди.

Тадқиқотларда ҳар бир вариантимида бўйи 11,7 метр диаметри 14,0 см бўлган 100 дона 10 йиллик қайрағочларда ўтказилди. Дастлаб ушбу қайрағочларнинг м³ аниқланди. Ушбу ҳолатда битта қайрағоч 0,42 м³ эканлиги аниқланди.

Унга кўра зараркунандадан ҳимоялаш учун умумий сарф харажатлар биринчи вариантимида 1,973 минг сўм, иккинчи вариантимида эса 2,048,4 минг сўмни ташкил этди. Бошқа харажатларнинг умумийси биринчи вариантда 1505,0 минг сўм, 2305,0 сўмни ташкил қилди. 100 туп дарахтдан олинган ҳосилнинг нархи назоратда 14,640 минг сўм, биринчи варианта 30,120 минг сўм, иккинчи вариантжа эса 49,320 минг сўмни ташкил этди. Шартли соф фойда назорат вариантимида 13780 минг сўм, биринчи вариантда 26642 минг сўм, иккинчи вариантда эса 44967 минг сўмни ташкил этди.

Сарфланган бир сўмнинг оқланиши оддий усулда кимёвий воситаларни пуркашда 1,5 баробар, биологик усулда эса 2,4 маротаба оқланиши аниқланди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ижевский С.С. Интродукция и применение энтомофагов М.: Агропромиздат, 1990. – С.23.
2. Жаворонкова С. Вспышка массового размножения ильмового листоеда *Galerucella luteola* Müll. на Украине. – 2007. Режим доступа: <http://www.zin.ru/Animalia/Coleoptera/rus/gallutz.htm>
3. Калужная Н.С., Горбачева О.В., Дидык Л.К. Ильмовый листоед *Galerucella luteola* Müll. (Coleoptera. Crysomelidae) как вредитель зеленых насаждений на юге Ергеней (Калмыкия) // Энтомолог. обоз. – 1995. 74. №1. – С. 45–51.
4. Кажанчиков И.В. Методы исследования экология насекомых. – Москва, 1965. – С. 36–40.
5. Кимсанбаев Х.Х., Сулаймонов Б.А. Биологическая энтомофагларни кўпайтириш. Услубий қўлланма. – Тошкент, 2000. – Б. 18.–Б. 107.
6. Кимсанбаев Х.Х., Сулаймонов Б.А., Анарбаев А.Р., Ортиқов У.Д., Сулаймонов О.А., Жумаев Р.А., Ахмедова З.Ю. Биоценозда ўсимлик зараркунандалари паразит энтомофаглари ривожланиши. «O'zbekiston» НМИУ, –Тошкент: 2016. –Б. 235.
7. Кеппен Ф. Вредные насекомые. – СПб, 1881. – Том III. – 585 с. 6. Кузьмина Е.Г. *Xantogaleruca luteola* – вредитель вязов / Проблемы региональной экологии, Естественные науки №4 (33), 2010. – С. 15–17.
8. Кожанчиков И.В. Методы исследования экологии насекомых. –М.: Высшая школа, 1961.-С.44-46.
9. Кожанчиков И.В. Методы исследования экология насекомых.//Москва. 1965.- С.36-40.
10. Кимсанбаев. Х.Х., Жумаев Р.А. Renewing and rearing technology of *Bracon hebetor* Say in Biolaboratory Материалы VIII-оймеждународной научно - практической конференции молодых исследователей, г. Волгоград, 2014. –С. 257-260.
11. Кимсанбаев.Х.Х., Сулаймонов Б.А., Жумаев Р.А., Рустамов А.А., Сулаймонов О.А. Бракон турларини (Hymenoptera: Braconidae) ўстириш учун суний озуқа // Интеллектуал мулк агентлиги расмий ахборотномаси. №4(192). №1AP 0344. –Тошкент, 2017. –Б. 8.
12. Кимсанбаев Х.Х., Анорбаев А.Р., Жумаев Р.А. Биологическая трихограммани суний озиқа мухитларида ўстириш технологияси // ЎзМУ Хабарлари. № 3/2 – 2016. –Б 12-15.
13. Кимсанбаев Х.Х., Анорбаев А.Р., Сулаймонов О.А. Изучение эффективности применения интродуцированных вид *Trichogramma chilonis* Ishii в биоценозе хлопчатнике // Инновацион фан-таълим тизимини ривожлантиришнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги роли ва аҳамияти. Илмий-амалий конференция. 1-китоб. – Тошкент, 2014. – Б. 334-336.
14. Лакин Г.Ф. Биометрия: Учебное пособие для биологических специальных вузов 4-е издание., перераб. И доп.-М.: Высш.шк., 1990. – С.110-130.
15. Методические рекомендации. по надзору, учету и прогнозу массовых размножений стволовых вредителей и санитарного состояния лесов. Москва, Пушкино-2016.
16. Методические указания по промышленному производству трихограммы на биофабриках. Министерство сельского хозяйства Васхнил, Вниибмзр: Под ред Ш.М. Гринберга, А.С. Абашкина, В.А. Черкисова. М 1983. -С 74.

17. Определитель с/х вредителей по повреждениям культурных растений //(под ред. Г.Е. Осмоловского). – Л.: Колос, 1976. – 695 с.
18. Очилов Р. Атамирзаева Т., Рашидов М., Сагдуллаев А., Зохидов М., Саидова С. Трихограмминг сифатини аниқлаш бўйича услубий қўлланма. – Тошкент, 2005. – Б. 3-8.
19. Оглоблин Д.А. Листоеды *Galerucinae*. – В кн.: Фауна СССР. Насекомые жесткокрылые. М.; 1936, т. 26. – 455 с. 126
20. Орлова А.В. Ильмовый листоед (*Galerucella luteola* Müll.) вредитель городских насаждений //Альманах-2008 / под ред. д-ра хим. наук, проф. Г.К.Лобачевой; МАНОИ. ВО, РЭА, РАЕН, ВолГУ. – Волгоград: Изд-во Волгогр. гос. ун-та, 2008. – С. 127-131.
21. Озолин Г.П. Селекция ильмовых пород на устойчивость к голландской болезни / Среднеаз. НИИ лесн. хоз-ва. — Ташкент, 1958. — 84 с.
22. Озолин Г.П. Селекция тополя в Узбекистане на быстроту роста, производительность и устойчивость к болезням и вредителям / Среднеаз. НИИ лесн. хоз-ва. — Ташкент, 1962. — 198 с.
23. Озолин Г.П., Каргов В.А. Деревья и кустарники для защитного лесоразведения / соавт.: и др. — М.: Лесн. пром-сть, 1974. — 152 с.
24. Озолин Г.П., Маттис Г.Я., Калинина И.В. Селекция древесных пород для защитного лесоразведения / соавт.: — М.: Лесн. пром-сть, 1978. — 153 с.
25. Озолин Г.П., Бабаев А.Г. и др. Облесение пустынь / соавт.: — М.: Агропромиздат, 1985. — 299 с.
26. Рашидов М., Кимсанбаев Х., Сулайманов Б. и др. Требования к биологическим средствам (энтомофагам) борьбы с вредителями, сельскохозяйственных культур и методы их контроля. -Ташкент, 2007.—С. 19.
27. Серый Г.А. Массовое размножение Ильмового листоеда в Волгоградской области// Известия Санкт-Петербургской лесотехнической академии. – СПб: СПбГЛТА, 2009. – Вып.187. – С. 304-310.
28. Справочник. Вредители леса : М.-Л. , 1955. 512 с.
29. Танский В.И. Биологические основы вредоносности насекомых // М.:В.О Агропромиздат, 1988. –С 226.
30. Танский В.И. Биологические основы вредоносности насекомых. //- МВО Агропромиздат. 1985.-180 с.

НОК ДАРАХТИ БАРГЛАРИДАГИ ФОТОСИНТЕТИК ПИГМЕНТЛАРГА КАСАЛЛИК ҚЎЗГАТУВЧИ ЗАМБУРУҒЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Пулатов Азизжон Аллаёр ўғли, таянч докторант,

Умаров Зафар Абдишукурович, қ.х.ф.ф.д (PhD) катта илмий ходим,

Академик М.Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Ушбу мақолада нок боғларида замбуруғли касалликларнинг зарари натижасида нок дарахти баргларидаги фотосинтетик пигментларига таъсири таҳлил қилинган. Тадқиқот натижаларига кўра нок дарахти баргларида хлорофилл-а ва b пигментларининг ўртача миқдори касалликлар билан зарарланган баргларда бирмунча паст кўрсаткичлар қайд этилди. Бунда энг паст кўрсаткич учинчи намунадаги баргларда 4,212 мг/г ни ташкил этиб, энг юқори кўрсаткич зарарланмаган барглардаги тўртинчи намунада 7,809 мг/г гача бўлганлиги аниқланди.

Калим сўзлар: фотосинтетик пигмент, хлорофилл-а, хлорофилл-б, биоиндикатор, патоген, калмазар, монилиоз.

Abstract. This paper analyzes the effects of fungal diseases on photosynthetic pigments in pear tree leaves. According to the results of the study, the average amount of chlorophyll-a and b pigments in pear tree leaves was slightly lower in diseased leaves. It was found that the lowest index was 4,212 mg/g in the leaves of the third sample, and the highest index was 7,809 mg/g in the fourth sample of undamaged leaves.

Key words: photosynthetic pigment, chlorophyll-a, chlorophyll-b, bioindicator, pathogen, pear scab, moniliosis.

Кириш. Маълумки, ўсимликлар турларини барқарор ривожланишининг асосий кўрсаткичи уларнинг яшаш муҳити омиллари билан боғлиқдир. Атроф-муҳитнинг сифат кўрсаткичлари ўсимликларда биоиндикаторларнинг кенг доирада ривожланиши билан белгиланади. Ўтсимон ўсимликлар ва барча мевали дарахтларда биоиндикаторларнинг миқдори қанча кўп бўлса, уларда органик моддаларнинг тўпланиши шунча юқори бўлади [Е.Л.Гатина, 2009]. Шулар қатори ўсимликларда фотосинтетик пигментларнинг ҳам ўрни биқиёс бўлиб, ушбу пигментлар ичида асосийлари сифатида хлорофилл-а, ёрдамчи пигмент сифатида хлорофилл-б муҳим аҳамиятга эгадир. Иккала хлорофилл ҳам фотосинтетик мембраналарнинг ҳақиқий компонентларидан бири бўлиб, биргина хлорофилл-б пигменти ёруғлик йиғувчи асосий регулятор, ёруғлик оқимининг юқори интенсивлигида ўсимликлар учун потенциал хавфли бўлган ортиқча ёруғлик энергиясини тарқатишда иштирок этади. Бошқа томондан, хлорофилл-б ёруғлик етишмаслиги шароитида ва фотосинтетик комплексларни тезда қайта ташкил этишда қатнашадиган муҳим пигмент ҳисобланади [Е.В.Тютерева, 2017].

Барча ўсимликлар дунёсида, шу билан бир қаторда мевали дарахтларда ҳам пигментлар комплекси куёш энергиясини боғланишлар орқали кимёвий энергиясига фотосинтетик йўл билан айлантирувчи асос бўлиб хизмат қилади. Ўсимликларда асосий фотосинтетик пигментлар хлорофилллар, каротиноидлар, стероллар ва пренилкинонлар бўлиб 1976 йилда Goodwin ва N.K.Lichtenthaler томонидан пренил липидлар деб номланган ҳамда изопеноид ўсимлик липидлари гуруҳига киритган. Улар ўсимликларнинг барглари, новдалари ва бошқа яшил қисмларида кенг тарқалган бўлади [В.Г.Ладыгин, 2006]. Мевали дарахтларда ва бошқа ўсимлик турларида пигмент комплексининг миқдори унинг тузилишига, атроф-муҳит шароитларига ва ташқи муҳит омилларига боғлиқдир [Д.Н.Андреев, 2014; В.В.Рогсон, 2005]. Фотосинтетик пигментларнинг миқдорий ва сифат таркибидаги ўзгаришлар ўсимликларнинг физиологик ҳолатининг муҳим


биоқўрсаткичлари бўлиб, атроф-муҳитдаги турли хил омиллар таъсирида адаптив шаклда ўзгариб туради [Т.К.Головко, 2010; Lichtenthaler, Wellburn, 1985].

Сўнгги йилларда нок боғларида юқори стресс омиллар таъсирида фотосинтетик пигментлар биомассасининг ўзгариши кузатилмоқда. Бу уларнинг ташқи муҳит омилларига турли хил касаллик ва зараркундаларнинг зарари натижасида юзага келмоқда. Ҳозирги вақтда нок боғларида фотосинтетик пигментларни ўрганиш ҳамда уларни таҳлил қилиш жуда долзарб ҳисобланади. Чунки ушбу тадқиқотлар орқали нок дарахтида органик моддаларнинг ҳосил бўлиши, ҳосилдорлиқнинг ортиши ёки камайиши ҳамда нок дарахтининг ривожланиш босқичларида фотосинтетик пигментларнинг миқдорий ўзгаришлари каби муҳим кўрсаткичлари тадқиқ қилинади.


Шу мақсадда биз ўз тадқиқотларимизда нокнинг касалликлар (калмазар, монилиоз) билан зарарланган ва соғлом баргларида пигментлар миқдорини лаборатория шароитида таҳлилларни олиб бордик.

Материаллар ва тадқиқот усуллари. Бунда нокнинг касалликлар билан зарарланган ва соғлом баргларида намуналар лабораторияга олиб келинди ва лаборатория шароитида хлорофилл-а ва b пигментларнинг миқдорий таҳлиллари амалга оширилди. Намуна сифатида олиб келинган нок баргларида пигментлар миқдорини (mg/l ёки mg/gr) аниқлаш учун "LAMBDA 265" (PerkinElmer, USA) **УФ спектрофотометридан ҳамда Н.К.Личтенталер (1987) услубий қўлланмаси ва тенгламаларидан фойдаланилди.** Тадқиқотларда нок боғларининг касалликлар билан зарарланган ва соғлом баргларида пигмент комплекси таркибий қисмларининг физиологик таҳлиллари олиб борилди. Касалликлар билан зарарланган ва соғлом нок барглари тадқиқот далааларидан эрталаб соат 9⁰⁰ ва 10⁰⁰ оралиғида новдининг юқори қисмидан тўрт ёки бешта барг қолдрилиб пастки қисмидан наъмуна сифатида узиб келинди (1-расм). Олиб келинган барглар (соғлом ва касалланган) лаборатория


шароитида 50 мгр. миқдорда аналитик тарозида ўлчаб олиниб, майдалаб чиқилди. Соғлом ва касалланган баргларидаги хлорофилл-а ва b пигментларини эритмада эритиб олиш учун 5 мл миқдоридagi 96% ли этанолдан фойдаланилди.



1-расм. А-қисман зарарланган барг;
В-тўлиқ зарарланган барг,
С-касаликлар билан зарарланмаган барг.



2-расм. Соғлом ва замбуруғли касаликлар билан зарарланган барглрда хлорофилл-а пигментининг миқдори.



3-расм. Соғлом ва замбуруғли касаликлар билан зарарланган барглрда хлорофилл-b пигментининг миқдори.

жадвал.

Соғлом ва зарарланган (калмараз ва монилиоиз касаликлари билан) барглрда хлорофилл-а ва b пигментларининг таҳлилий миқдори.

Лаборатория тадқиқотлари, академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ
“Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва карантин” лабораторияси, 2023 йил.

T/p	Барглр	Chl-a, мг/г	Ў Chl-a/ЎХ	Chl-b, мг/г	Ў Chl-b/ЎХ	Chl-a+b, мг/г	Ў Chl a+b, мг/г	Нисбати, Chl-a:b
1	Касалланган барглр (Замбуруғли касаликлар билан касаланган барглр)	1,820	1,81±0,014	3,78	3,435±0,48	5,60	5,245±0,50	0,48
		1,800		3,09		4,89		0,58
2		1,668	1,582±0,12	2,991	2,788±0,28	4,66	4,370±0,40	0,56
		1,497		2,585		4,08		0,58
3		1,886	1,612±0,38	2,713	2,60±0,16	4,60	4,212±0,54	0,70
		1,338		2,488		3,83		0,54
4		1,474	1,535±0,086	3,036	3,047±0,016	4,51	4,582±0,10	0,49
		1,596		3,059		4,66		0,52
1	Соғлом барглр (Замбуруғли касаликлар билан касаланмаган барглр)	2,210	2,03±0,25	4,36	3,975±0,54	6,57	6,005±0,79	0,51
		1,850		3,59		5,44		0,52
2		2,065	2,164±0,14	3,733	4,164±0,6	5,80	6,328±0,75	0,55
		2,264		4,595		6,86		0,49
3		2,588	2,442±0,20	4,393	4,135±0,36	6,98	6,578±0,56	0,59
		2,297		3,878		6,18		0,59
4		2,613	2,559±0,076	4,822	5,250±0,6	7,44	7,809±0,52	0,54
		2,505		5,679		8,18		0,44

Изоҳ: Chl-a – хлорофилл-а; Chl-b – хлорофилл-b; Chl a+b – умумий хлорофил миқдори; Chl-a:b – пигментларнинг ўзаро нисбати; Ў – ўртача; Х – ўртача ҳатолик.

кетма-кетлигида хлорофилл-а нинг миқдори 1,81 мг/г, 1,582 мг/г, 1,612 мг/г ва 1,535 мг/г гачани ташкил этди. Шунингдек, ушбу тадқиқот вариантларда хлорофилл-в нинг миқдори ўрганилганда мос равишда 3,435 мг/г, 2,788 мг/г, 2,60 мг/г ва 3,047 мг/г ни ташкил этганлиги аниқланди. Энг паст кўрсаткич иккинчи ва учинчи вариантларида 2,60 мг/г дан 2,788 мг/г ташкил этганлиги аниқланди (2-3-расм).

Тадқиқот натижаларига кўра нок баргларида хлорофилл-а ва b пигментларининг ўртача миқдори касалликлар билан зарарланган барглarda бирмунча паст кўрсаткичлар қайд этилди. Бунда энг паст кўрсаткич учинчи вариантдаги барглarda 4,212 мг/г ни ташкил этиб, энг юқори кўрсаткич

зарарланмаган барглardaги тўртинчи вариантда 7,809 мг/г гача бўлганлиги аниқланди.

Хулоса. Юқоридаги лаборатория тажрибаларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, нок боғларида турли хил замбуруғли касалликлар натижасида нок дарахтининг фотосинтетик пигментлар миқдорига салбий таъсир кўрсатиши маълум бўлди. Биргина зарарланган барглarda хлорофилл-а пигментининг миқдори соғлом барглarda қараганда 1,024 мг/г гача ва хлорофилл-в пигментининг миқдори 2,65 мг/г гача йўқотилганлиги қайд этилди. Бунинг натижасида нок дарахтида органик моддаларнинг кам ҳосил бўлиши, ҳосилдорлиқнинг пасайиши аниқланди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Андреев Д.Н. Биоиндикация состояния окружающей среды по относительным показателям флуоресценции хлорофилла // Вестник Московского государственного университета леса – Лесной вестник. – 2014. – Т. 18. – № 5. – С. 6-9.
2. Гатина Е.Л. Антропогенная трансформация ботанического разнообразия на территории Пермского края // Проблемы региональной экологии. – 2009. – №5. – С. 160-165.
3. Головкин Т.К. Пигментный комплекс растений природной флоры Европейского Северо-Востока / Т.К. Головкин, И.В. Далькэ, О.В. Дымова, И.Г. Захожий, Г.Н. Табаленкова // Известия Коми научного центра УрО РАН. – 2010. – №1 (1). – С. 39-46.
4. Ладыгин В.Г. Современные представления о функциональной роли каротиноидов в хлоропластах эукариот / В.Г. Ладыгин, Г.Н. Ширшикова // Журн. общ. биологии. – 2006. – Т. 67. – С. 163-189.
5. Тютерева Е.В. Хлорофилл b как источник сигналов, регулирующих развитие и продуктивность растений / Е.В. Тютерева, В.А. Дмитриева, О.В. Войцеховская // Сельскохозяйственная биология. – 2017. – Т. 52, №5. – С. 842-855.
6. Pogson B.J. The roles of carotenoids in photosystem II of higher plants / B.J. Pogson, H.M. Rissler, H.A. Frank // Photosystem II: the light-driven water: plastoquinone oxidoreductase / Eds. Wydrzynski T., Saatoh K. Dordrecht: Springer-Verlag, 2005. – P. 515-537.
7. Lichtenthaler H.K and Wellburn, A.R. (1985). Determination of total carotenoids and chlorophylls a and b of leaf in different solvents. Biochem. Soc. Trans. 11. 591-592.
8. Lichtenthaler, Hartmut. (1987). Chlorophylls and carotenoids: Pigments of photosynthetic biomembranes. Methods in enzymology. 148C. 350-382. 10.1016/0076-6879(87)48036-1.

УЎТ: 634.2: 632.4: 581.2: 582.28

ШАФТОЛИ БАРГ БУЖМАЙИШИ, ҚЎЗГАТУВЧИСИНИНГ БИОЛОГИЯСИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ

Ҳасанов Ботир Ачилович, б.ф.д., профессор, ТошДАУ,
Бойжигитов Фозил Муҳаммадиевич, Академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ
Каримов Отабек Камалдинович, таянч докторант, АндҚХАИ,
Турдиева Дилфуза Тиркашбоевна, доцент, АндҚХАИ.

Аннотация. Шафтолида замбуруғлар ва оомикетларнинг 220+ тури касаллик қўзғатиши адабиётларда хабар қилинган. Улардан *Taphrina deformans* қўзғатадиган барг бужмайиши дунёнинг кўп мамлакатларида учрайди ва айрим минтақаларда мева ҳосилига жиддий иқтисодий зарар етказиши. Ушбу мақолада *T. deformans* замбуруғининг белгилари, сапротроф дрозжжа ва биотроф мицелиал ривожланиши босқичлари, зарарланадиган дарахт турлари, касалликнинг белгилари, ривожланиши ва унга қарши кимёвий, биологик ва бошқа кураш усуллари ҳақида батафсил маълумотлар келтирилган.

Калим сўзлар: шафтоли, барг бужмайиши, *Taphrina deformans*.

Аннотация. По сообщениям литературы персик поражается более 220 болезнями, вызываемыми грибами и оомикетами. Из них курчавость листьев встречается во многих странах мира и в отдельных их регионах наносит серьезные экономические потери урожаю плодов. В данной обзорной статье приведены подробные сведения о признаках *Taphrina deformans*, его сапротрофной дрозжевой и биотрофной мицелиальной фазах развития, симптомах и развитии болезни и химическом, биологическом и других методах борьбы против заболевания.

Ключевые слова: персик, курчавость листьев, *Taphrina deformans*.

Abstract. According to the literature more than 220 fungal and oomycete species can infect peach trees. Of these, peach leaf curl occurs in many countries of the world, and in some causes economically significant fruit yield losses. This review article

provides detailed information about the signs of *Taphrina deformans*, its saprotrophic yeast and biotrophic mycelial stages of development, symptoms and development of the disease, and chemical, biological and other methods its control.

Key words: peach, leaf curl, *Taphrina deformans*.

Кириш. Шафтолининг ватани Марказий ва Шимолий Хитойнинг тоғли ҳудудлари бўлиб, бу мамлакатда шафтоли эрамиздан аввалги 10 асрда етиштирилган. Ёввойи ҳолда фақат Хитойда ўсади. Кейин шафтоли дунёнинг бошқа жойларига тарқалган. Фарғона водийсида шафтоли 4-асрда ўстирилгани маълум; шафтоли биохилма-хиллиги бўйича Ўзбекистон Хитойдан кейинги 2-ўринда туради (Ковтун, 2007 ва Леонов, 2010б дан олинган). Меваларининг белгиларига қараб шафтоли 2 типга бўлинади: оддий, тукли шафтоли *Prunus persica* (L.) Batsch турига мансуб, туксиз кенжа тури эса нектарин деб аталади ва унинг илмий номи *Prunus persica* var. *nucipersica* (Suckow) C.K. Schneid.


Биз тўплаган маълумотларга кўра, шафтоли ва нектарин дарахтларида тахминан 207 та ҳақиқий замбуруғ ва 15 та оомицет турлари касаллик кўзгатади. Улардан 50 та замбуруғ тури Ўзбекистонда ҳам учраши хабар қилинган, аммо уларнинг аксарияти шафтолидан бошқа ўсимлик турларида қайд этилган ва кўпчилиги шубҳали (*incertae sedis*) таксонлардир.

Барг бужмайиши (буралиши) касаллиги дунёнинг шафтоли экиладиган барча мамлакатларида учрайди ва кўп минтақаларда шафтолининг мева ҳосилига жиддий зарар етказадиган иқтисодий муҳим касаллиги ҳисобланади.

Касаллик кўзгатувчи замбуруғнинг белгилари. Ушбу касалликни кўзгатувчи *Taphrina deformans* Tul. (синонимлари *Exoascus deformans* Fuckel ва б.) тури Mycota олами, Ascomycota филуми, Taphrinomycotina кенжа филуми, Taphrinomycetes синфи, Taphrinales тартибининг Taphrinaceae оиласига киради. *Taphrina deformans* диморфик тур бўлиб, унинг хужайралари бир гаплоид ядроли, дрожжа шаклли сапрофит фазаси ва хужайралари дикариотик ёки кўп ядроли мицелиал биотроф (облигат) паразит фазаси мавжуд. Мицелиал фазасида ҳосил бўлиши пайтидан бошлаб, ядролари хужайраларда жуфт-жуфт бўлиб (дикарионлар шаклида) жойлашади (Alexopoulos et al., 2007; *Taphrina deformans*, 2018).

Замбуруғнинг хўжайин ўсимлик аъзоларида ҳосил қиладиган асклари рангсиз, кенг цилиндр, кенг тўқмоқ ёки қоп шаклли, устки қисми думалоқлашган, кичик, калта оёқчали, ўлчами 17-56х7-15 мкм, ўртача 41,4х11,0 мкм, 8 спорали. Аскоспоралари рангсиз, шар ёки овоид шаклли, диам. 3,0-7,9 мкм, ўртача 7,1х5,6 мкм. Замбуруғни лабораторияда озуқа муҳитларида фақат сапрофит дрожжа босқичида ўстириш мумкин. Бунинг учун кардинал ҳароратлар 8,9°-26-30,5°С, оптимум 20°С (Pscheidt, 2008; Broome, Ingels, 2014; *Taphrina*

deformans, 2018a,b; Oh et al., 2020). ҚДА муҳитида замбуруғ колонияларининг устки ва остки тарафи нимранг ёки қизғиш-нимранг тусли (1-расм), мойсимон, ялтироқ; замбуруғ жуда секин ўсади: 20°С да 21 кун ўсган колонияларнинг диаметри 20 мм. ҚДА муҳитида ҳосил бўлган бластоكونидиялари рангсиз, шар ёки овоид шаклли, ўлчами 4,4-8,6х2,8-5,4 мкм, ўртача 6,2-3,8 мкм (Oh et al., 2020).



1-расм. Петри идишида ҚДА озуқа муҳитида *Taphrina deformans* нинг дрожжа шаклли колониясини устки (чапда) ва остки (ўнгда) тарафидан кўриниши (Oh et al., 2020).

Ареали. Бу космополит тур Ўзбекистонда Фарғона водийсида кўп учрайди, Тошкент, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятларининг айрим қисмларида ҳам кенг тарқалган. Патогеннинг географик тарқалиши ҳақидаги батафсил маълумотлар адабиётларда келтирилган (Ҳасанов ва б., 2022).

Адабиётларда чоп этилган маълумотлар асосида собик иттифоқ ҳудудларини шафтоли барглари бужмайиши касаллигининг эпифитотиялари учраши частотасига қараб, 3 та гуруҳга ажратиш мумкин (жадвалга қаранг). Ўзбекистон ҳудудлари қайси гуруҳ(лар)га кириши ҳозирликча ҳал этилмаган.

Зарарланадиган дарахт турлари. *Taphrina deformans* нинг асосий хўжайини туксиз ва тукли шафтоли ҳамда бодом эканлиги хабар қилинган; бодомни зарарловчи замбуруғ олдин *Taphrina amygdali* тури сифатида баён этилган бўлиб, кейин у *Taphrina deformans* нинг синонимига айлантирилган (Род Тафрина, 2018). Жанубий Америкада патоген, шафтолидан ташқари, Lauraceae оиласига кирувчи бир неча дарахт турларини ҳам зарарлайди (*Taphrina deformans*, 2022).

Шафтоли барглари бужмайиши касаллиги тарқалиши бўйича собик иттифоқ ҳудудининг гуруҳлари

Гуруҳлар ва уларга кирувчи мамлакатлар / минтақалар	Эпифитотия неча йилда бир марта учраши	Касаллик тарқалиши, %
1-гуруҳ: Грузия, Жанубий Украина, Молдова, Озарбайжон (Ордубад минтақаси), Туркменистон, Россияда Краснодар ва Ставропол ўлкаларининг марказий ва жанубий қисмлари, Адигея, Карачаев-Черкесия, Қора денгиз бўйи, Қрим	2	50-100
2-гуруҳ: Озарбайжон ва Арманистоннинг тоғолди минтақалари, Россияда Доғистон	3	30-50
3-гуруҳ: Қозоғистон, Қирғизистон, Россияда Ростов вилоятининг ҳамда Краснодар ва Ставропол ўлкаларининг шимолий қисмлари	5	10-30

Руминия, Украина ва Австралида *Taphrina deformans* ўрикни ҳам зарарлаши хабар қилинган (Пидопличко, 1977; Diekmann, Putter, 1994; Pscheidt, 2008; Нагорная, 2015). Аммо ўрикни зарарловчи замбуруғ ҳам алоҳида ва мустақил *Taphrina mume* Nishida (синоними *T. armeniaca* Georgescu & Badea) тури сифатида барпо этилган ва у шафтолини зарарламайди (Diekmann, Putter, 1994; *Taphrina mume*, 2023). *T. mume* дан ташқари ўрикни Шимолий Америкада *Taphrina pruni-subcordatae* (Zeller) Mix, бошқа мамлакатларда *Taphrina weisneri* (Ráthay) Mix (синонимлари *T. cerasi* Sadeb. ва б.) турлари ҳам зарарлаб, барг бужмайиши ва жодугар супургиси белгиларини ҳосил қилиши хабар қилинган (Diekmann, Putter, 1994).

Умуман *Taphrina* туркумининг турлари ўзларининг ҳўжайин ўсимликларини зарарлашга юқори даражада ихтисослашган. Кўпинча туркумининг данак мевали дарахтларда учрайдиган ҳар бир тур *Prunus* туркумининг бир ёки бир неча турини зарарлайди (Diekmann, Putter, 1994). Шу сабабдан *Taphrina* туркуми турларини тўғри идентификация қилиш учун ДНК-таҳлили асосли тажрибаларни ўтказиш ва текширилаётган изолятнинг муайян дарахт турига патогенлигини тажрибада аниқлаш, яъни Кох постулатларини бажариш талаб этилади.

Шундай, яқинда Кореяда *Taphrina deformans* олхўрида мевалар шишиши касаллигини ҳам қўзғатиши аниқланган, замбуруғ морфологик ва молекуляр белгилари (ITS ва митохондриий SSU ларининг сиквенслари) асосида идентификация қилинган, унинг олхўри меваларини зарарлаши сунъий зарарлаш тажрибаларида исботланган (Oh et al., 2020).

Касаллик белгилари ва ривожланиши. Шафтоли ва нектариннинг энг кўп ёш барглари, камроқ ёш, яшил новдалари ва шохлари, куртаклари, гуллари ва баъзан мевалари зарарланади. Барглarda касаллик белгилари улар куртақдан чиққанидан кейин, қулай шароитларда 9 кун, паст ҳароратларда ~30 кунгача (Shane, undated), ўртача ~2 ҳафта ўтганида намоён бўлади (Broome, Ingels, 2014). Зарарланган барглр қалинлашади, марказий томири бўйлаб букилади, устида сариқ ва қизил тусли пуфаксимон шишлар ҳосил бўлади, барг усти ғижимланган шакл олади ва буралиб, бужмайиб қолади (2-расм). Барглр қалинлашиши ва ўсиб кетишининг сабаби тўқима ичида замбуруғ β-индолил-3-сирка кислотаси (ИУК), индолил-3-ацетонитрил, гиббереллин А4 ва А гормонлари ҳамда бошқа, таркиби ҳали аниқланмаган, ўсимликлар ўсишини жадаллаштирувчи бирикмаларни синтез қилиши, натижада ўсимлик ҳужайралари бўлиниши тезлашиши (гиперплазия) ва алоҳида ҳужайраларнинг ўлчами катталашиб кетиши (гипертрофия) ҳисобланади (Diekmann, Putter, 1994; Ковтун, 2007; *Taphrina deformans*, 2018, 2022).



2-расм. Шафтоли барглари бужмайиши касаллигининг белгилари (Sabrina Тўрак расми, Gleason et al., 2016 дан олинган).

Барглр зарарланиши учун камида 3,5 мм ёғингарчилик ва 12,5 соат ёки узокроқ вақт давомида томчи намлик, ҳарорат 16°C дан паст бўлиши керак. Споралар куртакланиши ва ниш найча чиқариб ўсиши учун ҳарорат 12-16°C ва ҲНН 95% бўлиши қулай. Намлик дарахтларда 2 кун ёки ундан ҳам кўпроқ мавжуд бўлса, барглр жуда кучли зарарланади. Зарарланишдан кейин ҳарорат 20°C дан юқори бўлса касаллик белгилари кузатилмаслиги мумкин. Совуқ об-ҳавода зарарланиш давом этади. Қуруқ ва иссиқ (26-30°C) об-ҳавода касаллик ривожланиши тўхтайди (Broome, Ingels, 2014; *Taphrina deformans*, 2018a,b).

Баҳорда зарарланган куртаклардан зарарланган новдалар ва барглр ўсиб чиқади. Зарарланган новдалар қалинлашади, барглари тўкилиши ва новдалар яланғоч бўлиб қолиши, гуллр ва мева тугунчалари тўкилиши мумкин. Кучли зарарланган новдалар оч-яшил, кейин сариқ тус олади, ўсмайди, бўғин оралари қалта бўлиб, учки томонида барглр розеткаси ҳосил бўлади. Бундай новдалар кўпинча қуриб қолади, омон қолганлари ёз жазирамасида ёки қишда биринчи совуқда нобуд бўлади. Новдаларнинг тепа куртаги зарарланганида касаллик бутун новдада, ён куртаклар зарарланганида фақат барглarda намоён бўлади. Зарарланган новдалар жорий йилда ҳам, кейинги мавсумда ҳам ҳосил бермайди. Кучли зарарланган дарахтларнинг ҳосили тўла (100% гача) йўқотилиши мумкин. 2-3 йил давомида мунтазам зарарланган дарахтлар охири нобуд бўлади (Diekmann, Putter, 1994; Agrios, 2008; Broome, Ingels, 2014; Курчавость, 2018a,b; *Taphrina deformans*, 2018a,b).

Касаллик белгилари кўрингандан кейин 8-10 кун ўтганида барглarda кутикула остида замбуруғ аскларининг оқиш, (оч-) кулранг, қумуш тусли мумсимон гимениал қатлами ҳосил бўлади. Уларнинг босими остида кутикула ёрилади ва асклар ташқарига очилади. Аскоспоралар ҳосил бўлиши ва тарқалиши учун ҳарорат 20°C дан паст бўлиши керак, бунинг учун оптимум 10°C. Аскоспоралар ҳали аск ичида пайтида куртакланиб бошлайди ва иккиламчи споралар – бласто-споралар (бласкоконидиялар) ҳосил бўлади. Бу споралар асклардан босим билан фаол отилади ва ҳаво оқимлари билан тарқалади. Улар жорий мавсумда шафтоли аъзоларини зарарламайди, кейинги мавсум учун шаклланаётган куртакларга тушади ва аста-секин ҳосил бўлаётган янги куртак тангачаларининг остида қолади. Бу споралар кейинги мавсум учун инфекция манбаи бўлиб хизмат қилади. Бу даврда боғда бошқа аскоспоралар ва конидияларнинг сапрофит фазаси бошланади ва бу босқич кейинги йилнинг баҳоригача давом этади. Шафтоли баргларига тушган бу споралар салқин ва нам (ҲНН ≥95%) об-ҳаво кузатилган пайтларда барглarda мавжуд бўладиган оддий карбонсувлр билан озиқланиб, қайта-қайта куртакланади, кўплаб янги бластоконидияларни ҳосил қилади ва дарахт аъзоларининг устида уларнинг қалин қатламлари ҳосил бўлади. Аскоспоралар ва бласто-споралар куртакланиши учун кардинал ҳароратлар 5°C ва 37°C, оптимум 14-21°C. Умуман, *Taphrina deformans* шафтоли дарахтлари нормал эпифит микобиотасининг аъзоси ҳисобланади ва унинг кўп сонли споралари дарахт аъзолари устида бутун мавсум давомида мавжуд бўлади. Бу споралар иссиқ, қуруқ ёз давомида ва қиш мавсумида куртаклар ичида, новдаларда яралардаги елимда ва шох-новдаларнинг тирқишларида сақланади (Rossi, Languasco, 2007; Agrios, 2008; Broome, Ingels, 2014; Курчавость, 2018a; *Taphrina deformans*, 2018a,b).

Кейинги мавсумда замбуруғ ривожланишининг мицелиал биотроф фазаси бошланади. Бунда эрта баҳорда қишлаган

споралар тарқалиб, шафтоли аъзоларига (барглари) тушади, у ерда спораларнинг икитаси қўшилиб, копуляция қилиши натижасида ҳосил бўлган 2 ядроли ҳужайрадан инфекция мицелий ўсиб чиқади ва ёш баргларнинг тўқимасига кутикула тешиб ёки устица орқали киради. Бу мицелийнинг ҳужайралари дикариотик ёки кўпинча кўп ядроли (поликариотик). Мицелий барг ҳужайралари орасида ўсади, эпидермис ва кутикула орасида гифаларининг катта миқдорларини ҳосил қилади. Кейин гифаларнинг айрим ҳужайралари ўсиб, катталашиб, аскоген ҳужайрага айланади. Бу ҳужайрада битта септа ривожланади, бунда ҳосил бўлган базал ҳужайра аск оёқчасига, апиал ҳужайра эса аскага айланади. Баъзан аскоген ҳужайрада септа ҳосил бўлмайди ва у тўла аскага айланади. Аск ичида мейоз ва митоз бўлиниш юз беради, 8 та ядро ҳосил бўлади ва уларнинг атрофида цитоплазма тўпланиб, 8 та бир гаплоид ядроли аскоспоралар шаклланади. Аскларнинг босими таъсирида кутикула ёрилади ва аскларнинг гимениал қатлами ташқарига очилади. Асклардан аскоспоралар ва бластоконидиялар босим билан ҳавога отилади ва замбуруннинг ривожланиши давом этади (Alexopoulos et al., 2007). Юқорида келтирилган иаълумотлардан кўриниб турибдики, шафтоли барг бужмайиши моноциклик касаллик бўлиб, *T. deformans* мавсумда фақат бир инфекция цикли бериб ривожланади (Pscheidt, 2008; *Taphrina deformans*, 2018b; Род Тафрина, 2018). Аммо ёз ўрталарида об-ҳаво ғайриоддий салқин ва нам бўлса, ёш новдалар ва баргларда касаллиқнинг тасодифий иккиламчи ривожланиши кузатилиши мумкин (Shane, undated).

Кураш чоралари. Шафтоли барг бужмайишига қарши агротехник тадбирлар – зарарланган шох-новдаларни буташ ва зарарланган меваларни тўплаб йўқотиш самара бермайди (Hetherington, 2005).

Навлар чидамлилиги. Шафтоли ва нектаринда чидамлилики кўп сонли генлар бошқаради, шу сабабдан навларнинг чидамлилики даражаси жуда хилма-хил бўлади. Шафтолининг бу касалликка иммун ва юқори чидамли навлари йўқ, аммо аммо айрим навлари камроқ зарарланади (Gleason et al., 2016; *Taphrina deformans*, 2018). Одатда гуллари катта ва ёрқин тусли навлар касалликка мойилроқ, гуллари кичик ва унча ёрқин бўлмаганлари камроқ зарарланади. Касаллик намоён бўлишига иқлим кучли таъсир қилади. Масалан, Redhaven нави АҚШ ўрта-ғарбида барг бужмайишига толерант (бардошли), салқин ва нам иқлими Тинч океани қирғоғининг шимоли-ғарбида эса зарарланишига жуда мойил. Умуман, ҳатто касалликка етарли даражада юқори чидамликка эга бўлган навлар ҳам кўчатлар ўсишининг бир неча илк йилларида барг бужмайиши билан кучли ёки ўртача даражада зарарланади (Shane, undated).

Кузатувларда Қрим оролига интродукция қилинган 24 та нектарин навлари орасида юқори чидамлилири қайд қилинмаган, фақат 5 таси (Fayette, NJN-21, NJN-76, Silvery ва 12-V) биров чидамлироқ, 4 таси (жумладан, 40 лет Ўзбекистана) чидамсиз ва 15 таси (жумладан, Юлдуз нави) жуда чидамсиз эканлиги аниқланган (Шишова, Звонарёва, 2010). Краснодар ўлкасида эпифитотия йиллари барча синалган шафтоли навлари барг бужмайишига ўртача (Гринсборо, Августовский, Краснодарец, Память Симиренко) ёки юқори чидамсизлик (Ветеран, Золотой юбилей, Радужный 86, Ранний Кубани, Редхавен, Стойкий ва Фаворит Мореттини) намоён қилган, эпифитотик бўлмаган йили эса улардан 4 таси камроқ, 7 таси ўртача зарарланган (Ковтун, 2007). Қора денгиз бўйи минтақасида 4 йиллик кузатувларда 31 та шафтоли навлари

ридан 8 таси (Амсден, Антон Чехов, Ветеран, Мадлен Пуйе, Майфлёрвер, Осенний сюрприз, Пушистый ранний, Славный) барг бужмайиши билан камроқ зарарланган. Қолган 9 та нав чидамсиз, 14 таси жуда чидамсиз бўлган (Леонов, 2010а,б).

Шафтоли навлари географик келиб чиқиши бўйича таҳлил қилинганида АҚШ, Франция ва Абхазия навлари касалликка энг чидамли, Ўзбекистон, Украина, Арманистон ва Италия навлари энг чидамсиз эканлиги аниқланган (Леонов, 2010а,б). Ўзбекистонда Оқ шафтоли ва Эльбрус (Ниязов, 1977), Эльберт, Лола, Старт, Истикбол ва Гулноз навлари барг бужмайишига жуда чидамсиз, Амсден, Пушистый ранний, Валерий Чкалов ва Прекрасный навлари нисбатан чидамли эканлиги хабар қилинган (Бойжигитов, 2011).

Шафтолининг барг бужмайиши касаллигига Indian Muir, Q-18, Frost ва Indian Free навлари нисбатан чидамли; Redhaven нави ва унинг “қариндошлари” толерант, Redskin ва унга “қариндош” навлар касалликка ўта чидамсиздир. Нектариннинг Klebich, Gower ва Pocachontos навлари касалликка нисбатан чидамли, Armking Precoc, Ananas, Victoria ва Мевагул навлари эса толерантликка эга (Шоферистов и др., 2001; Шишова, Звонарёва, 2010; Broome, Ingels, 2014; *Taphrina deformans*, 2018b).

Кимёвий, биологик ва бошқа кураш усулари. Шафтоли барглари бужмайишига қарши асосан кимёвий усулни қўллашади. Зарарланган дарахтларни бу касалликдан даволаб бўлмайди, шу сабабдан кимёвий кураш касаллиқнинг олдини олишга ёки уни тўбдан камайитишга қаратилиши лозим. Ҳар хил мамлакатларда об-ҳаво ва навлар чидамлилигини ҳисобга олиб, касалликка қарши дарахтларга баҳорда ва/ёки кузда 1, 2, 3 ёки ундан ҳам кўп марта фунгицид пуркаш тавсия қилинган. Касаллиқни кузда барглари тўқилганидан кейин ёки баҳорда куртаклар бўртишидан олдин Бордо суюқлиги ёки таркибида мис бўлган бошқа фунгицид билан бир марта ишлов бериш орқали назорат қилиш мумкин. Бунинг учун т.э.м. хорус, хлороталонил, каптафол, тирам ва каптан бўлган фунгицидлардан бирини 2 марта (кеч кузда ва эрта баҳорда) пуркаш тавсия қилинган (Steiner, Biggs, 2010; Broome, Ingels, 2014; Gleason et al., 2016). Ўзбекистонда ҳам 2 марта – куртаклар бўрта бошлаганда 3%-ли ва гуллашдан сўнг 1%-ли Бордо суюқлигини қўллаш тавсия қилинган (Набиев, 1974).

Шафтоли барг бужмайиши ҳар йили ёки 2-3 йилда бир марта жуда кучли ривожланадиган мамлакатларда дарахтларга ўсув даврида уч марта фунгицид пуркаш тавсия қилинган. Бунда 1-ишлов куртаклар бўртишидан олдин, 2-ишлов гуллашдан олдин, куртаклар ёрилиши (“нимранг ғунча”) фазасида ва 3-ишлов гуллашдан кейин ўтказилади. Биринчи ишлов кўпинча Бордо суюқлиги ёки таркибида мис бўлган бошқа бирор фунгицид билан, кейинги ишловлар ҳар хил бошқа препаратлар билан берилади (Смолякова, 2000; Осташова, 2004; Леонов, Янушевская, 2013).

Ҳозиргача дунёда (жумладан, Ўзбекистонда ҳам) шафтоли барглари бужмайишига қарши энг кўп ишлатиладиган фунгицидлар қаторига таркибида мис бўлган препаратлар киради. Масалан, Россиянинг Қора денгиз бўйи минтақасида 1980-йилларда, шафтоли барглари бужмайишига қарши 95% гача самара берадиган ДНОК ва нитрафен препаратларини қўллаш ман этилганидан кейин, мевали дарахтларни касалликлардан ҳимоя қилиш тизимида Бордо суюқлиги асосий ўринни эгаллаган. Препарат билан эрта баҳорда, куртаклар бўртиши даврида, мис бўйича 30 кг/га меъёрида (3%-ли) 1-ишлов бериш анъанавий усулга айланган ва фунгициднинг самарали ҳимоя муддати 30 кунга етган (10 кг/га меъёрида пре-

парат дарахтлардан ёмғир билан 5-6 кунда ювилиб кетган ва самараси йўқолган). Ушбу тизимда 2-ишлов гуллашдан олдин Делан 70% н.к.к. (0,5-0,7 кг/га) ва 3-ишлов гуллашдан кейин Скор 25% эм.к. (0,2 л/га) препаратлари билан ўтказилган. Айни пайтда ўсув даврида шафтоли дарахтларига таркибда мис бўлган препаратларни кўп марта пуркаш барглари майда бўлиб қолиши, сарғайиши ва тўкилишига олиб келган ва мева ҳосили камайиб кетган (Смолякова, 1977). Ҳатто 10 кг/га меъёрда ҳам Бордо суюқлиги шафтоли дарахтларининг 15-30% барглари куйдирган (Осташова, 2004). Препаратни (3%) гуллашдан кейин қўллаганда барглarning 50-55% куйган. Бошқа тажрибаларда 1%-ли Бордо суюқлигининг фитотоксиклиги ундан ҳам юқори бўлиб, барглarning 60-69% ни куйдирган (Ковтун, 2007). Делан, Строби, Скор, Иммуноцитифит, Биостат ҳамда Вектра, Браво, Полирам, Импакт, Топаз ва Рубиган препаратлари шафтолига фитотоксиклик намоён қилмаган (Ковтун, 2007; Леонов, 2010а,б).

Таркибда мис бўлган препаратларнинг ушбу камчиликларини ҳисобга олган ҳолда, ҳозирги даврда тадқиқотчиларнинг диққати шафтолининг барглари бужмайиши ва бошқа касалликларига қарши курашда Бордо суюқлиги ва бошқа мис препаратларини қўллашни кўзда тутмайдиган ҳамда атроф-муҳитга ва агроценозга кимёвий фунгицидларнинг босимини камайтиришга қаратилган ўсимликларни ҳимоя қилиш тизимларини ишлаб чиқиш ва амалиётга киритишга қаратилмоқда. Жумладан, Краснодар ўлкасининг жанубий-тоғолди зонасида ушбу касалликка қарши қўлланилган Делан (3 марта), Делан + Строби + Строби, Делан + Скор + Скор схемалари эпифитотия йиллари, касаллик ривожланиши ўртача бўлган йиллари эса, улардан ташқари Делан + Вектра + Вектра, Делан + Импакт + Импакт, Делан + Топаз + Топаз ва Скор (3 марта) схемалари энг юқори самарани намоён қилган (Ковтун, 2007).

Қора денгиз бўйи шароитида касалликка қарши ВГИС (сувли лой-оҳак аралашмаси) ва Иммуноцитифит (арахидон кислотаси, 20 г/кг) препаратларини кимёвий фунгицидлар (Делан, 0,7 кг/га, Скор, 0,2 л/га) билан галлаб қўллаш ҳам юқори самара берган (Леонов, 2010а,б).

Нисбатан яқинда Россияда ВИЗР да барг бужмайишига қарши қўллаш учун ишлаб чиқилган нокимёвий Биостат, эм.к. препарати (т.э.м. кашнич мойи, 25% + пропилен этил спирти, 65% + СФМ, 10%) 1,0 л/га меъёрида қўллаганда 90-100% биологик самара берган; у гипосда олча пашшасини ҳам 98% га назорат қилиши, фаоллиги кимёвий инсектицидларникидан қолишмаслиги аниқланган (Щербаков, Исмаилов, 2007).

Ўзбекистонда шафтоли барглари бужмайишига қарши 7 та фунгицид рўйхатга олинган; улардан учтаси таркибда мис, иккитаси – зирам, биттаси дитианон ва биттаси дифеноконазол + тиаметоксам мавжуд бўлган препаратлардир.

Самарқанд вилояти шароитида 2006-2007 йилларда шафтоли барг бужмайишига қарши синалган Строби 50% с.д.г. (0,2 кг/га), Топаз 10% эм.к. (0,4 л/га) ва Вектра 10% сус. к. (0,3 л/га) фунгицидларининг самараси энг юқори – мос равишда,

92,5-89,4%, 90-86,5%, 92-90,4% бўлган. Уларнинг пастроқ меъёрларининг ҳамда Бампер 25% эм.к., Ридомил Голд МЦ с.д.г. ва Фоликур БТ 22,5 эм.к. препаратларининг самараси камроқ (59-82%) бўлиб, мис купороси 98% э.к. (1%-ли эритма) энг кам (60,5-56,4%) самара кўрсатган (Бойжигитов, 2011).

Шафтоли барглари бужмайиши касаллигига қарши фунгицид қўллаш ҳақида қарор қабул қилиш учун касаллик кўзгатувчи патогеннинг маҳаллий об-ҳаво шароитларига талабларини билиш лозим. Адабиёт манбаларида куртаклар бўртиши ва ёрилиши даврида Россиянинг Қора денгиз бўйи минтақаларида замбуруғ шафтоли дарахтларини зарарлаши учун критик ҳарорат 6-14°C эканлиги кўрсатилган бўлса (Леонов, 2010), Австралияда бунинг учун 20-26°C қулай эканлиги хабар қилинган (Netherington, 2005).

Юқорида келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, шафтоли барглари бужмайиши катта муаммо бўлган минтақаларда унга қарши 1-ишлов дарахт куртаклари бўртишидан олдин, кечи билан улар эндиgina бўрта бошлаган даврда ўтказилиши шарт. Ўз вақтида қўлланилган Делан ва Скор препаратлари 88% ва 93% самара берса, кеч ишлатилганида самараси, мувофиқ равишда, 10-29% ва 16-36% га пасайиши, мева ҳосили эса сезиларли камайиши тажрибаларда кўрсатилган (Леонов, 2010а,б).

АҚШ Тинч океани қирғоғининг шимоли-ғарбининг илиқ (10-21°C) ва сернам иқлими шафтоли барг бужмайиши учун энг қулай. Бу минтақада Ним мойи ва боғдорчилик мойлари каби органик спрейлар жуда фойдали эканлиги исботланган, аммо мис препаратларининг самараси улардан юқори бўлган. Бу минтақада бошқа – ғайриоддий ҳимоя усули – бўйи 1,2-1,8 м келадиган генетик карлик “миниатюра шафтоли” ва “миниатюра нектарин” дарахтларини усти ёпиқ, ёмғир тегмайдиган жойларда ўстириш тавсия қилинган. Бу тадбир ишлаб чиқариш ҳажмини чегаралайди, аммо алоҳида оила ўз томорқасида бир мавсум учун етарли миқдорда зарарланмаган мева етиштиришини бемалол таъминлайди (OGW, 2020).

Хулосалар.

1. Шафтоли дарахтларида 207 та ҳақиқий замбуруғ ва 15 та оомицет турлари касаллик кўзгатади. Улардан 50 та замбуруғ тури Ўзбекистонда ҳам учраши хабар қилинган, аммо уларнинг аксарияти шафтолидан бошқа ўсимлик турларида қайд этилган ва кўпчилиги шубҳали (*incertae sedis*) таксонлардир.

2. Барг бужмайиши дунёнинг шафтоли экиладиган деярли барча мамлакатларда учрайди, Ўзбекистонда 6 та вилоятда қайд этилган ва Фарғона вилоятида энг кўп тарқалган.

3. Шафтолида барг бужмайишини кўзгатувчи замбуруғ табиатда у сапротроф дрожжа ва мицелиал биотроф патоген (облигат паразит) шаклида яшайди.

4. Шафтоли барглари бужмайишига қарши асосий кураш усули – кузда барглarning кўпчилиги тўқилган пайтда фунгицид пуркаш ҳисобланади; касаллик ҳар йили кучли ривожланадиган минтақаларда эрта баҳорда, куртаклар бўртишидан олдин, яна бир марта ишлов ўтказиш талаб этилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Бойжигитов Ф.М. 2011. Основные болезни косточковых плодовых культур и разработка мер борьбы с ними. Дис. канд. с.-х. наук, Ташкент, 2011, 111 стр.
2. Ковтун И.П. 2007. Усовершенствование мониторинга и контроля курчавости листьев и класпероспориоза персика в южно-предгорной зоне Краснодарского края. Дис. на соиск... канд. с.-х. н. Краснодар, 2007, 137 стр., ил. (фото) 12 стр.
3. Курчавость, 2018а. <https://boleznisada.ru/kurchavost-listev-persika>. Accessed 19.09.2018.
4. Курчавость, 2018б. <http://agroflora.ru/kurchavost-listev-persika/>. Accessed 19.09.2018.
5. Леонов Н.Н. 2010а. Контроль курчавости листьев во влажных субтропиках России. Защита и карантин растений, 2010, №1, стр. 31-33.

6. Леонов Н.Н. 2010б. Курчавость листьев персика и совершенствование её контроля в зоне влажных субтропиков России. Дис. на соиск... канд. с.-х. н. Краснодар, 2010, 119 стр.
7. Леонов Н.Н., Янушевская Э.Б. 2013. Значение фитоактиваторов агропона и альбита в экологизации систем защиты персика. Науч. труды ГНУ Всероссийский НИИ цветоводства и субтропических культур Россельхозакадемии, 2013, том 2, стр. 94-98.
8. Набиев Ў. 1974. Мевазор ва тоқзорларнинг зараркунанда ҳамда касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент: «Ўзбекистон», 1974, 48 б.
9. Нагорная Л.В. 2015. Основные болезни абрикоса и биологический контроль их распространения в условиях южной степи Украины. Научные труды СКЗНИСКИВ, 2015, том 8, стр. 183-188.
10. Ниязов Г.И. 1977. Состав и процент поражаемости болезней косточковых плодовых культур в Кашкадарьинской области. Стр. 37-42 в книге: «Вопросы интегрированной системы борьбы с вредителями и болезнями растений». Научные труды ТашСХИ, 1977, вып. 2, 109 стр.
11. Осташова Н.А. 2004. Биологическое обоснование защиты персика от курчавости на Черноморском побережье Кавказа. Сборник научных трудов «110 лет в субтропиках России», Сочи, 2004, вып. 39, стр. 580-582 (Леонов, 2010б дан олинган).
12. Пидопличко Н.М. 1977. Грибы – паразиты культурных растений. Определитель. Том 1. Грибы совершенные. Киев, «Наукова Думка», 1977, 296 с.
13. Род Тафрина, 2018. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Тафрина>. Accessed 19.09.2018.
14. Смолякова В.М., 1977. Реакция персика на четырёхлетнее применение фунгицидов. Химия в сельском хозяйстве, 1977, № 6, стр. 56-59 (Леонов, 2010б дан олинган).
15. Смолякова В.М., 2000. Болезни плодовых пород юга России. Краснодар, 2000, стр. 156-163 (Леонов, 2010б дан олинган).
16. Ҳасанов Б.А., Каримов О.К., Турдиева Д.Т. 2022. Ўзбекистонда ДМД поя ва шох-новдаларида фитопатоген аскомицетлар учраши ҳақидаги хабарларнинг танқидий таҳлили. Агро кимё химия ва ўсимликлар карантини, 2022, № 6, 14-23 б.
17. Шишова Т.В., Звонарёва Л.Н. 2010. Полевая оценка поражённости грибными болезнями интродуцированных сортов нектарина коллекции Никитского ботанического сада. Бюлл. Никитского бот. сада, 2010, № 101, стр. 47-51.
18. Шоферистов У.П., Звонарёва Л.Н., Митрофанов В.И., Блинова О.Л., Шоферистова Е.Г. 2001. Устойчивость интродуцированных сортов нектарина к курчавости листьев. М-лы конф. «Сучасний стан і перспективи захисту плодово-ягідних культур і винограду від шкідливих організмів». Харків, 21-25 трвня, 2001 р. Харків, 2001, стр. 157-160 (Шишова, Звонарёва, 2010 дан олинган).
19. Щербakov Н.А., Исмаилов В.Я. 2007. Возможности применения биопестицида в защите растений. АгроXXI, 2007, № 7-9, 1 лист (pdf). www.kaicc.ru/content/proizvodstvo-biopesticida-biostat. Accessed 18.10.2018.
20. Agrios G. N. 2008. Plant pathology. 5th ed. Elsevier, xviii + 922 pp.
21. Alexopoulos C. J., Mims C. W., Blackwell M. 2007. Introductory Mycology. 4th ed. Wiley – India, 2007, x + 869 pp.
22. Broome J.C., Ingels C.A. 2014. Pest Notes: Peach leaf curl. UC ANR Publication 7426. 2014, 3 sheets. <http://www.ipm.ucdavis.edu/PDF/PESTNOTES/pnleafcurl.pdf> Accessed 28.12.2015
23. Diekmann M., Putter C.A.J. 1994. Stone Fruits, FAO & IPGRI, 1994. https://www.biodiversityinternational.org/fileadmin/_migrated/uploads/tx_news/Stone_fruits_255.pdf. Accessed 26.10.2018
24. Gleason M.L., Nelson H.M., Kennelly M.M. 2016. Taphrina diseases of shade and fruit trees. Pages 35-37 (Chapter 7) in: Aaron B.D., Alison H. (tech. coords.) (34 authors in total). 2016. Diseases of trees in the Great Plains. Gen. Tech. Rep. RMRS-GTR-335. U.S. Dept. of Agric., Forest Service, 2016, 229 pp.
25. Hetherington S. (coordinating author). 2005. Integrated pest and disease management for Australian summerfruit. NSW DPI. Summerfruit Australia Inc., 2005, x + 171 pp.
26. OGW, 2020. OGW Growing guides. Peach leaf curl and how to conquer it. <https://onegreenworld.com/peach-leaf-curl/>. Accessed 21.05.2021.
27. Oh N.K., Hassan O., Chang T. 2020. First report on plum pocket caused by Taphrina deformans in South Korea. Mycobiology, 2020, vol. 48, No. 6, pp. 522-527. <https://doi.org/10.1080/12298093.2020.1816872>. Accessed 10.06.2023.
28. Pscheidt J.W. 2008. Leaf curl. Page 22 in: Ogawa J.M., Eldon I.Z., Bird G.W. et al. (eds.) Compendium of stone fruit diseases. APS Press, 2nd printing, 2008, 98 pp.
29. Rossi V., Languasco L. 2007. Influence of environmental conditions on spore production in Taphrina deformans, the causal agent of peach curl. Phytopathology, 2007, vol. 97, No. 3, pp. 359-365. DOI: 10.1094/PHYTO-97-3-0359.
30. Shane B. Undated. Peach Leaf Curl is One Scary Disease. American Fruit Grower News. <https://www.growingproduce.com/fruits/stone-fruit/peach-leaf-curl-one-scary-disease/>. Accessed 21.05.2021.
31. Steiner P.W., Biggs A.R., 2010. Peach leaf curl. West Virginia University. http://www.caf.wvu.edu/kearneysville/disease_descriptions/omplfcr1.htm.
32. Taphrina deformans, 2018a. https://en.wikipedia.org/wiki/Taphrina_deformans. Accessed 21.09.2018
33. Taphrina deformans, 2018b. <http://eol.org/pages/188590/details>. Accessed 21.09.2018.
34. Taphrina mume, 2023. Википедия. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1710772>. Accessed 13.06.2023.

КАСАЛЛИК ҚЎЗҒАТУВЧИ ЗАМБУРУҒЛАРНИ НОК ДАРАХТИ БАРГ ВА НОВДАЛАРИДАГИ МАКРО ВА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАРГА ТАЪСИРИ

Пулатов Азизжон Аллаёр ўғли, таянч докторант,
Умаров Зафар Абдишукурович, қ.х.ф.ф.д. (PhD), катта илмий ходим,
Каримов Хусниддин Нагимович, қ.х.ф.д. катта илмий ходим,
Академик М.Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Ушбу мақолада нокнинг калмараз ва монилиоз касалликлари билан зарарланган барг ва новдаларида макро ва микроэлементларнинг миқдорий таҳлиллари келтирилган. Нокнинг касалланган барг ва новдаларида макроэлементлар миқдори соғлом барг ва новдаларига нисбатан 870,7 мг/кг гача калий, 2 262,28 мг/кг гача кальций ва 1 244,0 мг/кг гача натрий касалликлар зарари натижасида камайганлиги ҳамда микроэлементларнинг миқдори ўсимликда рухсат этилган меъёридан 31,3 баробаргача Fe, 4,8 баробаргача Zn, 64 баробаргача Mn, 5,3 баробаргача Cu ва 1,42 баробаргача Co микроэлементларнинг йўқотилганлиги аниқланди.

Калим сўзлар: касаллик, замбуруғ, патоген, макроэлемент, микроэлемент, спектрофотометр.

Abstract. This article provides information on the quantitative analysis of macro- and microelements in leaves and branches affected by scab and pear moniliose diseases. The amount of macronutrients in diseased pear leaves and branches compared with healthy leaves and branches decreased to 870.7 mg/kg of potassium, 2262.28 mg/kg of calcium and 1244.0 mg/kg of sodium as a result of disease damage, and the amount of trace elements allowed in the plant. It was established that trace elements were lost to Fe by 31.3 times, Zn by 4.8 times, Mn by 64 times, Cu by 5.3 times, Co by 1.42 times.

Key words: disease, fungus, pathogen, macroelement, microelement, spectrophotometer.

Кириш. Бугунги кунда республикаимизда кенг майдонларда интенсив нок боғлари барпо этилиб парвариш қилиб келинмоқда. Ушбу майдонларда етиштирилган ҳосилни сақлаш, турли хил касалликлардан ҳимоя қилиш ҳамда эл дастурхонига сифатли қилиб етказиб беришда ҳимоя чораларини тўғри ва ўз вақтида ташкил қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Сўнгги вақтларда нок боғларида калмараз, ун-шудринг ва монилиоз каби касалликлари кенг тарқалиши ҳамда уларнинг зарари оқибатида нок ўсимлигида учрайдиган макро ва микроэлементларнинг миқдорий ўзгаришига олиб келмоқда. Бу эса республикаимизда барпо этилган интенсив нок боғларида учрайдиган касалликларнинг салбий таъсири натижасида маҳсулот сифатини пасайиши кузатишмоқда.

Нок мевалари таркибида инсон организми учун муҳим бўлган марганец, темир, йод, мис, кальций, калий, магний, натрий, фосфор, рух, фтор каби макро ва микроэлементларни ўзида сақлайди [4, 5, 6].

Нок дарахти табиий муҳитдан маълум миқдорда углерод, водород, кислород, азот, фосфор, олтингугурт, калий, кальций, магний, темир, марганец, мис, рух, молибден, бор, хлор, натрий, кремний ва кобальт каби элементларни ўзлаштириш қобилиятига эга. Шунингдек, даврий системадаги 20 га яқин элементлар нок дарахти учун муҳим аҳамиятга эга эканлиги, уларни бошқа элементлар билан алмаштириб бўлмаслиги тадқиқотчилар томонидан аниқланган. [3].

Нок дарахтида макро ва микроэлементлар физиологик ва биокимёвий жараёнлар ўтишида, муҳим бирикмалар – оксиллар, ферментлар, нуклеин кислоталар ва бошқа бир қатор бирикмалар таркибига кириши билан ажралиб туради. Ушбу бирикмаларнинг миқдорини ўзгариши натижасида нокда турли патологик белгиларни ҳосил бўлиши, ҳаётий муҳим жараёнларни бузилишига олиб келиши мумкин. Шу мақсадда


биз тадқиқотларимизда нокнинг калмараз ва монилиоз касалликлари билан зарарланган барг ва новдаларида кимёвий таҳлиллар олиб борилди.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тадқиқотларимиз академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ “Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва карантин” ҳамда “Ўсимликлар физиологияси ва агрокимё” лабораторияларида амалга оширилди.


Бунда нокнинг касалликлар билан зарарланган аъзоларида (барг ва новдаси) намуналар лабораторияга олиб келинди ва лаборатория шароитида термостатда (70 °C) қуритилиб, 500 – 550 °C печда куйдирилиб, кул моддаси ўлчаб олинди [2]. Ажратиб олинган кул моддаси 1 нормалли азот кислотасида (HNO₃) бир кун давомида эритилди. Фильтр ёрдамида суюқ эритма ажратиб олиниб, таҳлиллардан олинган сувли сўрим 1 нормалли азот кислотасида 50 мл га етказилган. Тайёрланган сувли сўрим Avio 200 ICP-OES атом-эмиссионни спектрофотометрда (PerkinElmer®) таҳлиллар олиб борилди. Шунингдек, олинган маълумотларнинг статистик таҳлили «Microsoft Excel» компьютер дастури ҳамда Б.А.Доспеховнинг [1] услуги бўйича амалга оширилди.

Тадқиқот натижалари. Лаборатория шароитида нокнинг калмараз ва монилиоз касалликлари билан зарарланган ҳамда соғлом аъзоларида макроэлементлардан К, Са ва Na, микроэлементлардан Fe, Zn, Mn, Cu ва Co каби элементларнинг миқдорий таҳлиллари ўтказилди (1-2-жадваллар).

Тадқиқот натижаларига кўра, нокнинг соғлом барг ва новдаларида К миқдори 2456,9 мг/кг дан 5338,63 мг/кг гача, Са миқдори 3438,03 мг/кг дан 5194,15 мг/кг гача ва Na миқдори эса 89,4 мг/кг дан 1251,75 мг/кг гача эканлиги аниқланди. Худди шундай касалликлар билан зарарланган барг ва новдаларида К, Са ва Na миқдори мос равишда 2796,73 – 4468,23 мг/кг, 1175,75 – 1243,93 мг/кг ва 7,75 – 172,17 мг/кг гача эканлиги таҳлилларда маълум бўлди (1-расм).



1-расм. Нокнинг соғлом ва касалланган барглarda макроэлементларнинг (K, Ca ва Na) миқдори.



2-расм. Нокнинг соғлом ва касалланган барглarda микроэлементларнинг (Fe, Zn ва Mn) миқдори.

Тадқиқотларимизда нокнинг соғлом барг ва новдаларида Fe, Zn, Mn, Cu ва Co микроэлементлар миқдори таҳлил қилинганда соғлом барглarda 51,75 мг/кг (Fe), 14,98 мг/кг (Zn), 29,63 мг/кг (Mn), 92,05 (Cu) ва 0,67 мг/кг (Co) ташкил этган бўлса, новдаларида 40,05 мг/кг (Fe), 42,0 мг/кг (Zn), 8,4 мг/кг (Mn), 38,97 (Cu) ва 0,4 мг/кг (Co) миқдорида эканлиги аниқланди. Бунда нокнинг соғлом баргларида Fe, Zn, Mn ва Co микроэлементлари ўсимликда руҳсат этилган меъёридан уч - тўрт баробар камлиги ҳамда Cu элементининг белгиланган меъёридан олти баробар кўплиги аниқланди (2-расм).

Шунингдек, нокнинг касалланган барг ва новдаларида Fe, Zn, Mn, Cu ва Co микроэлементлар миқдори таҳлил қилинганда, уларнинг миқдори мос равишда 5,1 – 37,63 мг/кг гача (Fe), 8,33– 9,0 мг/кг гача (Zn), 2,03 – 12,3 мг/кг гача (Mn), 2,83 – 3,13 мг/кг гача (Cu) ва 0,07 – 0,1 мг/кг гача (Co) ташкил этганлиги маълум бўлди. Натижада нокнинг касал-

ланган барг ва новдаларида микроэлементларнинг миқдори ўсимликда руҳсат этилган меъёридан 31,3 баробаргача Fe, 4,8 баробаргача Zn, 64,0 баробаргача Mn ва 5,3 баробаргача Cu микроэлементларнинг йўқотилиши аниқланди.

Хулоса. Нокнинг калмараз ва монилюоз касалликлари билан зарарланган аъзоларида (барг ва новдалари) макроэлементлардан K, Ca ва Na, микроэлементлардан Fe, Zn, Mn, Cu ва Co кабиларнинг миқдори ўзгаришларга учраганлиги аниқланди. Нокнинг касалланган барг ва новдаларида макроэлементлар миқдори соғлом барг ва новдаларига нисбатан 870,7 мг/кг гача калий, 2 262,28 мг/кг гача кальций ва 1 244,0 мг/кг гача натрий камайганлиги ҳамда микроэлементларнинг миқдори ўсимликда руҳсат этилган меъёридан 31,3 баробаргача Fe, 4,8 баробаргача Zn, 64 баробаргача Mn, 5,3 баробаргача Cu ва 1,42 баробаргача Co микроэлементларнинг йўқотилганлиги аниқланди.

1-жадвал.

Соғлом ва касалланган (монилюоз ва калмараз касалликлари билан касалланган) барг ва новдалarda макроэлементларнинг (K, Ca ва Na) таҳлилий миқдори.

Лаборатория тадқиқотлари, академик М.Мирзаев номидаги БУВИТИ
“Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва карантин” лабораторияси, 2023 йил.

Т/р	Намуналар	K (766.490) mg/kg			Ca (317.933) mg/kg			Na (589.592) mg/kg		
		ХҚХ	Ў	ЎХ ±	ХҚХ	Ў	ЎХ ±	ХҚХ	Ў	ЎХ ±
1.	Стандарт	1,211			8,918			0,745		
2.	Нокнинг соғлом барглари	5136,1	5338,63	215,383	5871,9	3438,03	2115,255	116,2	89,40	24,33
		5314,9			2043,5			83,3		
		5564,9			2398,6			68,7		
3.	Нокнинг касалланган барглари	4435,9	4468,23	171,797	1111,9	1175,75	180,704	178,9	172,17	8,064
		4314,9			1035,6			163,2		
		4653,9			1379,7			174,3		
4.	Нокнинг соғлом новдалари	2529,9	2456,90	122,992	5097,3	5194,15	113,910	1288,2	1251,75	61,496
		2314,9			5165,5			1180,7		
		2525,9			5319,6			1286,2		
5.	Нокнинг касалланган новдалари	2861,4	2796,73	74,743	1250,8	1243,93	43,409	5,05	7,75	2,381
		2714,9			1197,5			9,55		
		2813,9			1283,5			8,65		

Изоҳ: ХҚХ – ҳақиқий қиймат ҳисобида; Ў – ўртача; ЎХ – ўртача ҳатолик; РЭМ – руҳсат этилган меъёр.

Соғлом ва касалланган (монилиоз ва калмараз касалликлари билан касалланган) баргларида
микроэлементларнинг (Fe, Zn, Mn, Cu ва Co) таҳлилий миқдори.
Лаборатория тадқиқотлари, академик БУВИТИ Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва карантин лабораторияси, 2023 йил.

Т/р	Наъмуна-лар	Fe (238.234) mg/kg			РЭМ mg/kg, %	Zn (206.200) mg/kg			РЭМ mg/kg, %	Mn (257.610) mg/kg			РЭМ mg/kg, %
		ХҚХ	Ў	ЎХ ±		ХҚХ	Ў	ЎХ ±		ХҚХ	Ў	ЎХ ±	
1.	Стандарт	0,087				0,048				0,055			
2.	Нокнинг соғлом барглари	79,1	51,75	23,704	160,0	22,2	14,98	6,252	40,0	27,7	29,63	2,060	130,0
		39,0				11,2				31,8			
		37,1				11,5				29,4			
3.	Нокнинг касалланган барглари	38,0	37,63	1,097		6,4	8,33	2,458		12,4	12,3	0,361	
		38,5				11,1				12,6			
		36,4				7,5				11,9			
4.	Нокнинг соғлом новдалари	40,6	40,05	0,577		42,5	42,0	0,577		8,1	8,4	0,301	
		40,1				42,0				8,7			
		39,4				41,4				8,4			
5.	Нокнинг касалланган новдалари	0,7	5,1	3,831		4,6	9,0	3,831		2,1	2,03	0,404	
		7,7				11,6				1,6			
		6,9				10,8				2,4			

Т/р	Наъмуна-лар	Cu (327.393) mg/kg			РЭМ mg/kg, %	Co (228.616) mg/kg			РЭМ mg/kg, %
		ХҚХ	Ў	ЎХ ±		ХҚХ	Ў	ЎХ ±	
1.	Стандарт	0,040				0,040			
2.	Нокнинг соғлом барглари	93,15	92,05	1,652	15,0	0,6	0,67	0,161	0,1
		90,15				0,85			
		92,85				0,55			
3.	Нокнинг касалланган барглари	3,0	3,13	0,153		0,1	0,1	0,05	
		3,3				0,05			
		3,1				0,15			
4.	Нокнинг соғлом новдалари	38,5	38,97	1,457		0,35	0,4	0,05	
		40,6				0,45			
		37,8				0,4			
5.	Нокнинг касалланган новдалари	2,2	2,83	0,709		0,05	0,07	0,029	
		2,7				0,1			
		3,6				0,05			

Изоҳ: ХҚХ – Ҳақиқий қиймат ҳисобиди; Ў – Ўртача; ЎХ – Ўртача ҳатолик; РЭМ – Рухсат этилган меъёр.

АДАБИЁТЛАР:

- Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва, 1985. – 351с.
- Сагдиев М.Т, Алимова Р.А. Ўсимликлар физиологияси – Тошкент, 2007. – Б.240.
- Хўжаев Ж.Х. Ўсимликлар физиологияси – Тошкент, 2004. – Б.221
- Deckers T., Schoofs H. Status of the pear production in Europe. Acta Horticulturae, (2005) 671, Vol 1, pp. 47 – 55.
- Mizuno A., Tsukamoto T., Shimizu Y., Ooya H., Matsuura T., Saito N., Sato S., Kikuchi S., Uzuki T., Azegami K. (2010) Occurrence of bacterial black shoot disease of European pear in Yamagata Prefecture. Journal of General Plant Pathology, Vol 76, Issue 1, pp. 43 – 51.
- <https://ru.wikipedia.org/wiki/Груша>

ШАФТОЛИНИНГ УН-ШУДРИНГ КАСАЛЛИГИ ҲАМДА УНГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ

Ҳасанов Ботир Ачилович, б.ф.д., профессор, ТошДАУ,
Каримов Отабек Камалдинович, таянч докторант, АндҚХАИ,
Турдиева Дилфуза Тиркашбоевна, доцент, АндҚХАИ.

Аннотация. Шафтоли ва нектарин дарахтларида ун-шудринг касаллигини асосан *Podosphaera pannosa* тури қўзғатади. Бу замбуруғ барча бошқа ДМД ларнинг ҳам ёш барглари зарарлайди. Дунёнинг барча мамлакатларидаги каби шафтоли ун-шудринг Ўзбекистоннинг айрим вилоятларида ҳам кенг тарқалган, аммо Андижон вилоятида жуда кам учрайди. Бошқа ҳаммага маълум тур – олманинг ун-шудринг замбуруғи *Podosphaera leucotricha* айрим мамлакатларда шафтоли меваларида “зангсимон доғланиш” касаллигини қўзғатади. Аммо кейинроқ бу касалликни *P. pannosa* ҳам қўзғатиши исботланган. Баъзи мамлакатларда шафтолида ун-шудрингни *Podosphaera* ва *Oidium* туркумларининг номаълум турлари ҳам қўзғатиши хабар қилинган.

Калит сўзлар: шафтоли, ун-шудринг, *Podosphaera pannosa*, *Podosphaera leucotricha*.

Аннотация. Основным возбудителем мучнистой росы деревьев персика и нектарина является *Podosphaera pannosa*. Этот гриб поражает молодые листья у всех косточковых плодовых деревьев. Как и во всём мире, мучнистая роса персика широко распространена в ряде областей Узбекистана, но в Андижанской обл. она встречается очень редко. Другой мучнисторосяной гриб – *Podosphaera leucotricha*, известный всем возбудитель мучнистой росы яблони, в некоторых странах поражает также плоды персика, на которых вызывает болезнь под названием “ржавая пятнистость”. Однако позже было доказано, что эту болезнь может вызывать также *P. pannosa*. Есть также сообщения о том, что в отдельных странах мучнистую росу персика могут вызывать неидентифицированные виды родов *Podosphaera* и *Oidium*.

Ключевые слова: персик, мучнистая роса, *Podosphaera pannosa*, *Podosphaera leucotricha*.

Abstract. *Podosphaera pannosa* is the main causative fungus of powdery mildew disease of peach and nectarine trees. It infects young leaves of all stone fruit trees as well. As in many other countries of the world, the peach powdery mildew is widely distributed in several regions of Uzbekistan; however, its occurrence is very rare and erratic in the Andijan region. Another fungus – *Podosphaera leucotricha*, a well-known causative agent of apple powdery mildew, also affects peach fruits in some countries, on which it causes “peach rusty spot”. However, it was later proved that *P. pannosa* can also cause this disease. There are also reports that unidentified species of the genera *Podosphaera* and *Oidium* can cause peach powdery mildew in some countries.

Key words: peach, powdery mildew, *Podosphaera pannosa*, *Podosphaera leucotricha*.

Кириш. Шафтоли мевалари ўзининг лаззатли таъми ва муаттар ҳиди билан ажралиб туради ва уларни аҳоли севиб истеъмол қилади. Шафтоли дарахтларини ўстириш ва улардан мўл, сифатли ҳосил етиштиришда бир қатор зарарли ҳашаротлар ва касалликлар доимий муаммо ҳисобланади. Улардан барг бужмайиши, монилиоз, клясероспориоз ва ун-шудринг мамлакатимизда шафтолининг кенг тарқалган ва хавфли касалликлари эканлиги эътироф этилган. Ушбу мақолада дунёнинг кўп мамлакатларида шафтоли мева ҳосилига жиддий иқтисодий зарар етказадиган ун-шудринг касаллиги ҳақида маълумотларни келтирамыз.

Касаллик қўзғатувчи замбуруғнинг белгилари. Ўсимликларда ун-шудринг касаллигини Ҳақиқий замбуруғлар (*Mycota*) олами, *Ascomycota* филуми, *Leotiomycetes* синфи, *Erysiphales* тартиби, *Erysiphaceae* оиласининг 6 та класи, 28 та туркумига кирувчи тахминан 100 та тури қўзғатади.


Данак мевали дарахтларни (ДМД ларни) ун-шудринг замбуруғларининг асосан 3 тури зарарлайди. Улардан шафтоли дарахтларида ун-шудринг касаллигининг асосий ва ягона қўзғатувчиси 5-кладга мансуб бўлган “атирул ун-шудринг замбуруғи” – *Podosphaera pannosa* (Wallr.: Fr.) de

Bary тури ҳисобланади; синонимлари *Sphaerotheca pannosa* (Wall.: Fr.) Lév., *Oidium leuconicum* Desm., *O. leuconium* Desm., *O. forsythiae* Bunkina ва б., жами 18+ (Grove, 2008a; PP, 2021, 2023).

Илгари ушбу турнинг 2 та вариетети (тур ичи таксони, “кенжа тури”) ажратилган эди. Улардан *Sphaerotheca pannosa* var. *persicae* Woronich. шафтолини, *S. pannosa* var. *rosae* Woronich. эса атирулgni зарарлайди, деб ҳисоблашган (Запромётов, 1925, 1926; Головин, 1949, 1960; Пидопличко, 1977; Гапоненко и др., 1983; Alexopoulos et al., 2007). Ҳозир бу вариететлар *Podosphaera pannosa* номининг синонимларига айланган (PP, 2021, 2023).

Podosphaera pannosa турининг конидиялари занжирчаларда ҳосил бўлади (расмга қаранг). Улар эллипсоид-овоид ёки кам ҳолларда бочка шакли, рангсиз, ўлчамли (18-)20-30 (-40)х(16-)18-20(-22) мкм (Головин, 1960; Пидопличко, 1977; Grove, 2008a; Meeboon et al., 2016). Хасмотецийлари жуда кам учрайди, мавжуд бўлганида новдаларда ёки меваларда ҳосил бўлади. Улар шар, баъзан эллипсоид шакли, кўнғир, тўқ-кўнғир ёки деярли қора тусли, қалин мицелий ғубори ичида жойлашади, диаметри 70-125 мкм, кўпинча 85-86

мкм. Ичида битта аск (халтача) бўлади. Ўсимталари хасмотецийнинг пастки ярмида жойлашади, улар кам сонли, жуда калта, букилган, рангсиз ёки сарғиш-қўнғир тусли, эни 3-8 мкм. Асклари эллипсоид ёки кенг овоид шаклли, ўлчами 70-125х50-80 мкм, 4-8 спорали. Аскоспоралари эллипсоид-цилиндр ёки овоид шаклли, рангсиз, ўлчами 16-30х9-18 мкм (Головин, 1960; Пидопличко, 1977; Grove, 2008a). Хасмотецийлари шафтоли ва нектарин баргларида амалда учрамайди, аммо баъзан уларнинг новдалари ва меваларида унча-мунча ҳосил бўлиши мумкин (Головин, 1960).



***Podosphaera pannosa* нинг атиргулда ҳосил қилган конидиофоралари (а) ва баъзилари ниш найча чиқариб ўсаётган конидиялари (b, c); масштаб чизиги – 20 мкм (Meeboon et al., 2016)**

Адабиётларда шафтоли дарахтларини ун-шудринг замбуруғларининг яна бир нечта турлари зарарлаши хабар қилинган. Булар *Podosphaera clandestina* (Wallr.: Fr.) Lév., синонимлари *P. oxycanthae* (DC.) de Bary, *Oidium crataegi* Grognot, *O. cydoniae* Pass., *Podosphaera leucothricha* (Ell. & Ev.) E.S. Salmon), синонимлари *Sphaerotheca leucothricha* Ell. Et Ev., *Oidium farinosum* Cooke, *O. mespili* Cooke, *Podosphaera* sp. ва *Oidium* sp. (ёки *Oidium* spp.) турларидир.

Бу турлардан *Podosphaera clandestina* гилосни, камроқ олча ва дўлана турларини зарарлаши, ўрик ва олхўрида ҳам учраши хабар қилинган (Grove, 2008a). Фақат жуда кам сонли манбаларда бу замбуруғ шафтолида ун-шудринг қўзғатувчи турлар қаторида кўрсатилган (List, 2018a; Wikipedia, 28.11.2020, accessed 01.07.2023). Шафтолида кўрсатилган ушбу тур морфологик ва молекуляр белгилари асосида идентификация қилиниши ва унинг шафтолига патогенлиги сунъий зарарлаш тажрибасида исботланганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд эмас. Шу сабабдан *P. clandestina* шафтолини зарарлаши ҳали исботланмаган деб ҳисоблаш керак.

Шафтоли дарахтларида қайд этилган *Oidium* туркумининг тури аниқланмаган вакилига (ёки вакилларига) келсак (Hetherington, 2005; List, 2018), улар *Podosphaera pannosa* турининг конидиал босқичи бўлиши мумкин, аммо ДМД ларда учрайдиган бошқа ун-шудринг замбуруғларининг (*P.*

clandestina, *P. tridactyla* (Wallr.) de Bary ва олма дарахтларининг патогени *P. leucothricha* (Ell. Et Ev.) E.S. Salmon) ҳам *Oidium* типли анаморфа босқичлари мавжуд эканлигини эсда тутиш керак. ДМД ларни зарарлайдиган ушбу ун-шудринг замбуруғ турларининг морфологик белгилари – конидиофора ва конидиялари, хасмотецийлари, асклари ва аскоспораларининг батафсил тавсифлари адабиётларда келтирилган (Головин, 1949, 1960; Пидопличко, 1977; Гапоненко и др., 1983; Alexopoulos et al., 2007; Grove, 2008a,b).

Шафтолини зарарлаши исботланган *Podosphaera leucothricha* ва *Podosphaera* sp. турлари ҳақидаги маълумотлар ушбу мақоланинг кейинги қисмида келтирилади. Қуйидаги маълумотлар *P. pannosa* турига тегишли.

Касаллик белгилари. Ун-шудринг билан дарахтларнинг барглари, ёш новдалари, куртаклари ва мевалари зарарланади. Нектарин тукли шафтолидан кучлироқ зарарланади (Запроиётов, 1926; Панфилова, 1950; Шишова, Звонарёва, 2010).

Зарарланган ёш барглари замбуруғнинг мицелийси ва конидияларидан ташкил топган оқ, унсимон ғубор билан қопланади, ўлчами кичрайдиган ва бужмайиб қолади. Каттароқ баргларида алоҳида жойлашган оқ ғуборлар ҳосил бўлиди. Зарарланган жорий йилнинг яшил новдаларида, кўпроқ уларнинг учки қисмларида оқ, қалин унсимон ғубор ҳосил бўлади. Зарарланган новдалар ўсмайди, калта, қиғир-қийшиқ бўлиб қолади, учидан бошлаб қурийдиган. Ғубор остидаги эпидермис тўқималари қизил тус олади.

Шафтоли мевалари патоген билан данаклари қотгунича зарарланади. Уларнинг устида олдин думалоқ, оқ ғуборлар ҳосил бўлади, улар ўсиб, мева устини тўла қоплаши мумкин. Баҳорда зарарланган ёш меваларнинг шакли бузилади, устида сал ботик ёки сал бўртган жойлар ҳосил бўлади, зарарланган жойларда эпидермис nobуд бўлади, мева усти қўнғир тус олиши ва чатнаши мумкин. Каттароқ меваларда зарарланган жойлар nobуд бўлиб, қўтирга ўхшаб қолади (Головин, 1949, 1960; Grove, 2008a).

Ареали. *Podosphaera pannosa* космополит **мур** бўлиб, шафтоли ва нектаринда Европада 30, Осиёда 26, Африкада 6, Шимолий, Марказий ва Жанубий Америкада 9 мамлакатда ҳамда Австралия, Янги Зеландия ва айрим бошқа минтақаларда учраши хабар қилинган (PP-Мар, 2001). Австралияда кам учрайди (Hetherington, 2005).

Айни пайтда, ушбу патоген космополит организм ҳисобланса ҳам, унинг ДМД ларда тарқалиши охиригача тўла аниқ эмас, чунки ДМД ларда ун-шудрингни *P. pannosa* дан ташқари туркумининг бошқа турлари, хусусан *Podosphaera clandestina* (ва айрим б.) ҳам қўзғатади; ушбу 2 турни морфологик белгилари асосида бир-биридан дифференция қилиш жуда қийин (Diekmann, Putter, 1994; Grove, 2008a). Собиқ СССР мамлакатларидан шафтоли ун-шудринг касаллиги Арманистон, Грузия, Кавказнинг Қора денгиз бўйи минтақаларида ва Ўрта Осиёда кенг тарқалган ва катта муаммо ҳисобланади (Головин, 1960).

Podosphaera pannosa шафтоли ва нектаринда Ўрта Осиёнинг барча қисмларида, бодомда эса Тожикистоннинг Хўжанд вилоятида учраши ҳақида илк бор деярли бир аср илгари хабар қилинган эди (Запромётов, 1925, 1926a). Кейинроқ ун-шудринг ушбу минтақаларда шафтолида кенг тарқалган эканлигини бошқа тадқиқотчилар ҳам тасдиқлашди (Панфилова, 1950; Головин, 1960; Гапоненко и др., 1983). Ўзбекистонда бу касаллик барча вилоятларида учраши таъкидланган (Ҳамроев ва б., 1995), аммо амалда *P. pannosa* фақат учта – Бухоро, Тошкент ва Қашқадарё – вилоятлари-

нинг айрим қисмларида қайд этилганлиги ҳақида аниқ маълумотлар мавжуд (Ахмедова, 1960; Гапоненко, 1965; Ниязов, 1977; Гапоненко и др., 1983). Бошқа вилоятларда учраши ва тарқалиши ҳақида чоп этилган маълумотлар бизга учрамади.

Зарарланадиган дарахт турлари. *Podosphaera pannosa* полифаг тур бўлиб, унинг ҳўжайин ўсимликлари қаторига Rosaceae (шафтоли, нектарин, бодом ва бошқа ДМД лар, атиргул ва наъматак турлари), Anacardiaceae (*Cotinus coggygria* Scop. – чарм-кўнчилик скумпияси, сариқ дарахт), Arosynaceae (*Catharantus roseus* [L.] Don – бўригул, нимранг барвинок), Myrtaceae (*Eucalyptus* sp. – эвкалипт ва *Corymbia citriodora* [Hook.] R.D. Hill & L.A.S. Johnson – лимонхидли камедь, лимонхидли эвкалипт) ва Oleaceae (*Forsythia* spp. – Форзиция туркуми турлари) оилаларининг вакиллари киради (Grove, 2008a; Fonseca et al., 2017).

Podosphaera pannosa шафтоли (Shin et al., 2018) ва эвкалипт дарахтларида (Fonseca et al., 2017) ун-шудринг қўзғатиши ҳам морфологик, ҳам молекуляр (рДНК ITS региони сиквенсларининг таҳлили) белгиларини ўрганиш орқали исботланган. Чапараста инокуляция тажрибаларида шафтоли ва эвкалиптдан олинган изолятлар ҳар 2 ҳўжайин дарахт турларини зарарлаган (Fonseca et al., 2017).

Podosphaera pannosa кўп ва ҳар хил ўсимлик турларини зарарлаши исботланган бўлса ҳам, табиатда у энг кўп *Rosa* ва *Prunus* туркумларининг турларида ун-шудринг қўзғатади. Патогенга барча ДМД ларнинг ёш барглари чидамсиз (Grove, 2008a; Meeboon et al., 2016).

Касалликнинг зарари ҳосил пасайиши, новдалар йиллик ўсиши камайиши, улар ўсув даврида ёки биринчи совуқларда нобуд бўлиши, зарарланган меваларнинг таъми бузилиши ва чириб кетиши билан ифодаланади. Яхши ўсаётган, бақувват шафтоли дарахтларида ун-шудринг энг кучли ривожланади ва энг кўп зарар етказади (Головин, 1960; Шкаликков и др., 2010). Ун-шудринг айниқса ёш (1-2 ёшли) кўчатларнинг барглари, новдалари ва куртакларини кучли зарарлаши, кўчатлар ўсмай қолиши қайд этилган (Набиев, 1974; Ниязов, 1977; Ҳамроев ва б., 1995; Шкаликков и др., 2010). Тошкент вилояти Бўстонлиқ туманида шафтолида ун-шудринг энг зарарли касалликлар қаторига кириши хабар қилинган (Ахмедова, 1960), аммо адабиётларда мамлакатимизда касаллик туфайли қанча мева ҳосили йўқотилиши ҳақида аниқ маълумотлар мавжуд эмас.

АҚШ да ун-шудрингнинг энг катта иқтисодий зарари мева зарарлаши туфайли кузатилади, бунда шафтоли ва нектариннинг ҳосили йўқотилиши 50% га етиши мумкин. Дарахтларнинг барглари ва новдалари зарарланиши эса асосан кўчатхоналарда зарар келтиради (Diekmann, Putter, 1994; Grove, 2008a).

Касаллик ривожланиши. Шафтоли ва нектариннинг энг кўп ёш барглари, камроқ ёш, яшил новдалари, куртаклари, гуллари ва баъзан мевалари зарарланади. *Podosphaera pannosa* мицелийси билан шафтоли ва нектарин новдаларининг куртак тангачалари орасида қишлайди. Атиргул турларида ҳам тиним давридаги куртакларда қишлаши мумкин.

Бу замбуруғнинг ҳасмотецийлари табиий шароитда жуда кам учрайди ва уларнинг замбуруғ сақланишида роли йўқ, деб ҳисоблашади (Пересыпкин, 1989; Diekmann, Putter, 1994; Grove, 2008a).

Баҳорда дарахт гуллари куртаклардан чиқиши билан зарарланади. Зарарланган аъзоларда конидиялар йил бўйи ҳосил бўлаверади ва улар шамол билан тарқалиб, дарахтларни қайта-қайта зарарлайверади. Бирламчи инфекция ёш барг ва новдаларда кузатилади, кейинчалик мевалар зарарланади

(Ниязов, 1977; Ҳамроев ва б., 1995).

Конидиялар ўсиши учун кардинал ҳароратлар 2°C ва 37°C, оптимум 21°C. Бунинг учун ҳаво намлиги юқори бўлиши қулай. Европада ҳарорат 28-30°C ва ҳаво нисбий намлиги 70-75% дан паст бўлганида касаллик кучли ривожланмайди (Grove, 2008a).

Ўзбекистонда шафтоли ва нектаринда ун-шудринг касаллигининг ривожланиши даражалари кам ўрганилган. Қашқадарё вилоятининг Косон ва Шаҳрисабз туманларида ўтказилган кузатувларда катта дарахтлар зарарланмаслиги, касаллик фақат ёш, 1-2 йиллик кўчатларда ва пайвандтаглардан ўсиб чиққан новдаларда учраши қайд этилган (Ниязов, 1977).

Худди шундай ҳолат муаллифлар шафтоли дарахтларида Андижон вилояти айрим боғдорчилик фермер ҳўжаликлари ва БУВИТИ Андижон филиали тажриба станциясида 2021-2023-йилларда ўтказган кузатувларида ҳам қайд этилган (илгари чоп этилмаган маълумотлар). Шу сабабдан Андижон вилоятида шафтолининг ун-шудринг касаллигига қарши махсус кураш чораларини қўллаш талаб этилмайди, барг бужмайиши ва клястероспориозга қарши тавсия қилинган кураш усуллари шафтоли ун-шудрингига қарши ҳам етарли самара беради, деб ҳисоблаймиз.

Кураш чоралари. Ун-шудрингга қарши қишда ёки сийраклаштириш пайтида зарарланган шох-новдаларни буташ, тўкилган барг, шох-шабба ва меваларни тўплаб йўқотиш, ҳаво намлигини пасайтириш учун боғни ортиқча суғормаслик, дарахтлар орасида шамол яхши юришини таъминлаш ва чидамлироқ навларни экиш каби тадбирлар қўлланилса фунгицид пуркашга эҳтиёж қолмаслиги мумкин (Головин, 1960; Ҳамроев ва б., 1995; Grove, 2008a).

Навлар чидамлилиги. Мамлакатимизда шафтоли ва нектариннинг ун-шудрингга чидамлилиги кам ўрганилган. Нектарин навларидан Ўзбекистон 40-йиллиги ўртача чидамли, Юлдуз ўртача чидамсиз эканлиги қайд қилинган (Шишова, Звонарёва, 2010.).

Диккатга сазовор маълумотлардан бири – Фарғона шафтолиси гуруҳига кирувчи маҳаллий навлардан Фарғона сариқ (анжир) шафтолиси ун-шудрингга иммун, Фарғона оқ (анжир) шафтолиси эса замбуруғ касалликларига чидамли эканлигидир (Веньяминов и др., 1953). Фарғона шафтолисининг келиб чиқиши аниқ маълум эмас, у Фарғона водийсида қадимдан экиладиган маҳаллий экин бўлиб, ё мустақил тур (*Prunus ferganensis* [Kost. & Rjab.] Y.Y. Yao) ёки ландрас¹ эканлиги тахмин қилинган (Fergana peach. 2021). Ушбу экин, Фарғона водийсидан ташқари, Зарфшон водийси, Бухоро ва Хоразм вилоятларида ҳам учрайди (Шоферистов, 2013). Селекция нуқтаи-назаридан Фарғона шафтолиси қимматли экин бўлиб, селекция дастурларида кўп қўлланилади. Жумладан сариқ шафтолининг ун-шудрингга иммунлиги белгиси уруғ авлодларига анча барқарор равишда ўтади, шу сабабдан янги, чидамли навларни яратишда энг мақбул навлардан бири ҳисобланади (Веньяминов и др., 1953). Фарғона шафтолиси нектаринларнинг асосий аждоди ёки асосий аждодларидан бири ҳисобланади. Украинада Фарғона шафтолиси типидagi бир қатор янги, ун-шудрингга толерант Нектарензис номли навлари яратилган (Шоферистов, 2013).

Кимёвий ва бошқа кураш усуллари. Дунё мамлакатларида шафтолининг ун-шудринг касаллигига қарши дарахтларга

¹ Ландрас (инглизча landrace) – қадимдан маҳаллий аҳоли томонидан экииб келаётган экин (тур, нае) (староместная культура или староместный сорт).

олтингургурт (н.кук., суюқ, ФЛО), олтингургурт-оҳак қайнатмасы (ООҚ), миклобутанил ва пропиконазол каби фунгицидлар пуркалади (Grove, 2008a; Alexopoulos et al., 2007; Alston et al., 2012). Лозим бўлганида, гулбарглар тўкилганидан кейин олтингургурт яна ҳафтада бир мартадан пуркалиши мумкин, миклобутанил эса гулбарглар энди чиққанида қўлланилади. Италияда шафтоли ун-шудрингига қарши бупиримат ва пирозофос яхши натижа берган (Grove, 2008a; Alexopoulos et al., 2007). Касаллик динамикасига қараб т.э.м. олтингургурт ёки пропиконазол бўлган препаратларни шафтоли мевалари мошдай бўлган пайтда ҳам қўллаш ва талаб этилса ишловни такрорлаш мумкин. Бунда олтингургурт, айниқса 30°C дан юқори ҳароратда, баъзи навларнинг барглари куйдириши мумкинлигини эсда тутиш лозим (Alston et al., 2012). Агар ООҚ қўлланилса, унинг концентрацияси Боме бўйича 0,25 градус бўлиши керак, ундан куюғи баргларга фитотоксик таъсир қилади. Тиним давридаги дарахтларга 3-5 градусли ООҚ қўллаш мумкин (Головин, 1960).

Касалликка қарши чидамлилик индукторларидан Актигарт, натрий бикарбонат, ультратоза минерал мойларни қўллаш ўсимликларнинг ҳимоя механизмини фаоллаштириши ва юқори самара бериши аниқланган (Alexopoulos et al., 2007).

Podosphaera leucothricha. Олма ва нок дарахларида ун-шудринг қўзғатадиган бу замбуруғ оддий тукли шафтоли меваларида «шафтоли зангсимон доғланиши» (peach rusty spot) касаллигини қўзғатади, аммо шафтоли барглари, новдалари ҳамда бошқа аъзоларини зарарламайди ва уларда ун-шудринг касаллигининг белгиларини ҳосил қилмайди. Патоген билан нектарин мевалари ҳам зарарланмайди.

Podosphaera leucothricha турининг конидиялари эллипсоид шаклли, узун занжирчаларда ҳосил бўлади, ўлчами 19-38х9-17 мкм. Хасмотецийлари олма ва нок барглари ва новдаларида ҳосил бўлади, аммо доим мавуд бўлмайди, кам учрайди. Улар шар ёки сал нок шаклли, зич тўдаларда, кам ҳолларда тарқоқ, диаметри 75-96 мкм, бир халтачали. Ўсимталари 2 хил: хасмотецийнинг устки қисмидаги апиал ўсимталари 3-12 та (кўпинча 3-7 та), оддий, тор даста шаклида жойлашган, ёрқин кўнғир тусли, учки қисмлари деярли рангсиз, баъзан 1-2 марта дихотомик шохланган, учлари тўмтоқ, думалоқлашган. Хасмотецийнинг остки қисмидаги базал ўсимталари калта, рудиментар, оч-кўнғир, буралган, оддий ёки бироз шохланган. Асклари думалоқ ёки калта эллипс шаклли, ўлчами 55-70х45-50 мкм, 8 спорали. Аскоспоралари тухум ёки эллипс шаклли, рангсиз, ўлчами 22-36х12-15 мкм (Головин, 1960; Hickey, Yoder, 1991).

Шафтоли мевалари зангсимон доғланиши илк бор АҚШ нинг Айдахо штатида 1941 йилда аниқланган (Jancovics et al., 2011 дан олинган) ва кейин АҚШ нинг кўп бошқа штатларида қайд этилган (Furman et al., 2003a; Grove, 2008b). Бу жуда хавфли касаллик бўлиб, Нью-Жерси штатида унинг тарқалиши 100% гача етган ва ҳимояланмаган боғларда мева ҳосили камайиб, ҳар гектардан 27-504 долларга тенг зарар етказган (Furman et al., 2003a). Бошқа қитъалардан бу касаллик Европада – Сербияда ва Францияда топилган (Jancovics et al., 2011). Ўзбекистонда олманинг ун-шудринг замбуруғи шафтолини зарарлаши аниқланмаган.

Podosphaera leucothricha билан зарарланган ёш шафтоли меваларида кичик, думалоқ, тўқ-сариқ-апельсин ёки оч-кўнғир тусли, диаметри 4-6 мм бўлган доғлар ҳосил бўлади. Мева ўсиши билан доғлар ҳам катталашиб, бир-бири билан қўшилиб, нотўғри шакл олади ва мева устининг кўп қисмини қоплайди. Зарарланган жойлардан меванинг туклари тушиб

кетади, улар силлиқ ва қизғиш бўлиб қолади. Баъзан доғларда патогеннинг губори ҳосил бўлади (Furman et al., 2003a; Grove, 2008b).

Сунъий зарарлаш тажрибаларида меваларда *Podosphaera pannosa* типик ун-шудринг, *Podosphaera leucothricha* эса зангсимон доғланиш белгиларини ҳосил қилган (Grove, 2008b). Олма ва шафтолининг барглари ва меваларини *Podosphaera leucothricha* нинг улардан ажратилган изолятлари билан чапараста инокуляция қилиш тажрибаларида олма изоляти шафтоли меваларида зангсимон доғланиш ва конидияларини ҳосил қилган, аммо барглари ва новдаларини зарарламаган; зангсимон доғланиш билан зарарланган шафтоли меваларидан олинган изолят билан инокуляция қилинган олма (Жонголд нави) кўчатларида типик ун-шудринг ривожланган (Jancovics et al., 2011).

Podosphaera leucothricha ҳақиқатда шафтоли меваларини зарарлаши ва уларда зангсимон доғланиш қўзғатиши кўп йиллар давомида тўла исботланмаган деб ҳисобланган (Furman et al., 2003a,b; Grove, 2008b). Аммо юқорида келтирилган чапараста инокуляция қилиш тажрибалари ҳамда молекуляр тадқиқотларнинг (рДНК ITS региони сиквенсларининг таҳлиллари) натижалари олмада ун-шудринг қўзғатувчи *Podosphaera leucothricha* тури шафтоли меваларида зангсимон доғланиш қўзғатишини тўла исботлаган (Jancovics et al., 2011).

Шафтоли мевалари *Podosphaera leucothricha* билан зарарланишга фақат 2-3 ҳафта давомида – мевалар энди шакллана бошлаган даврда мойил бўлади (Jancovics et al., 2011). Бошқа манбада касаллик гуллар тўкилганидан кейин 60 кун давомида ривожланиши хабар қилинган (Furman et al., 2003a).

Зангсимон доғланиш фақат ун-шудринг билан зарарланган олма боғлари ёнида жойлашган шафтоли дарахтларида кузатилади. Олмада ун-шудрингга қарши ўтказилган кураш чоралари шафтоли зарарланишини камайтиради. Лозим топилганида, шафтоли гулбарглари тўкилгандан кейин дарҳол, кейин ҳар 10 кунда 1 марта т.э.м. олтингургурт бўлган фунгицид пуркаш тавсия қилинади (Furman et al., 2003a,b; Grove, 2008b).

Бу ерда яна шуни айтиш керакки, шафтоли мевалари зангсимон доғланиши касаллигини *Podosphaera pannosa* ҳам қўзғатиши 2018 йилда Кореяда морфологик ва молекуляр (рДНК ITS региони сиквенсларининг таҳлиллари) усуллар ёрдамида исботланган (Shin et al., 2018).

***Podosphaera* sp.** Яқинда Таиландда шафтоли ун-шудринг билан зарарланиши қайд этилган. Қўзғатувчи замбуруғ фақат анаморфа босқичида топилган, хасмотецийлари топилмаган. Унинг конидиофораларининг узунлиги 90-221 мкм, конидиялари эллипсоид-овоид ёки бочка шаклли, ўлчами (28-)29-33(-34,5х15-15,5-19 мкм эканлиги хабар қилинган. Бу замбуруғ *Podosphaera* туркумига мансублиги аниқланган, аммо молекуляр белгилари ўрганилмаганлиги туфайли, тури ҳали аниқланмаган (Meeboon et al., 2016).

Хулосалар.

1. Дунёда шафтоли дарахтларида ун-шудринг касаллигининг асосий қўзғатувчиси *Podosphaera pannosa* туридир. Бу касаллик Ўзбекистоннинг айрим вилоятларида кенг тарқалган, аммо Андижон вилоятида жуда кам учрайди.

2. *Podosphaera pannosa* полифаг организм бўлиб, шафтолидан бошқа ДМД ларнинг ҳам ёш баргларида ун-шудринг қўзғатади.

3. Олмада ун-шудринг қўзғатувчи *Podosphaera leucothricha* тури АҚШ, Сербия ва Францияда шафтоли меваларида зангсимон доғланиш касаллигини қўзғатади. Аммо бу шаф-

толи касаллигини Кореяда *Podosphaera pannosa* тури ҳам қўзғатиши исботланган.

4. Айрим мамлакатларда шафтолида ун-шудринг касаллигини *Podosphaera* ва *Oidium* туркумларининг идентификация

қилинмаган турлари ҳам қўзғатиши хабар қилинган.

5. Шафтолининг ун-шудринг касаллигига қарши юқори самарали агротехник, генетик-селекцион, кимёвий ва нокимёвий кураш усуллари ишлаб чиқилган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ахмедова Ф.Г. 1960. Материалы к микофлоре юго-западных отрогов Тянь-Шаня. Стр. 101-107 в кн.: Материалы 1-координационного совещания микологов республик Средней Азии и Казахстана. Изд. АН Киргизской ССР, Фрунзе, 1960, 184 с.
2. Веньяминов А.Н., Исаев С.И., Заец В.К. и др. (всего 24 авторов). 1953. Сорта плодовых и ягодных культур. М.: Гос. изд. с.-х. литературы, 1953. Публикация НИИ Плодоводства имени И. В. Мичурина. Accessed 06.07.2023.
3. Гапоненко Н.И. 1965. Обзор грибов Бухарской области. Ташкент: «Наука» УзССР, 1965, 116 с.
4. Гапоненко Н.И., Ахмедова Ф.Г., Рамазанова С.С., Сагдуллаева М.Ш., Киргизбаева Х.М. 1983. Флора грибов Узбекистана. Том I. Мучнисторосяные грибы. Ташкент: «Фан», 1983, 362 с.
5. Головин П.Н. 1949. Микофлора Средней Азии. Том 1. Мучнисто-росяные грибы Средней Азии. Вып. 1. Ташкент: изд-во АН УзССР, 1949, 145 с.
6. Головин П.Н. 1960. Мучнисто-росяные грибы, паразитирующие на культурных и полезных растениях. М.-Л., 1960, 267 с.
7. Запромётов Н.Г. 1925. Болезни культурных растений в Средней Азии. Ташкент: «Наркомзем УзССР», 1925, 168 с.
8. Запромётов Н.Г. 1926а. Материалы по микофлоре Средней Азии. Вып. 1. Ташкент: «Наркомзем УзССР», 1926, 36 с.
9. Набиев Ў. 1974. Мевазор ва тоқзорларнинг зарақунанда ҳамда касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент: «Ўзбекистон», 1974, 48 б.
10. Ниязов Т.Н. 1977. Состав и процент поражаемости болезней косточковых плодовых культур в Кашкадарьинской области. Стр. 37-42 в книге: «Вопросы интегрированной системы борьбы с вредителями и болезнями растений». Научные труды ТашСХИ, 1977, вып. 2, 109 стр.
11. Панфилова Т.С. 1950. Главнейшие болезни сада и борьба с ними. Ташкент: изд-во АН УзССР, 1950, 12 с.
12. Пересыпкин В.Ф. 1989. Сельскохозяйственная фитопатология. Учебник для студентов вузов по специальности «Защита растений». Изд. 4-е. М.: «Агропромиздат», 1989, 480 с.
13. Пидопличко Н.М. 1977. Грибы – паразиты культурных растений. Определитель. Том 1. Грибы совершенные. Киев, «Наукова Думка», 1977, 296 с.
14. Хамроев А.Ш., Азимов Ж.А., Ниёзов Т.Б. ва б. (жами 13 та муаллиф). 1995. Боғ, тоқзорларнинг зарарқунандалари, касалликлари ва уларга қарши кураш тизими. Тошкент: «Фан», 1995, 160 б.
15. Шишова Т.В., Звонарёва Л.Н. 2010. Полевая оценка поражённости грибными болезнями интродуцированных сортов нектарина коллекции Никитского ботанического сада. Бюлл. Никитского бот. сада, 2010, № 101, стр. 47-51.
16. Шкаликов В.А., Белошапкина О.О., Букреев Д.Д. и др. (всего 8 авторов). 2010. Защита растений от болезней. Изд. 3-е. М.: «Колос», 2010, с. 281-289.
17. Шоферистов Е.П. 2013. Семенные популяции гибридов персика ферганского с нектарином и их дикими сородичами. Создано: 05 ноября 2013. <https://po-teme.com.ua/rastenievodstvo/stati-po-rastenievodcheskim-temam/1452-semennye-populyatsii-gibridov-persika-ferganskogo-s-nektarinom-i-ikh-dikimi-sorodichami.html> Accessed 06.07.2023.
18. Alexopoulos C. J., Mims C. W., Blackwell M. 2007. Introductory Mycology. 4th ed. Wiley – India, 2007, x + 869 pp.
19. Alston D., Murray M., Nischwitz C. 2012. Utah orchard pest management guide. Utah State University. Cooperative Extension. Publication No. HG137, 2012, 39 pp.
20. Diekmann M., Putter C.A.J. 1994. Stone Fruits, FAO & IPGRI, 1994. https://www.biodiversityinternational.org/fileadmin/_migrated/uploads/tx_news/Stone_fruits_255.pdf. Accessed 26.10.2018.
21. Fergana peach. 2021. Wikipedia, 21.03.2021. https://en.wikipedia.org/wiki/Fergana_peach. Accessed 06.07.2023.
22. Fonseca N.R., Guimarães L.M.S., Pires R.P., Klopfenstein N.B., Alfena A.C. 2017. Eucalypt powdery mildew caused by *Podosphaera pannosa* in Brazil. Tropical Plant Pathology, 2017, March 17, pp. 1-12. DOI 10.1007/s40858-017-0143-7. Accessed 25.06.2023.
23. Furman L.A., Lalancette N., White J.F., Jr. 2003a. Peach rusty spot epidemics; temporal analysis and relationships to fruit growth. Plant Disease, 2003, vol. 87, No. 4, pp. 366-374.
24. Furman L.A., Lalancette N., White J.F., Jr. 2003b. Peach rusty spot epidemics; management with fungicide, effect on fruit growth, and incidence-lesion density relationship. Plant Disease, 2003, vol. 87, No. 12, pp. 1477-1486.
25. Grove G.G. 2008a. Powdery mildew. Pages 12-14 in: Ogawa J.M., Eldon I.Z., Bird G.W. et al. (eds.) Compendium of stone fruit diseases. APS Press, 2nd printing, 2008, 98 pp.
26. Grove G.G. 2008b. Rusty spot. Page 15 in: Ogawa J.M., Eldon I.Z., Bird G.W. et al. (eds.) Compendium of stone fruit diseases. APS Press, 2nd printing, 2008, 98 pp.
27. Hetherington S. (coordinating author). 2005. Integrated pest and disease management for Australian summerfruit. NSW DPI. Summerfruit Australia Inc., 2005, x + 171 pp.
28. Hickley K.D., Yoder K.S. 1991. Powdery mildew. Pages 9-10 in: Compendium of apple and pear diseases. A.L. Jones & H.S. Alderwinckle (eds.). APS Press; APS, Minnesota, USA, 1991, 100 pp. + vi.

29. Jankovics T., Dolovac N., Bulajić A., Krstić B., Pascal T., Bardin M., Nicot P.C., Kiss L. 2011. Peach rusty spot is caused by the apple powdery mildew fungus, *Podosphaera leucotricha*. Plant Disease, 2011, vol. 95, No. 6, pp. 719-724. doi:10.1094/PDIS-10-10-0711. Accessed 20.06.2023.
30. List, 2018. List of peach and nectarine diseases. Accessed 25.08.2018. https://wikivisually.com/wiki/List_of_peach_and_nectarine_diseases.
31. Meeboon J., Hidayat I., Takamatsu S. 2016. Notes on powdery mildews (Erysiphales) in Thailand I. *Podosphaera* sect. *Sphaerotheca*. Plant Pathology & Quarantine, 2016, vol. 6, No. 2, pp. 142–174. Doi 10.5943/ppq/6/2/5. Accessed 05.07.2023.
32. PP, 2021. *Podosphaera pannosa*. Wikipedia, 25.01.2021. https://en.wikipedia.org/wiki/Podosphaera_pannosa. Accessed 30.06.2023.
33. PP, 2023. *Podosphaera pannosa*. GBIF, 2023. Accessed 30.06.2023. <https://www.gbif.org/species/5255308>.
34. PP-Map, 2021. *Podosphaera pannosa*. Distribution map. CABI-EPPO, 2001. DOI: 10.1079/DMPD/20066500843. Accessed 05.07.2023.
35. Shin H.D., Cho S.E., Choi I.Y., Seo K.W. 2018. *Podosphaera pannosa* causes powdery mildew and rusty spot on peach fruits from Korea. Korean Journal of Mycology, 2018, vol. 46, No. 2, pp. 193-199. <https://doi.org/10.4489/KJM.20180022>. (In Korean, with English abstract). Accessed 25.06.2023.

УЎТ: 632.4.

КЎКАТ САБЗАВОТ ЭКИНЛАРИДА УН-ШУДРИНГ КАСАЛЛИГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ЗАРАРИ

Бабажанова Лола Азадовна, мустақил изланувчи,
Саттарова Рано Кадиловна, профессор,
Тошкент давлат аграр университети,
Утаганов Самад Бобомурод ўғли, катта илмий ходим,
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий- тадқиқот институти.

Аннотация. Ун-шудринг замбуруғлари келтириб чиқарадиган касалликлар бутун дунё бўйлаб кўкат сабзавот экинларининг энг кенг тарқалган ва ҳавфли касалликларидан бири ҳисобланади. Улар ўсимликларнинг облигат паразит биотрофлари бўлиб, бутун ривожланиш циклини хўжайин ўсимлигининг тирик тўқимасида ўтказишади. Ушбу мақолада кўкат сабзавот экинлари (шивит, петрушка, сельдер)да ун-шудринг касаллигининг тарқалиши, ривожланиши ва ҳосилдорликка таъсири бўйича олиб борган тадқиқот натижалари келтирилди.

Калим сўзлар: Кўкат сабзавот экинлари, шивит, петрушка, сельдер, ун-шудринг, замбуруғ, *E.umbelliferarum*, касаллик, тарқалиши, ривожланиши.

Аннотация. Болезни, вызываемые мучнистой росой, являются одним из самых распространенных и опасных заболеваний зеленых овощных культур во всем мире. Они являются облигатными паразитическими биотрофами растений и проводят весь цикл развития в живой ткани растения-хозяина. В данной статье представлены результаты исследований, проведенных по изучению распространения, развития и воздействия мучнистой росы на зеленые овощные культуры (укроп, петрушка, сельдерей).

Ключевые слова: Зеленые овощные культуры, зеленый лук, петрушка, сельдерей, мучнистая роса, грибок, *E.umbelliferarum*, болезни, распространение, развитие.

Abstract. Powdery mildew diseases are one of the most common and dangerous diseases of green vegetable crops worldwide. They are obligate parasitic biotrophs of plants and spend the entire development cycle in the living tissue of the host plant. This article presents the results of studies conducted to study the spread, development and impact of powdery mildew on green vegetable crops (dill, parsley, celery).

Keywords: Green vegetable crops, chives, parsley, celery, flour-dew, fungus, *E.umbelliferarum*, disease, distribution, development.

Кириш. Жаҳонда охириги йилларда сельдер оила-сига мансуб кўкат сабзавот экинлари майдонларини кенгайтириш ва турларини кўпайтиришга катта эътибор қаратилмоқда. Шивит, петрушка ҳамда сельдер озиқ-овқат таъмини хушбўй қиладиган ва антибактериал хусусиятларга эга бўлган қимматли эфир мойлари манбаи ҳисобланади.

Мамлакатимиз кўкат сабзавотлари етиштириш ва экспорт қилиш бўйича жаҳонда ўз ўрнига эга. Ўзбекистон шароитида кўкат сабзавот экинларининг касалликлари бўйича алоҳида илмий-тадқиқотлар олиб борилмаган. Шунинг учун Республикада кўкат сабзавотларининг касалликларини ўрганиш ва уларга қарши илмий асосланган кураш чораларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда кўп ўстириладиган кўкат ўсимликлари соябондошлар оиласига мансуб бўлиб, улар биринчи йил ўстириш жараёнида кам зарарланади. Улар қишда сақлаш ва иккинчи йили уруғ олиш учун ўстириш пайтларида ҳар хил чиришлар билан кўп зарарланади [5].

Ун-шудринг касаллиги билан шивит, петрушка, сельдерлар касалланади. Касаллик белгилари ўсимлик баргида, бандида, поясида ва тўп гулларида оқ моғор шаклида намоён бўлади. Кейинчалик бу доғлар устида замбуруғнинг мева танасини ҳосил бўлишидан қора рангдаги доғлар пайдо бўлади. Касалланган ўсимлик қисмлари ўсишдан орқада қолиб қурийд [9].

Шивитда ун-шудринг касаллигини *Erysiphe umbelliferarum* ва *Leveillula taurica* замбуруғлари қўзғатади. Бу замбуруғларнинг махсус формалари бўлиб, улар фақат ўзлари мослашган экин турларини, хусусан *L. taurica* f. *anethi* ва *E. umbelliferarum* f. *anethi* шивитни, *E. umbelliferarum* f. *apii* сельдерни, *E. umbelliferarum* f. *pastinacae* пастернакни, *E. umbelliferarum* f. *carvi* қора зирани ва *E. umbelliferarum* f. *coriandrii* кашнишни зарарлайди.

У.Броуннинг (1987) қайд этишича *E. heraclei* (синоними *E. Umbelliferarum*) замбуруғи Fungi дунёси, Ascomycota бўлими, Leotiomycetes синфи, Erysiphales тартиби, Erysiphaceae оиласига мансуб. Замбуруғнинг ривожланиши учун бироз қуруқ ва иссиқ ҳаво қулай шароит ҳисобланади [11].

E. umbelliferarum ўсимлик органларидаги моғор қатлами устида конидиялар занжирчаларда ривожланади. Клейстотецийлар думалоқ, қуриганда остки томони ясси шакл олувчи, диаметри одатда 90-115 мкм, ҳар бирининг ичида 4-8 та халтача мавжуд; ўсимталари калта, кўп миқорда, узунлиги 100-150 мкм гача. Халтачалар эллипсоид шаклли, кўпинча бир томони кичикроқ, ўлчами 50-60х30-40 мкм, одатда ҳар бирининг ичида 3-5 та аскоспора мавжуд. Аскоспоралар узунчоқ-эллипсоид шаклли, ўлчами 20-25х11-13 мкм. [1; 4; 6].

Клейстотецийларидаги аскаларининг сонига кўра, ун-шудринг замбуруғлари иккита катта гуруҳга бўлинади. Бир гуруҳ, шу жумладан *Cystotheca* ва *Podosphaera* клейстотецийсида битта аска етилади. Қолган 14 туркумнинг клейстотецийсида бир нечта аскалар етилади. Ун-шудринг замбуруғларининг энг қадимий аجدодлари *Sphaerotheca* (ҳозирги *Podosphaera* sect. *Sphaerotheca*) бўлиб, клейстотецийсида битта аска етилади, деб тақлиф қилган. Мори ва бошқаларнинг (2000) молекуляр филогенетик таҳлил шуни кўрсатдики, кўплаб аска ҳосил қиладиган ун-шудринг замбуруғларининг аجدодлари ва битта аска ҳосил қиладиган гуруҳи бир нечта аска ҳосил қиладиган гуруҳидан келиб чиққан [13; 14].

Ҳозирги вақтда ун-шудринг замбуруғларининг 16 туркумга мансуб тахминан 900 тури маълум [14]. Улар ўсимликларнинг облигат паразит биотрофлари бўлиб, бутун ҳаёт циклини хўжайин ўсимлигининг тирик тўқимасида ўтказадилар. Ун-шудринг замбуруғларининг қўшимча хусусияти шундаки, *Leveillula*, *Phyllactinia*, *Pleochaeta* ва *Queirozia* туркумларидан ташқари барча туркумлар эктопаразитлар ҳисобланади. Соматик мицелийси ва конидиофоралари фақат хўжайин ўсимлик юзасида ҳосил бўлади ва улар эпидермис хўжайраларига фақат озиқлантирувчи орган бўлган гаусторийларини киритадилар [14]. *Phyllactinia*, *Pleochaeta* ва *Queirozia* қисман эндопаразит ҳисобланади. Улар конидиофоралар ҳосил қиладиган, яхши ривожланган юзаки гифаларни ҳам ҳосил қилади. Хўжайин ўсимлик тўқимасига устица орқали кирадиган гифаларда ривожланадиган ички

гифалар мезофил хўжайраларда гаустория ҳосил қилади, лекин хўжайралараро бўшлиқларга чўзилмайди. Фақат *Leveillula* ҳақиқий ички гифаларни ҳосил қилади, уларда конидиофорлар етилади ва устицалар орқали ташқарига чиқади. Паразитизмнинг қайси тури ирсий эканлиги ҳақидаги саволга қарама-қарши фикрлар эълон қилинган. Arnaud (1921) [10] ва Katumoto (1973) [12] *Leveillula* туркумини ун-шудрингнинг энг қадимий аждодлари деб ҳисоблашган, ундан қисман эндопаразит ҳаёт шакли ва ниҳоят эктопаразитизм пайдо бўлган [14].

В.Ф. Хлебниковнинг (1994) тадқиқотлари натижасига кўра, петрушка ва бошқа сельдер ўсимликлари ун-шудринг билан зарарланиши 0,9-1,1 балл бўлганда кўкат ҳосилдорлиги 24,2% га, 2,1-2,3 балл бўлганда 50,0% га ва 3 балл бўлганда 69,0% га камайиши кузатилган [7].

Тадқиқот услублари. Кўкат сабзавот экинларида ун-шудринг касаллигининг тарқалиши, ривожланиши ва ҳосилдорликка таъсири бўйича тадқиқотлар 2019-2021 йилларда Тошкент вилоятининг Янгийўл, Зангиота ва Қибрай туманларидаги далаларда амалга оширилди.

Касаллиқнинг тарқалиши, ривожланиши ҳамда ўсимликка етказадиган зарарини ўрганиш учун, очиқ далалардаги 1,2 X 20 метрли полларда, ҳар бири 1 м² бўлган 15 тадан намуналар олинди.

Касаллиқнинг тарқалиши қуйидаги формула асосида аниқланди:

$$P = \frac{n \cdot 100}{N}, \text{ бу ерда}$$

P - касаллиқнинг тарқалиши, %;

n - намунадаги касал ўсимликлар сони, дона;

N - намунадаги ўсимликларнинг умумий сони, дона [8].

Кўкат сабзавот экинларида ун-шудринг касаллигининг ривожланиши қуйидаги 5 балли шкалада аниқланди:

Ун-шудринг касаллигини ривожланиши баллар асосида қуйидаги шкала бўйича ҳисобланди:

Балл

– соғлом ўсимлик;

– барглarda касаллиқнинг белгилари жуда кам бўлган;

– баргларнинг ¼ қисми замбуруғ мицелийси билан қопланган;

– баргларларнинг 50% и замбуруғ мицелийси ва споралари билан қопланган;

4– баргларлар замбуруғ мицелийси ва споралари билан тўлиқ қопланган, учлари қурий бошлаган [8].

Касаллиқнинг ривожланишини фоиз кўрсаткичларини қуйидаги формула билан ҳисобладик:

$$R = \frac{\Sigma(a \cdot b) \cdot 100}{N \cdot K}$$

бу ерда, R – касаллиқнинг ривожланиши %; $\Sigma(a \cdot b)$ – касаллик билан зараланган ўсимлик аъзоларнинг баллардаги ифодасига кўпайтмасининг йиғиндиси; N – кузатилган ўсимлик аъзоларининг умумий сони; K – шкаладаги энг юқори балл [8].

Кўкат сабзавот экинларининг ун-шудринг таъсирида йўқотилган ҳосили қуйидаги формула асосида ҳисоблаб топилди [2; 3].

$$B = \frac{(A - a) \cdot 100}{A}$$

бу ерда, B – йўқотилган ҳосил, %;

A - соғлом ўсимликлар ҳосили, кг/м²;

a - касал ўсимликлар ҳосили, кг/м².

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Ун-шудринг касаллигини ўрганиш бўйича олиб борган тадқиқотларимиз натижасига кўра, мазкур касаллик ўрганилаётган кўкат сабзавот экинларининг барчасида аниқланди. Аммо касалликнинг тарқалиши ва ривожланиши шивитда кўпроқ эканлиги кузатилди.

Тошкент вилоятидаги даладарда ун-шудринг касаллигининг тарқалиши кўпроқ шивитда 18,4-21,3% гача, ривожланиши эса 12,4-17,5% гача етиши аниқланди. Жумладан, Янгийўл туманидаги “Янгийўл Агро Бизнес” фермер хўжалигида экилган шивитнинг “Ором” навида кузатилган 1286 та ўсимликдан 265 таси (20,6%) зарарланганлиги аниқланди ҳамда касалликнинг ривожланиши 16,8% ни ташкил этди. Қибрай туманидаги “Нури Мусо Ота” фермер хўжалигида экилган шивитнинг “Харьков-85” навида кузатилган 1348 та ўсимликдан 264 таси (19,6%) зарарланганлиги аниқланди ҳамда касалликнинг ривожланиши 16,0% ни ташкил этди. Касалликнинг энг кўп тарқалиши Қибрай туманидаги “Абдуқодир Абдуваҳоб” фермер хўжалигидаги шивитнинг “Аллигатор” навида аниқланди, ўрганилган 1271 та ўсимликдан 271 тасида касаллик аниқланди 21,3%, ҳамда касалликнинг 17,5% гача ривожланиши кузатилди. Янгийўл туманидаги “Ниёзбошлик Ориф Файз” фермер хўжалиги даладаридида экилган шивитнинг “Ўзбекистон - 243” навида эса касалликнинг тарқалиши энг кам 18,4%, ривожланиши 12,4% ни ҳамда касаллик индекси эса 2,3 ни ташкил этди.


Петрушкада олиб борилган кузатувларимиз натижасига кўра, ун-шудринг бирмунча камроқ кузатилди, бунда барча даладарда касалликнинг тарқалиши 6,3-11,3% гача эканлиги кузатилди. Жумладан, касалликнинг энг кўп тарқалиши ва ривожланиши Қибрай туманидаги “Нури Мусо Ота” фермер хўжалиги даладаридида экилган петрушканинг “Гигант” навида кузатилди. Ўрганилган 372 та ўсимликдан 42 таси (11,3%) зарарланганлиги аниқланди ҳамда касалликнинг ривожланиши 7,6% ни ташкил этди.

Касалликнинг энг кам тарқалиши Янгийўл туманидаги “Ниёзбошлик Ориф Файз” фермер хўжалиги даладаридида экилган петрушканинг “Нилуфар” навида аниқланди. Ўрганилган 382 та ўсимликдан 24 таси (6,3%) зарарланганлиги аниқланди.

Сельдерда олиб борилган кузатувларимиз натижасига кўра, касалликнинг тарқалиши 8,4-10,6% гача эканлиги кузатилди. Касалликнинг энг кам тарқалиши ва ривожланиши, Янгийўл туманидаги “Ниёзбошлик Ориф Файз” фермер хўжалиги даладаридида экилган сельдернинг “Сербарг” навида кузатилди. Ушбу хўжаликда ўрганилган 1256 та ўсимликдан бор йўғи 106 таси (8,4%) зарарланганлиги аниқланди ҳамда касалликнинг ривожланиши 5,6% ни ташкил этди.

Сельдерда ун-шудрингнинг энг кўп тарқалиши Қибрай туманидаги “Абдуқодир Абдуваҳоб” фермер хўжалигида етиштирилаётган сельдернинг “Самурай” навида 10,6% ҳамда Қибрай туманидаги “Нури Мусо Ота” иссиқхонасида экилган “Нежный” навида 10,5% кузатилди. Касаллик индекси эса 0,7% ни ташкил этди (1-жадвал).

Кўкат сабзавот экинларида ун-шудринг касаллигининг тарқалишини йиллар бўйича таққослаганимизда, касаллик энг кўп тарқалиши 2019 йилда кузатилди. Жумладан, шивитда 21,8% гача, петрушкада 9,6% гача ҳамда сельдерда 10,4% гача. Касалликнинг энг кам тарқалиши эса 2021 йилда кузатилди. Шивитда 19,8%, петрушкада 7,8% ҳамда сельдерда 9,3% атрофида бўлди (1-расм). Бу 2019 йилнинг баҳори серёғин об-ҳаво ва ҳаво нисбий намлигининг юқори бўлганлиги билан боғлиқ бўлиши мумкин.



1-расм. Кўкат сабзавот ўсимликларида ун-шудринг касаллигининг 2019-2021 йилларда тарқалиши, %



2-расм. Кўкат сабзавот ўсимликларида ун-шудринг касаллигининг 2019-2021 йилларда ривожланиши, %

2-расмдан кўриниб турибдики, касалликнинг ривожланишини йиллар бўйича солиштирганимизда, касалликнинг энг кўп ривожланиши ҳам 2019 йилда кузатилди. Жумладан, шивитда 16,5% гача, петрушкада 7,4% гача ҳамда сельдерда 6,5% гача. Касалликнинг энг кам ривожланиши эса 2021 йилда кузатилди. Шивитда 15,4%, петрушкада 6,6% ҳамда сельдерда 6,0% атрофида бўлди. 2020 йилда эса касаллик тегишлича, шивитда 16,2%, петрушкада 6,7% ва сельдерда 6,2% атрофида ривожланди.

Ун-шудринг касаллигининг кўкат сабзавот экинлари (шивит, петрушка, сельдер) ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш тадқиқотларимиз натижасига кўра, ун-шудринг касаллиги кўкат сабзавотлар ҳосилининг ҳам сифатига ҳам миқдорига таъсир этишини аниқланди.

Олиб борган кузатувларимиз натижасига кўра, ун-шудринг касаллиги таъсирида, шивитнинг 16,0-24,7% гача, петрушканинг 5,5-7,4% ҳамда сельдернинг 5,9-7,2% гача ҳосили йўқотилади экан. Навлар бўйича таққослаганимизда ун-шудринг касаллиги туфайли шивитнинг “Харьков-85” навида энг кўп ҳосил йўқотилиши кузатилди. Бунда 1 м² майдондаги соғлом ўсимликдан 2,15 кг, касалланган ўсимликдан эса 1,62 кг ҳосил олинди. Яъни соғломга нисбатан 0,53 кг ёки 24,7% ҳосил йўқотилиши кузатилди.

1- жадвал.

Кўкат сабзавот экинлари (шивит, петрушка, сельдер) да ун-шудринг касаллигининг тарқалиши ва ривожланиши

№	Хўжалик номи	Нав номи	Намунадаги ўсимликлар сони	Намунадаги касал ўсимликлар сони	Касалликнинг тарқалиши, %	Касалликнинг ривожланиши, %	Касаллик индекси, %
Шивит							
1	“Ниёзбошлик Ориф Файз” ф/х	Ўзбекистон - 243	1324	244	18,4	12,4	2,3
2	“Янгийўл Агро Бизнес” ф/х	Ором	1286	265	20,6	16,8	3,5
3	“Абдуқодир Абдувахоб” ф/х	Аллигатор	1271	271	21,3	17,5	3,7
4	“Нури Мусо Ота” ф/х	Харьков-85	1348	264	19,6	16,0	3,1
Петрушка							
1	“Ниёзбошлик Ориф Файз” ф/х	Нилуфар	382	24	6,3	5,8	0,4
2	“Янгийўл Агро Бизнес” ф/х	Обыкновенная листовая	376	29	7,7	6,4	0,5
3	“Абдуқодир Абдувахоб” ф/х	Новас	309	32	10,4	7,2	0,7
4	“Нури Мусо Ота” ф/х	Гигант	372	42	11,3	7,6	0,9
Сельдер							
1	“Ниёзбошлик Ориф Файз” ф/х	Сербарг	1256	106	8,4	5,6	0,5
2	“Янгийўл Агро Бизнес” ф/х	Бодрость	1365	128	9,4	5,8	0,5
3	“Абдуқодир Абдувахоб” ф/х	Самурай	1352	143	10,6	6,2	0,7
4	“Нури Мусо Ота” ф/х	Нежный	1448	152	10,5	6,5	0,7

2- жадвал.

Ун-шудринг касаллигининг ҳосилдорликка таъсири

№	Навлар номи	Ўсимликнинг физиологик ҳолати	Касалликни тарқалиши, %	Касалликни ривожланиши, %	1 м² дан олинган ҳосил, кг	Соғломга нисбатан ҳосилнинг йўқотилиши	
						кг	%
Шивит							
1	Ўзбекистон - 243	Соғлом	-	-	2,50	-	-
		Касал	18,4	12,4	2,10	0,4	16,0
2	Ором	Соғлом	-	-	2,75	-	-
		Касал	20,6	16,8	2,20	0,55	20,0
3	Аллигатор	Соғлом	-	-	2,63	-	-
		Касал	21,3	17,5	2,07	0,56	21,3
4	Харьков–85	Соғлом	-	-	2,15	-	-
		Касал	19,6	16,0	1,62	0,53	24,7
Петрушка							
1	Нилуфар	Соғлом	-	-	5,5	-	-
		Касал	6,3	5,8	5,2	0,3	5,5
2	Обыкновенная листовая	Соғлом	-	-	5,42	-	-
		Касал	7,7	6,4	5,1	0,32	5,9
3	Новас	Соғлом	-	-	5,25	-	-
		Касал	10,4	7,2	4,88	0,37	7,0
4	Гигант	Соғлом	-	-	5,56	-	-
		Касал	11,3	7,6	5,15	0,41	7,4
Сельдер							
1	Сербарг	Соғлом	-	-	5,46	-	-
		Касал	8,4	5,6	5,14	0,32	5,9
2	Бодрость	Соғлом	-	-	5,12	-	-
		Касал	9,4	5,8	4,80	0,32	6,3
3	Самурай	Соғлом	-	-	4,93	-	-
		Касал	10,6	6,2	4,59	0,34	6,9
4	Нежный	Соғлом	-	-	4,85	-	-
		Касал	10,5	6,5	4,50	0,35	7,2


Шивитнинг ун-шудринг касаллигига энг бардошли нави “Ўзбекистон - 243” нави эканлиги аниқланди. Бунда 1 м² майдондаги соғлом ўсимликдан 2,5 кг, касалланган ўсимликдан эса 2,1 кг ҳосил олинди. Яъни соғломига нисбатан 16% ҳосил йўқотилиши кузатилди. “Ором” ва “Аллигатор” навларида эса соғлом ўсимликка нисбатан тегишлича, 20,0% ҳамда 21,3% ҳосил йўқотилиши кузатилди (2-жадвал).

Ун-шудринг касаллиги таъсирида петрушканинг “Гигант” навида энг кўп ҳосил йўқотилиши кузатилди. Бунда 1 м² майдондаги соғлом ўсимликдан 5,56 кг, касалланган ўсимликдан эса 5,15 кг ҳосил олинди, яъни соғломига нисбатан 0,41 кг ёки 7,4% ҳосил йўқотилиши кузатилди. Петрушканинг ун-шудринг касаллигига энг бардошли нав эса “Нилуфар” нави эканлиги аниқланди. Бунда соғлом ўсимлик ҳосили 5,5 кг, касалланган ўсимлик ҳосили эса 5,2 кг ни ташкил этди. Яъни соғломига нисбатан 5,5% ҳосил йўқотилиши кузатилди. “Обыкновенная листовая” ва “Новас” навларида эса соғломига нисбатан тегишлича, 5,90% ва 7,0% ҳосил йўқотилиши кузатилди.

Ун-шудринг касаллиги кўкат сабзавот экинларидан сельдер ҳосилдорлигига бироз камроқ таъсир этиши кузатилди. Сельдернинг “Нежный” навида энг кўп ҳосил йўқотилиши қайд этилди. Бунда 1 м² майдондаги соғлом ўсимликдан 4,85 кг, касалланган ўсимликдан эса 4,5 кг ҳосил олинди, яъни соғломига нисбатан 0,35 кг ёки 7,2% ҳосил йўқотилиши кузатилди. “Сербарг” нави эса ун-шудринг касаллигига энг бардошли нав эканлиги аниқланди. Ушбу нав касаллик билан 8,4% зарарланган бўлсада, касаллик туфайли 5,9% ҳосил йўқотилди. “Бодрость” ва “Самурай” навларида эса тегишлича 6,3% ва 6,9% ҳосил йўқотилиши кузатилди.

Ун-шудринг касаллигининг кўкат сабзавот экинлари ҳосилдорлигига таъсири йиллар бўйича таққослаганимизда, касаллик таъсирида 2019 йилда шивитнинг 22,2%, петрушканинг 7,2% ва сельдернинг 6,8% ҳосили йўқотилган. 2020

йилда эса бу кўрсаткич шивитда 20,6%, петрушкада 6,5% ҳамда сельдерда 5,9% ҳосил йўқотилиши кузатилди. 2021 йилда эса шивитда 19,7%, петрушкада 6,4% ва сельдерда 6,3% ни ташкил этди (3-расм).



3-расм. Ун-шудринг касаллигининг 2019-2021 йилларда кўкат сабзавот экинлари ҳосилдорлигига таъсири, %

Касаллиқнинг ҳосилдорликка энг кўп таъсири шивитда кузатилганлигини, биз касаллиқни қўзғатувчи патоген замбуруғнинг кўпроқ шивитга ўсимлигига ихтисослашганлиги билан боғлиқ деб изоҳладик.

Хулоса. Ун-шудринг касаллиги кўкат сабзавот экинларининг энг ҳавфли касаллиқларидан бири ҳисобланиб, ўз вақтида кураш чоралари олиб борилмаса, касаллик таъсирида ҳосилдорлик сезиларли даражада камайиши мумкин. Тадқиқотларимизда шивитнинг “Ўзбекистон - 243” нави, петрушканинг “Нилуфар” ҳамда сельдернинг “Сербарг” навлари ун-шудринг касаллигига энг бардошли нав эканлиги аниқланди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ахатов А.К., Джалилова Ф.С. Защита овощных культур и картофеля от болезней. М.: Московская типография №2, 2006. — 352 с.
2. Дементьева М.И. Фитопатология. —М: Агропромиздат, 1985. -397 с.
3. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований). — 5-е изд., доп. и перераб. — М.: Агропромиздат, 1985. — 351 с.
4. Пересыпкин В.Ф. Болезни сельскохозяйственных культур. Том 3. Болезни овощных и плодовых культур. Киев: Урожай, 1991. — 208 с.
5. Хасанов Б.А. Қишлоқ хўжалик экинларининг касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари. // Магистратура талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент, 2010. 151 б.
6. Хасанов Б.А., Очилов Р.О., Гулмуродов Р.А. Сабзавот, картошка ҳамда полиз экинларининг касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент. “Ворис-Нашриёт”. 2009. 180 б.
7. Хлебников В. Ф. Состояние и направление селекции пряновкусовых культур сем. Сельдерные: материалы (тезисы и доклады) 3-й Междун. конф. по селекции и технологиям возделывания и переработки нетрадиционных растений. — Симферополь. — 1994. — С. 81-82.
8. Чумаков А.Е. (ред.). Основные методы фитопатологических исследований. М.: Колос, 1974 — 192 с.
9. Шералиев А.Ш., Саттарова Р.К., Рахимов У.Х. Фитопатология. Дарслик. Тошкент, 2004. 170 б.
10. Arnaud G. Etude sur les champignons parasites //Annales des Épiphyties. — 1921. — Т. 7. — pp. 1-115.
11. Braun U (1987) A monograph of the Erysiphales (powdery mildews). Beiheft zur Nova Hedwigia 89, 1–700. Cunningham JH, Watson A, Liberato JR, Jones R (2008) First record of powdery mildew on carrots in Australia. Australasian Plant Disease Notes 3, 38-41.
12. Katumoto K. Notes on the genera Lanomyces Gaum. and Cystotheca Berk. et Curt //Rep Tottori Mycol Inst. — 1973. — Т. 10. — pp. 437-446.
13. Mori Y., Sato Y., Takamatsu S. Evolutionary analysis of the powdery mildew fungi using nucleotide sequences of the nuclear ribosomal DNA //Mycologia. — 2000. — Т. 92. — №. 1. — pp. 74-93.
14. Takamatsu S. Molecular phylogeny reveals phenotypic evolution of powdery mildews (Erysiphales, Ascomycota) //Journal of general plant pathology. — 2013. — Т. 79. — №. 4. — pp. 218-226.

ПОМИДОР ЭКИНИДА ФИТОФТОРОЗНИНГ ЗАРАРИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШДА КИМЁВИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ БИОЛОГИК САМАРАДОРЛИГИ

Холдоров Мирхалил Уразбекович, б.ф.н, к.и.х.,
Алимухамедов Саидмурод Султонович, б.ф.н, к.и.х.,
Маматов Сохибжон Камол ўғли, докторант,
Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Ушбу мақолада фитопфтороз (*Phytophthora infestans* d) помидор экинида зарари ҳамда унга қарши кураш чоралари тўғрисида маълумотлар берилган. Олиб борилган тадқиқотлар фунгицидлар Previkur экстра TGB 72,2% в.к., Пиларзокс 25,5% к.с., Бома 25% к.с., Курзат Р н.кук. препаратлар қўлланилиб, биологик самарадорлиги ўрганилган.

Калит сўзлар: фунгицид, зарарланиш, каслланиш, кимёвий кураш, ўсимлик, памидор, самарадорлик, ҳосил, фитопфтороз, вариант, андоза, назорат.

Аннотация. В статье приводятся результаты исследования о эффективности фунгициды против фитопфтороз (*Phytophthora infestans* d) на томате. Проведено исследования препаратов Previkur экстра TGB 72,2% в.к., Пиларзокс 25,5% к.с., Бома 25% к.с., Курзат Р с.п. и определено биологический эффективность.

Ключевые слова: фунгицид, пораженность, болезни, химическая борьба, растение, эффективность, урожай, фитопфтороз, вариант, эталон, контроль.

Abstract. The article presents the results of research on the effectiveness of fungicides against *Phytophthora infestans* d on tomato. The preparations Previkur extra TGB 72,2% water-soluble concentrate, Pylarzoх 25,5% concentrate suspension, Boma 25% concentrate suspension, Kurzat P wetting powder have been studied and biological effectiveness has been determined.

Keywords: fungicide, infestation, disease, chemical control, plant, efficiency, yield, phytophthora, variant, reference, control.

Кириш. Охирги йилларда (2014-2016) олиб борилган мониторинг маълумотларга кўра касалликлардан; фузариоз сўлиш (*Fusarium* spp), фитопфтороз (*Phytophthora infestans* d), резактониоз (*Rhizoctonia solani*), вируслар (*Solanum virus*) ва бошқалар томонидан кучли зарар келтириши аниқланган.

Фитопфтороз касаллиги ўсимликларни гуллаш пайтида намоён бўлади. Ҳаво ҳароратининг пасайиши билан касалланиш тез ривожланади. Фитопфтороз касаллиги помидорни гуллаш даврида кузатила бошлайди. Помидор баргларида кўзга яққол ташланувчи кулранг-кўнғир, ботиқ, тўқ-кўнғир доғлар пайдо бўлади, секин- аста қурийд. [1.4.5]

Тадқиқот мақсади. 2021 йилда Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг помидор экилган майдонларида янги касаллик фитопфторозни ривожланиш ва уларга қарши кимёвий препаратларнинг биологик самарадорлигини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар олиб борилди.

Тадқиқот услуби. Тажрибада фунгицидлар Previkur экстра TGB 72,2% в.к. (Пропамокарб гидрохлорид 72,2 в.к.) -1,5 л/га, Пиларзокс 25,5% к.с., (Цимоксанил 170 г/л + Циазафомид 85г/л) -2,0 л/га, Бома 25% к.с. (Азокситробин 250г/л) -0,5 л/га, Курзат Р н.кук.(хлорокись мед+цимоксанил) -2,5 кг/га меъёрларда фитопфторозга қарши синалди.

1-жадвал.

Помидорни фитопфтороз касаллигига фунгицидларнинг биологик самарадорлиги
(дала тажрибаси, ишчи суюқлиги сарфи 600 л/га, май 2021 йил).

№	Вариантлар	Препаратларни сарф меъёри л/кг/га	Ўртача зарарланиш даражаси дори сепгунча, балл	Ўртача зарарланиш даражаси дорилангандан сўнг, балл			
				5-кун	10- кун	15- кун	20- кун
1.	Назорат	-	2,1	2,5	3,0	3,5	4,0
2.	Previkur экстра TGB 72,2% в.к	1,5	2,1	0,3	0,2	0,2	1,0
3.	Пиларзокс 25,5% к.с.	2,0	2,0	0,3	0,23	0,3	1,2
4.	Бома 25% к.с.	0,5	2,0	0,32	0,25	0,3	1,2
5.	Курзат Р (Э)	2,5	2,1	0,32	0,3	0,4	1,4
Назоратга нисбатан самарадорлик, %							
1.	Назорат	-	2,1	0	0	0	0
2.	Previkur экстра TGB 72,2% в.к	1,5	2,1	88,0	93,3	94,2	75,0
3.	Пиларзокс 25,5% к.с.	2,0	2,0	88,0	92,3	91,4	70,0
4.	Бома 25% к.с.	0,5	2,0	87,2	91,6	91,4	70,0
5.	Курзат Р (Э)	2,5	2,1	87,2	90,0	88,0	65,0

Андоза сифатида Курзат Р н.кук - 2,5 кг/га сарф миқдорида қўлланилди. Назорат вариантга ишлов берилмади. [3]

Препаратларнинг пуркалиши К – 90 маркали маторли қўл пуркагичи ёрдамида 300 л/га ишчи суюқлик сарфи ҳисобига олиниб амалга оширилди. Тажриба қўйиш ва унинг самарадорлигини ҳисобга олиш ишлари Давлат кимё комиссиясининг 2004 йилдаги услуб асосида олиб борилди, самарадорлиги эса Аббот формуласи [2] ёрдамида бажарилди.

Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси. Олинган маълумотларга кўра, помидор экиннида фитофторозга қарши Previkur экстраТГВ 72,2% в.к. (Пропамокарб гидрохлорид 72,2 в.к.) - 1,5 л/га сарф миқдорида қўлланилган вариантда 10-15-ҳисоб кунларида назоратга нисбатан 93,3-94,2% самарадорликка эришилган бўлса, Пиларзокс 25,5% к.с.,

(Цимоксанил 170 г/л + Циазафомид 85г/л) - 2,0 л/га сарф миқдорида қўлланилган вариантда 10-15-ҳисоб кунларида назоратга нисбатан 92,3-91,4% самарадорликка эришилди.

Бом 25% к.с. препаратини 0,5л/га сарф миқдорида қўлланилган вариантда 10-15-ҳисоб кунларида назоратга нисбатан 91,6-91,4% самарадорликка эришилди.

Андоза сифатида Курзат Р н.кук - 2,5 кг/га сарф миқдорида қўлланилган вариантда 10-15-ҳисоб кунларида назоратга нисбатан 90,0-88,0% самарадорликка эришилди.

Хулоса. Помидор экиннидаги фитофторозга Previkur экстра ТГВ 72,2% в.к. (Пропамокарб гидрохлорид 72,2 в.к.) -1,5 л/га сарф миқдорида, Пиларзокс 25,5% к.с., (Цимоксанил 170 г/л + Циазафомид 85 г/л) -2,0 л/га сарф миқдорида қўлланилганда кутилган натижага эришилади ва ишлаб чиқаришда кенг майдонларда қўллаш тавсия этилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Хакимов Р.А., Аскаралиев Х. Ўзбекистонда сабзавот, полиз, картошка экинларининг зараркунанда ва касалликларига қарши кураш бўйича қўлланма. – Тошкент, 2007. – 1-87 б.
2. Доспехов Б.А. «Методика полевого опыта». Москва «Колос», 1984.
3. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (Ш.Т.Хўжаев таҳрири остида).-Тошкент, 2004. - 103 б.
4. Ҳасанов Б.А. Микология. – Тошкент, 2019. – 503 б.
5. Ҳасанов Б.А. Очилов Р.О., Гулмуродов Р.А. Сабзавот, полиз ва картошка экинларининг касалликлари. – Тошкент, 2019. – Б. 1-200.

UO‘T: 632.936:.633.2/4

AMARANT ZARARKUNANDALARINING TARQALISHI VA UCHRASH DARAJASI

Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi, doktorant,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotekhnologiyalar instituti,
Tufliyev Nodirbek Xushvaktovich, q.x.f.d., professor,
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy- tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada amarant o‘simligida uchraydigan zararkunandalarining tur tarkibi o‘rganilib, ularning tarqalishi va uchrash darajalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon etilgan

Kalit so‘zlar: amarant, zararkunanda, lavlagi poya uzunburuni, g‘o‘za tunlami, uchrashi, zararlash darajasi.

Аннотация. В данной статье изучен видовой состав вредителей растений амаранта, описаны результаты исследований по их распространению и уровням встречаемости.

Abstract. In this article, the species composition of amaranth plant pests is studied and the results of research on their distribution and occurrence levels are described.

Respublikamizda so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘svuvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qarorida bir qancha belgilab berildi.

Respublikamizda dorivor o‘simliklar ichida o‘zining yuqori mahsuldorligi, qimmatbaho kimyoviy tarkibi tufayli muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Amarant o‘simligini etishtirish hamda undan foydalanish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Hozirgi paytda dunyoning etakchi mamlakatlarida amarantdan oziq-ovqat, em-xashak, siderat ekinlari sifatida hamda biologik

faol moddalar olishda keng foydalanib kelinmoqda.

BMTning oziq-ovqat bo‘yicha (FAO) ekspertlari amarantni mavjud madaniy o‘simliklar orasida inson va jamiyat taraqqiyoti uchun eng foydali jihatlari, asosiysi iqtisodiy tomondan katta daromad keltirishi o‘rganilib – XXI asr o‘simligi deb e‘lon qilindi. AQSh olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, amarant oqsili biologik qiymati bo‘yicha 100 balli baholash tizimida – 75 ballni, bug‘doy oqsili - 56,9, soya donlari - 68, sigir suti – 72,2 ball bilan baholandi.

Amarant o‘simligini ko‘paytirish, undan xalq xo‘jaligining deyarli barcha jabhalarida foydalanish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu o‘simlikning poyasi va bargidan chorvachilikda, bargidan va donidan oziq-ovqat tayyorlashda, moyidan tibbiyotning o‘nlab sohalarida qo‘llash yuqori imkoniyatdir. Hosildorligi bug‘doy bilan bir xilligi va

daromadi esa o'nlab marta ko'pligi fermerlar uchun yangi daromad manbaidir.

Biroq mamlakatimizda dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabning keskin ortib borishiga qaramasdan ularni o'stirish texnologiyalari, ularning zararkunanda va kasalliklarini o'rganish hamda ularga qarshi kurash choralarini shu vaqtgacha mukammal ishlab chiqilgan emas. Amaraning asosiy zararkunandalarini o'rganish, ular ichidagi dominant turni aniqlab olish va ularga qarshi samarali hamda ekologik xavfsiz kurash choralarini ishlab chiqilgan holda sifatli va mo'l hosilni saqlab qolish maqsadida Andijon viloyati sharoitida bir qancha ilmiy yo'nalishda kuzatuvlar olib bordik. Tadqiqotlarni Andijon viloyati, Andijon tumani Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Andijon tajriba stansiyasida amaraning Andijon navida olib borildi. Kuzatuvlar amaraning ekinining barcha fazasida har 7 kunda vizual tekshirish usuli asosida olib borildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra Andijon tumani SPKITI Andijon tajriba stansiyasi hududidagi tajriba maydonida 1 sinf, 5 turkum, 11 oilaga mansub 16 turdagi zararkunandalar uchrashi qayd etildi (1-jadval). Ular ichida zararlash va uchrash darajasi yuqori bo'lgan Hasharotlar sinfi, Qattiq qanotlilar (*Coleoptera*) turkumi, uzunburunlar (*Curculionidae*) oilasiga mansub lavlagi poya uzunburuni (*Lixus subtilis*), lavlagi oddiy uzunburuni (*Asproparthenis punctiventris* Germ.) hamda Hasharotlar sinfi, tangaqanotlilar (*Lepidoptera*) turkumi, tunlamlar (*Noctuidae*) oilasiga mansub G'o'za tunlami (*Heliothis armigera*)lar dominant turlar deb belgilandi.

Tadqiqotlarda davomida Teng qanotlilar (*Homoptera*) turkumi, Aphidae oilasiga mansub 2 tur lavlagi shirasi (*Aphis fabae*) va akatsiya shirasi (*Aphis craccivora*) turlari aniqlanib ularning zarari kam zararli deb belgilandi.

Qattiqqanotlilar (*Coleoptera*) turkumiga mansub 3 ta oilaga oid 3 turdagi hasharotlar, ya'ni *Curculionidae* oilasiga mansub *Asproparthenis obsoletifasciata*., *Scarabaeidae* oilasiga mansub yashil bronza qo'ng'izi (*Potosia marginicollis*), *Cetoniidae* oilasiga mansub *Olyonka ryabaya* (*Oxythyrea funesta*) larining uchrash va zararlash darajasi kam deb belgilandi.

To'g'riqanotlilar (*Orthoptera*) turkumi 3 ta oila mansub 3 turdagi hasharotlar aniqlandi, ya'ni *Gryllidae* oilasiga mansub dala chirildog'i (*Gryllus campestris*), *Tettigoniidae* oilasiga mansub yashil temirchak (*Tettigonia viridissima*), *Acrididae* oilasiga mansub poliz chigirtkasi (*Heteracris pterosticha*) aniqlandi. Andijon tumanida ushbu hasharotlarning zarari kam darajali, Marhamat tumanida esa yuqori zararliligi aniqlandi.

Yarim qattiqqanotlilar (*Hemiptera*) turkumi 3 ta oilaga mansub 4 turdagi hasharotlar ya'ni; *Miridae* oilasiga mansub beda

qandalasi (*Adelphocoris lineolatus*) va dala qandalasi (*Lygus pratensis*) ning zarari o'rtacha deb topildi. *Pentotomoidea* oilasiga mansub *Halyomorpha halys* va *Scutelleridae* oilasiga mansub zararli xasva (*Eurygaster integriceps*) ning zarari hamda uchrash darajasi kam ekanligi aniqlandi.

1-jadval.

Amarant zararkunandalarining tur tarkibi, uchrashi, zararlash darajasi va dominant turlari (Andijon tumani SPKITI Andijon tajriba stansiyasi 2021 – 2023 yy.)

№	Zararkunandalarning nomi	Uchrash darajasi*
1.	Lavlagi shirasi (<i>Aphis fabae</i>)	+
2.	Akatsiya yoki beda shirasi (<i>Aphis craccivora</i> Koch.)	+
3.	Lavlagi poya uzunburuni (<i>Lixus subtilis</i>)	+++
4.	Lavlagi oddiy uzunburuni (<i>Asproparthenis punctiventris</i> Germ.)	+++
5.	<i>Asproparthenis obsoletifasciata</i>	++
6.	Shilimshiq qurt (<i>Lema melonopus</i>)	++
7.	Yashil bronza qo'ng'izi (<i>Potosia marginicollis</i>)	+
8.	Olyonka ryabaya (<i>Oxythyrea funesta</i>)	+
9.	G'o'za tunlami (<i>Heliothis armigera</i>)	+++
10.	Poliz chigirtkasi (<i>Heteracris pterosticha</i>)	+
11.	Dala chirildogi (<i>Gryllus campestris</i>)	+
12.	Yashil temirchak (<i>Tettigonia viridissima</i>)	+
13.	<i>Halyomorpha halys</i>	++
14.	Beda qandalasi (<i>Adelphocoris lineolatus</i>)	+
15.	Dala qandalasi (<i>Lygus pratensis</i>)	++
16.	Zararli xasva (<i>Eurygaster integriceps</i>)	+

*Izoh: + kam, ++ o'rtacha, +++ ko'p tarqalgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, Andijon viloyati Andijon tumanida amaraning o'simligida 1 sinf, 5 turkum 11 oilaga mansub 16 turdagi zararkunandalar qayd etildi hamda ushbu zararkunandalar amaraning o'simligining turli o'simlik fazalarida zarar keltirishi aniqlandi. Andijon tumanida dominant tur sifatida uzunburunlar hamda tunlamlar oilasi vakillari ekanligi qayd etildi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-sonli "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish choratadbirlari to'g'risida"gi "qarori.
2. Saidganiyeva S. T. Amaraning o'simligini zararkunandalar bilan zararlaniishi / International conference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 8. – S. 325-328.
3. Tufliyev N., & Saidganiyeva SH. (2021). Cultivation of the medicinal plant amaranth and its entomofauna. Universum: chemistry and biology, (11-2 (89)), 70-73.
4. Atanu Seni Insect pests of amaranthus and their management//. International Journal of Environment, Agriculture and Biotechnology (IJEAB) Vol-3, Issue-3, May-June- 2018
5. <http://www.mushohada.uz/index.php/2019-11-07-06-36-31/f-tbol3/item/91-asosij-va-ta-rorij-e-il-an-amarant-yetishtirish>

TURLI MUDDATLARDA SHOLG'OM VA TURP EKINLARIDA TUNLAMLAR FEROMONITORINGI

Maripova Rukiyaxon Zokirjon qizi, tayanch doktorant,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti.

Annotasiya. Ushbu maqolada sholg'om va turp ekinida zarar keltirib kelayotgan tunlam qurtlarining bahorgi va kuzgi muddatlarda fenologik kuzatuvlari olib borilganligi haqida yoritilgan. Shu bilan birga sholg'omning va turpning turli navlarida tajribalar olib borilib, fenologik kuzatuvlar aniq sonlarda keltirilgan.

Аннотация. В статье описаны фенологические наблюдения за ночными червями, повреждающими посевы репы и редьки весной и осенью. В то же время были проведены опыты над разными сортами репы и редьки и велись фенологические наблюдения в точных количествах.

Annotation. This article describes the phenological observations of nightworms causing damage to turnip and radish crops in spring and autumn. At the same time, experiments were conducted on different varieties of turnips and radishes, and phenological observations were made in precise numbers.

Kalit so'zlar. feromon tutqich, qurt, kapalak, takroriy ekin, uslub, nav

Key words. pheromone trap, worm, butterfly, repeat crop, methodology, variety

Ключевые слова. феромоновая ловушка, червь, бабочка, повторный посев, методика, сорт

Kirish. Sholg'om va turp odatda takroriy ekin sifatida kuzgi muddatda ekiladigan ekin hisoblanadi. Lekin shu bilan birgalikda Farg'ona vodiysida, xususan Farg'ona va Andijon viloyatlarida ertaki, ya'ni bahorda ham ekib yetishiriladi. Tajribalarimizda 2 xil muddatda sholg'om va turp ekib o'rganildi.

Ob-havo sharoitiga qarab tuxumdan 3–7 kunda mayda to'q kulrang lichinkalar chiqadi. Dastlab qurtlar barglarning orqa tomonida bo'lib, ularning eti bilan oziqlanadi, keyin tuproqqa tushadi. Ular 30–40 kun yashaydi, shu davrda 5 marta po'st tashlab, 6 yoshdagi qurtga aylanadi va bu qurt oziqlanib bo'lgach, tuproqdan in yasab, unda g'umbakka aylanadi [1].

Apanteles kuzgi tunlamning qishlaydigan qurtlari ichida lichinka fazasida qishlaydi. may oyida havoning o'rtacha sutkalik harorati 20°C dan oshganda parazitning bahorgi uchib chiqishi boshlanadi [7].

Kuzgi tunlam bahorda o'rtacha sutkalik harorat 10°C dan oshganda qishlab chiqqan qurtlar tuproq yuzasiga yaqin ko'tarilib, g'umbakka aylanadi. kapalakning uchishi aprel-may oylariga to'g'ri keladi [2].

Helicoverpa armigera oziqlanib bo'lgan oxirgi yoshdagi qurtlar tuproqqa tushib 5-12 sm chuqurlikda in hosil qiladi va g'umbakka aylanadi. kamdan-kam hollarda inidan tashqarida ko'sak yoki makkajo'xori so'tasi ichida g'umbakka aylanadi [4].

Kuzgi tunlamning asosiy tabiiy kushandalaridan parazitlar trihogramma, apanteles, rogas, mikroplitis, makrotsentrus, barilipa, banxus, amblioteles va boshqa pardaqaqnotlilar ikkikanotlilardan taxin pashshalari hamda tuproqda yashovchi vizildoq qo'ng'izlar va boshqalari aniqlangan [6].


G'o'za tunlami kapalaklari tuxumlarini suvdan chiqqan, sernam g'ovlab o'sgan dalalarga qo'yishni xush ko'radi. Ob-havoga qarab tuxumlardan 3-6 kun o'tib qurtlar chiqadi [8].

Kuzgi tunlamning tabiatda hozirgi kungacha 80 turga yaqin tabiiy kushandalar mavjudligi aniqlangan. Ushbu kushandalar kuzgi tunlamni turli rivojlanish bosqichlarida zararlab sonini kamaytirib turadi [5].

Tadqiqot uslubi. 2021-2022 Tajribalarimiz takroriy ekin sifatida ekilgan sholg'om va turp ekinlarida olib borildi. Tajriba uchun turpning "Andijon-9" navini, sholg'omning "Namangan


maxalliysi" navlarini tanlab oldik. Sholg'om va turp ekinlari 2021-2022- yillarning avgust oy birinchi o'n kunligida ekildi. Egatlar orasi 70 sm. Urug'lar lenta usulida uyulab va sepma usulda ekildi va barcha agrotekhnik talablar sabzavotchilik uslublari asosida, zararkunandalar bo'yicha kuzatuvlar entomologik uslublarda olib borildi. Shuningdek, tadqiqotlar davomida harorat o'rtacha +26°C, nisbiy havo namligi 64-72% ni tashkil etdi. Kuzatuvlarimizda g'o'za tunlami va kuzgi tunlamlari uchun Italiyaning "Sigmaltaly" kompaniyasi jinsiy feromon tutqichlaridan foydalanildi. Feromon tutqichlar ekinidan 20 sm balandlikda, 1 ga maydonga 2-3 donadan o'rnatildi. Feromon tutqichlarning har biri variantlar va qaytariqlar asosida raqamlandi. Kuzatuvlar har 3 kunda yetti marta monitoring o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tadqiqotlarda kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) bo'yicha dastlabki kapalakalar sentyabr oyining birinchi o'n kunligidan boshlab feromon tutqichlarga tusha boshladi. Unga ko'ra sholg'om ekilgan maydonlarda ilingan feromon tutqichlarga kuzgi tunlam kapalaklar ilingandan keyingi 3-kunda 1 dona kapalaklar tushganligi aniqlandi. Keyingi kunlarda yana 3 kundan keyin 6-kuni 3 dona, 9-kuni 4 dona, 12-kuni 2 dona, 15-kuni 2 dona, 18-kuni 1 dona, 21-kuni 1 donadan kapalaklar ilindi (1 diagramma).




1-diagramma. Kuzgi tunlamning sholg'om ekinida feromon tutqichlarga tushishi (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2022-yil)

Sholg'om ekinida g'o'za tunlami (*Helicoverpa armigera*) kapalaklari sonini aniqlash uchun qo'yilgan tutqichlarga, tutqichlar qo'yilgandan keyin 3-kuni 4 dona, 6-kuni 3 dona, 9-kuni 1 dona, 12-kuni 2 dona, 15-kuni kapalak ilinmadi, 18-kuni 1 dona, 21-kuni 1 dona kapalaklar ilindi (2-diagramma).




2-diagramma. G'o'za tunlaming sholg'om ekinida feromon tutqichlarga tushishi (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2022-yil)

Turp ekinida esa kuzgi tunlam (*Agrotis segetum*) kapalaklarini kuzatganimizda qo'yilgan tutqichlarga 3-kuni 1 dona kapalak, 6-kuni 4 dona, 9-kuni 2 dona, 12-kuni 1 dona, 15-kuni 2 dona, 18-kuni 1 dona, 21-kuni 3 dona kapalaklar ilindi (3-diagramma).




3-diagramma. Kuzgi tunlamning turp ekinida feromon tutqichlarga tushishi (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2022-yil)



4-diagramma. G'o'za tunlaming turp ekinida feromon tutqichlarga tushishi (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2022-yil)


Aynan turp ekinida g'o'za tunlami (*Helicoverpa armigera*) kapalaklari sonini ani kuzatuvlarimizda tutqichlarga 3 kunda 10 dona kapalak, 6-kuni 3 dona 9-kuni 2 dona, 12-kuni 1 dona, 15-kuni 1 dona, 18-kuni 2 dona, 21-kuni 3 dona kapalaklar tutqichlarga ilindi (4-diagramma).

2023-yilgi bahorgi ekinida kuzatuvlarimizda kuzgi tunlam va g'o'za tunlamini sonini aniqlashda feromon tutqichlar o'rnatildi. Feromon tutqichlar har bir navga alohida 2 ta zararkunanda kapalaklariga alohidadadan qo'yildi. Feromon tutqichlar 15 may kuni o'rnatildi. Bunda sholg'omning Namangan mahalliyi navida *Agrotis segetum* Den. 18.05.2023 kuni 1 ta, *Helicoverpa armigera* 0 ta, 21.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 24.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 0 ta, 27.05.2023 *Agrotis segetum* 2 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 30.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta, *Helicoverpa armigera* 0 ta, 02.06.2023 *Agrotis segetum* 0 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 05.06.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta ni tashkil qildi (5 diagramma).




5-diagramma. Sholg'omning Namangan mahalliyi navida g'o'za tunlami va kuzgi tunlamning o'zaro nisbati (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2023-yil)

Sholg'omning Muyassar navida *Agrotis segetum* Den. 18.05.2023 kuni 1 ta, *Helicoverpa armigera* 1 ta, 21.05.2023 *Agrotis segetum* 0 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 24.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta, 27.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 0 ta, 30.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta, *Helicoverpa armigera* 0 ta, 02.06.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 0 ta, 05.06.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta ni tashkil qildi (6 diagramma).



6-diagramma. Sholg'omning Muyassar navida g'o'za tunlami va kuzgi tunlamning o'zaro nisbati (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2023-yil)


Turpning Andijon 9 navida 18.05.2023 kuni *Agrotis segetum* Den. 1 ta, *Helicoverpa armigera* 0 ta, 21.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 0 ta, 24.05.2023 *Agrotis segetum* 0 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta, 27.05.2022. *Agrotis segetum* 2 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 30.05.2023. *Agrotis segetum* 1 ta, *Helicoverpa armigera* 1 ta, 02.06.2023. *Agrotis segetum* 0 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 05.06.2023 *Agrotis segetum* 2 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta ni tashkil qildi (7 diagramma).



7-diagramma. Turpning Andijon 9 navida g'oz'a tunlami va kuzgi tunlamning o'zaro nisbati (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2023-yil)

Turpning Skvirskaya chernaya navida 18.05.2023 kuni *Agrotis segetum* Den. 0 ta, *Helicoverpa armigera* 1 ta, 21.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 0 ta, 24.05.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta, 27.05.2022. *Agrotis segetum* 2 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 30.05.2023. *Agrotis segetum* 1 ta, *Helicoverpa armigera* 0 ta, 02.06.2023.

Agrotis segetum 0 ta *Helicoverpa armigera* 1 ta, 05.06.2023 *Agrotis segetum* 1 ta *Helicoverpa armigera* 2 ta ni tashkil qildi (8 diagramma).



8-diagramma. Turpning Skvirskaya chernaya navida g'oz'a tunlami va kuzgi tunlamning o'zaro nisbati (Andijon viloyati, Andijon tumani SPEKITI Andijon tajriba stansiyasi maydoni, 2023-yil)

Xulosa. Tajribalarimiz 2021-2023-yillarda olib borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, g'oz'a tunlami va kuzgi tunlamning zarari sezilarli darajada kuzatildi. Bir necha yillik kuzatuvlardan kelib chiqib Italiyaning "Sigmalta" feromon, O'zbekistonning Agrseg-SGM, 0,2 mg/g va Helarm-SGM 0,4 mg/g tutqichlaridan kuzgi tunlamga urug' ekish bilan birgalikda, g'oz'a tunlamiga esa urug' ekkandan 3-4 kun o'tib monitoring maqsadida har gektarga 1 ta, qarshi kurash uchun esa gektariga 2-3 tadan qo'yilish tavsiya qilinadi. Tutqichlar o'simlikdan 30 sm balandlikda bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. X.X. Kimsanboyev va boshqalar. Entomologiya va fitopotologiya. – O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017-yil, 154-bet.
2. A.Sh.Xamrayev va boshqalar. O'simliklarni himoya qilish. – Darslik. Andijon. 2017-yil, 213-bet.
3. R.Z.Maripova, A.R.Anorbaev. Sholg'om va turp ekinlarida zararkunandalar rivojlanish monitoring Jurnal. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini Maxsus son [2]. 2023-yil, 98- bet.
4. Sh.T.Xo'jayev. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. – O'quv qo'llanma Toshkent. 2019-yil, 99 bet.
5. A.Sh.Sheraliyev, B.E.Murodov. Entomologiya va fitopotologiya. – O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008-yil, 49-bet.
6. A.Sh.Xamrayev, B.A.Xasanov va boshqalar. O'simliklarni biologik himoya qilish vositalari. – Darslik. Toshkent. 2012-yil, 306-bet.
7. Sh.T.Xo'jayev. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Darslik. Toshkent. 2014-yil, 458-bet.
8. B.A.Sulaymonov va boshqalar. G'oz'a zararkunandalariga qarshi biologik kurash bo'yicha tavsiyalar. - Qo'llanma. Toshkent. 2018-yil, 7-bet.

ШАРОББОП НАВЛАРНИНГ УЗУМБОШЛАРИНИ МЕХАНИК ТАРКИБИ

Маликов Азим Неъматович, қ.х.ф.ф.д. (PhD),
Тошкент кимё-технология институти,
Ҳолбоев Камол, магистрант,
Тошкент давлат аграр университети.

Аннотация. Мақолада хорижий давлатлардан келтирилган ва республикада чапиштириш йўли билан яратилган шароббоп навларнинг механик таркиби ўрганилиб, ҳосилдорлиги юқори, узум бошлари катта ва энг кўп шарбат чиқадиган навлар ажратиб олинди.

Калит сўзлар: Узум, хўраки, нав, шароббоп, ток, зарар, узумбоши, барг.

Аннотация. В статье изучен механический состав винных сортов, привезенных из-за рубежа и созданных скреживанием в республике, и выделены сорта с высокой урожайностью, крупными гроздьями и наибольшим соком.

Ключевые слова: Виноград, столовый, сорт, технический, виноградная лоза, повреждение, гроздь, лист.

Annotation. The article studied the mechanical composition of wine varieties brought from abroad and created by crossing in the republic, and identified varieties with high yields, large clusters and the largest juice.

Keywords: Grapes, table, variety, technical, vine, damage, bunch, leaf.

Кириш. Узумчилик – Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг асосий тармоқларидан биридир. Мамлакатимизда узум қадим-қадимдан етиштириб келинмоқда. Республиканинг қулай тупроқ-иқлим шароити узумни хўраки, сифатли майизбоп ва хилма хил шароббоп навларини етиштириб мўл ҳосил олиш имконини беради.

Узумнинг бу ердаги хўраки, кишмиш ва майизбоп навлари, шунингдек десерт ва ўткир шароблар ватанимизда ҳам, хорижда ҳам машҳурдир. Бугунги кунда тоқзорларнинг майдони 128,9 минг гектарни ташкил этади ва йиллик ялпи узум ишлаб чиқариш 1 миллион 441 минг тоннани ташкил этсада, бу кўрсаткич узум маҳсулотига бўлган талабни қондира олмайди.

Шу боис ҳукуматимиз томонидан тоқзорларнинг майдонини кенгайтириш ва унинг ҳосилдорлигини ошириш ҳисобига барча турдаги узум маҳсулотларининг ишлаб чиқариш ҳажмини кескин ошириш режалаштирилмоқда. Маданий навларимизнинг сифати юқори бўлишига қарамай, айримларида камчиликлар мавжуд, уларни бартараф этиш, четдан келтирилган навларни механик таркибини ўрганиб энг яхшиларини танлаш ва барча минтақалар бўйлаб районлаштириш, ҳосилдорлик ва маҳсулот сифатини ошириш ҳозирги куннинг долзарб

масалаларидан биридир.

Мазкур вазифани ҳал этишнинг усулларидан бири узумнинг шароббоп навларни механик таркибини ўрганиш ҳамда уларни етиштиришни агротехникасини такомиллаштириш ҳисобланади.

Тадқиқот услубияти. Шароббоп навларнинг узум бошлари, эти, шингил, уруғи аналитик тарозида ўлчаниб, фоизда ҳисобланди, узум бошининг ўлчами эса чизғичда ўлчанди ва умумқабул қилинган услублар бўйича ҳисобланди.

Тадқиқот натижалари. Шароббоп узум навларининг узумбошларини механик таркиби ўрганилганда олинган натижалар барча навлар бир-бирига нисбатан катта фарқ қилинмаганлиги аниқланди (1-жадвал).

1-жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, узумбошларнинг энг кичиги “Матраса” ва “Первомайский” навларида мос равишда 150-170 г. бўлса, энг йирик узум боши “Кумшатский” навида 520 г. ни ташкил қилди. Қолган барча навларда 250-440 г. атрофида бўлди.

Чизикли ўлчами бўйича энг катта узумбоши 30×17 ва 27×15 смгача “Алиготе” ва “Кумшатский” навларида, энг кичик узумбоши “Матраса” навида кузатилди. Узумбошларнинг ўртача

1-жадвал.

Шароббоп навлар узумбошларининг механик таркиби.


Навлар	Узум бошининг		Узум боши оғирлигининг таркиби, %				
	оғирлиги, г	ўлчами, см	шингил	эти	пўсти	шарбат	уруғи
Саперави (st)	350	25×17	2,4	42,2	2,9	50,5	2,0
Кабирни савинион	440	24,5×15	3,1	28,7	5,1	61,5	1,6
Рекорд	450	23×16	2,6	45,1	4,6	46,3	1,4
Серемский зелёный	430	18,5×14	2,5	32,0	5,7	58,1	1,7
Алиготе	450	30×17	2,4	42,2	2,9	50,5	2,0
Адесси	410	18×13	3,4	26,1	5,3	62,9	2,3
Эфенди	370	15×11	2,0	40,6	3,7	52,4	1,3
Гармус	250	22×14	1,5	38,0	2,7	54,6	3,2
Кумшатский	520	27×15	3,8	22,8	2,8	67,2	3,4
Матраса	150	14×8	3,4	41,4	4,7	47,3	3,2
Первомайский	170	17×12	5,1	39,9	3,9	47,0	4,1

катталиги “Гармус” ва “Рекорд” навларида 22×12, 22×14 ва 23×16 см ни ташкил қилди. Қолган навларда бошқаларга нисбатан бирмунча кичикроқ бўлганлиги аниқланди.

Узумбошининг умумий тузилмасида шингил 1,3-5,3% ни ташкил этди. “Первомайский” навида шингилнинг оғирлиги энг юқори 5,1%, “Гармус” навида энг кичик 1,5% бўлди. Барча навлар бўйича пўсти ўртача 3,9% ни ташкил этди. Бунда ўзгаришлар амплитудаси ушбу кўрсаткич бўйича 2,7% дан “Гармус” ва 5,7% гача “Серемский зелёный” навида бўлди. Узумбошидаги уруғлар миқдори кичик чегарада ўзгарди ва ўртача 2,4% ни ташкил этди.

Узумбошининг асосий оғирлигини шарбат ва эт қисми ташкил этади. Бинобарин, энг юқори шарбат чиқиши “Кумшатский” навида 67,2% ва “Кабирни савинион” навларида 61,5% ни ташкил этган бўлса энг кам шарбат чиқиши “Рекорд” ва “Первомайский” навларида 46,3-47,0% бўлиши аниқланди. Бирмунча камроқ шарбат чиқиши (50,5-54,6%) тўртта намунада қайд этилди (1-расм).

Таъкидлаш жоизки, ушбу ўрганилган навларда эт миқдори энг паст қайд этилган навларда шарбат миқдори бўйича энг юқори кўрсаткич бўлганлиги кузатилди. Эт миқдорининг энг паст бўлиши “Кумшатский”, “Адекси” ва “Кабирни савинион” навларида 24,8-26,1 ва 28,4% оралиғида бўлди. Барча навларда эт миқдори ўртача 36,2% ни ташкил қилди. Қолган барча навларда эт миқдори бир-бирига мос равишда 32% дан 42,2% гача бўлганлиги кузатилди.



1-расм. Шароббон навларни механик таркиби.

Ўрганилган навлар узум бошлари таркибидаги уруғи бир бирига мос равишда 2,4% ни ташкил қилди. Бунда “Первомайский” нави узум боши энг кичик бўлишига қарамасдан таркибидаги уруғ миқдори ҳам энг юқори (4,1%) бўлиши аниқланди. Уруғнинг энг кам бўлиши “Эфенди” навида 1,3% бўлди.

Хулоса. Тадқиқот натижаларида “Кабирни савинион” ва “Кумшатский” навлари шарбат чиқиши энг юқорилиги билан (61,5-67,2%) бошқа навлардан ажралиб турди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Грамотенко П.М. Мускат фрунзенский. Ампелография ССР. Отечественные сорта винограда. – Москва, 1984. – С. 156
2. Джавакянц Ю., Горбач В. Виноград Узбекистана. – Т.: Шарқ, 2001. – 142 бет.
3. М.М. Мирзаев ва бошқалар. Сорта винограда Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1974. – 89 бет.
4. Темуров Ш. Узумчилик. – Т.: ЎзМЭ, 2002. – 95 бет.

УЎТ: 634.21.631.

МАҲАЛЛИЙ ВА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН ЎРИК НАВЛАРИНИНГ ҲОСИЛДОРЛИГИ

Қаршиев Алишер Эсанович, мустақил изланувчи,

Академик Махмуд Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Мақолада Қашқадарё вилояти шароитида ўрик навлари коллекциясида мавжуд маҳаллий ва четдан келтирилган истиқболли ва ҳосилдор навларни танлаш, мевалар сифатининг ошиши ва бошқа ижобий хусусиятлари келтирилган.

Калим сўзлар: истиқболли мева, ҳосил, бог, маҳаллий, нав, куртак, чидамлилик, ҳосилдорлик.

Аннотация. В статье представлены подборка местных и импортных перспективных и продуктивных сортов, повышение качества плодов и другие положительные черты коллекции сортов абрикоса в условиях Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: перспективный плод, урожай, сад, аборигенный, сорт, почка, зимостойкость, продуктивность.

Annotation. The article presents a selection of local and imported promising and productive varieties, improving the quality of fruits and other positive features of the collection of apricot varieties in the conditions of the Kashkadarya region.

Key words: promising fruit, harvest, orchard, native, variety, bud, winter hardiness, productivity.

Кириш. Ҳозирги кунга келиб ўрик навларининг юқори сифатли, экспортбон, ҳосилдор, йирик мевали навлари бўлган талаб ошиб бормоқда, Бу бозор иқтисодиёти рақобатларига мос келади. Шу сабабли ўрикнинг турли хил экологик зоналарда етиштирилаётган навларини ўрганишни талаб этмоқда. Изланишлар ва кузатувлар натижасига кўра,

Қашқадарёда асосан эртапишар ва ўртапишар ўрик навлари кўп тарқалган. Табиий шароитнинг қулайлиги, тез ўсиши ер танламаслиги, эрта ҳосилга кириши ва мўл ҳосил бериши ўрик дарахларининг бу ҳудудда кенг тарқалишига сабаб бўлган.

Ўрганилганлик даражаси. Хорижий давлатларда ўрик навларини морфо-биологик ва қимматли хўжалик белгила-

рини ўрганишда МДХ мамлакатларда Г.С.Есаян (Ереван), П.Р.Арзуманян, С.Л.Агулян, А.С.Мелконян, В.М.Микаелян, В.К.Смикова (Молдавия), Ш.А.Хабибуллин (Қозғоғистон), А.Н.Веньяминов, Л.А. Долматова, Н.В.Ковалев, К.Г.Никишин Р.Г. Ноздрачёва, Л.А. Крамаренко, Ф.М. Гасымов (Россия), А.Пулатов, В.В.Кузнецовлар (Тожикистон) илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган.

Ўзбекистонда эса К.В. Васильев, Л.А. Протасевич, К.Ф.Костина, А.А.Рыбаков ва М.М.Мирзаевлар навларни танлаш ва етиштириш технологиясига оид тадқиқотлар олиб борган.Шунга қарамай юртимизда сўнгги йилларда ўрикнинг абиток ва биотик омилларга чидамли, серҳосил навларини танлаш ҳамда етиштиришнинг айрим элементларини тақомиллаштириш бўйича илмий-тадқиқот ишлари етарлича амалга оширилмаган.

Ўрик энг кўп етиштириладиган данакли мевалардан бири ҳисобланади. Ўрик мевасининг аҳамияти жуда юқори бўлиб, у дарахтдан узилган маҳали, қоқи қилиб ва қайта ишланган ҳолда севиб истеъмол қилинади. Янги пишган ўрик меваси таркибида 8,4-19,0% шакар, 0,3-1,7% турли хил олма ва жуда оз миқдорда вино кислоталари, 0,1-1,6% пектин, шунингдек А ва С витаминлар мавжуд, тайёрланган туршагида қанд миқдори 80% ва ундан ҳам кўпроқ бўлади. Ўзбекистонда етиштириладиган кўпчилик ўрик навларининг мағизи ширин, таркибида 45-58% мой ва 28-30% га яқин оқсил бўлади. [1].

Ўрик навларида ҳосилдорлик кўрсаткичлари ўрганилган бўлиб, бунда “Шалах” нави юқори ҳосилдорликнинг (31,3-33,4%) 3,5-5,0 балл билан баҳоланган. “Памятник 199” ва “Костина” навлари юқори ҳосилдорлик билан ажралиб турган [2].

Ўтказилган тадқиқотлар натижасида, танлаб олинган нав ва дурагайлар 8112, 8099, 7699, 7794 юқори ҳосилдорлик кўрсаткичларига эга бўлган, мева вазни 30 г дан 40 г гача, сифатли, ташқи кўриниши яхши мевалари билан ажралиб турган ҳамда таъм баҳоиси ўрганилганда 3,5 дан 3,7 баллгача эканлиги аниқланган [3].

Ўрикнинг клястероспориоз касалликларига бардошлилиги борасида тадқиқотлар олиб борган мутахассисларнинг маълумотларига кўра, Эрон-Кавказ навларида (25,0%) ва гибридларида (22,4%), Европа гуруҳларида (20,7%), Хитой гуруҳларида (20,0%) маълум даражада аниқланган. Марказий Осиё генотипларининг барглари қолган қисмига нисбатан энг кўп зарарланган (12,8%). Бу кузатувлар натижалари орқали кластероспориозга чидамлилигини ошириш учун бардошли навлардан оналик боғларини шакллантириш зарур эканлиги таъкидланади. [4].

Ўсимлик хужайрасига замбуруғли касалликларнинг таъсири, хужайра атрофида ўсимлик хужайра девори таркибига ўхшаш модда қатлами ҳосил бўлади. Бу қатлам ўсимлик хужайрасининг ситоплазматик мембранасини замбуруғли микроорганизмларнинг зарарли таъсиридан ҳимоя қилиши мумкинлиги аниқланган. [5, 6, 7].

Тадқиқот услублари. Тадқиқотларда ўрик навларининг ўсиб-ривожланиши ва ҳосилдорлик кўрсаткичлари мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар Х.Ч.Буриев ва бошқалар (2014)нинг тавсиясига кўра, тадқиқотлардан олинган маълумотларга математик ва статистик ишлов бериш Microsoft Excel дастури ёрдамида Б.А.Доспехов (1985) тавсия этган услублар бўйича амалга оширилди.

Тадқиқот натижалари. Тадқиқотлар олиб борилган навларда тўлиқ ҳосилга кирган 8-10 ёшли бир туп ўрик дарахтининг ҳосили “Субхоны” (st) навида 15,9 кг ни ташкил қилиб,

унга нисбатан 3,3 кг ёки 20,8 % юқори ҳосилни “Моника Бланка” (19,2 кг) нави, аксинча, 5,5 кг ёки 34,6% энг кам ҳосилни “Наджими” (10,4 кг) нави эканлиги маълум бўлди. Шунингдек, “Субхоны” (st) нави нисбатан бир туп дарахтидан 1,1-0,2 кг ёки 6,9-1,3 % га юқорроқ ҳосилни “Калони кандак” (17,0 кг) ва “Субхоны Гигант” (16,1 кг) навларида шакллланган бўлса, 0,2 кг ёки 1,3 % га кам ҳосилни “Исфарақ” ва “Исфарақ бадамский” навларида эканлиги аниқланди.

2017 йилда энг юқори ҳосилдорлик ўрикнинг “Исфарақ” (32,3 ц/га) ва “Субхоны Гигант” (24,9 ц/га) навларида бўлиб, “Субхоны” (st) нави (19,3 ц/га) нисбатан 13,0-5,6 ц/га ёки 67,4-29,0 фоизга юқори бўлганлиги аниқланди. Аксинча, “Субхоны” (st) нави нисбатан 64,2 % га ёки 12,4 ц/га энг кам ҳосилдорликни “Моника Бланка” (6,9 ц/га) навларида шакллланганлиги аниқланди. Шу билан бирга, 1,-3,3 ц/га ёки 5,2-17,1 % кўп ҳосилдорликни “Субхоны” (st) нави нисбатан “Исфарақ бадамский” (20,3 ц/га), “Субхоны Заря” (20,6 ц/га) ва “Калони кандак” (22,6 ц/га) навларида бўлган бўлса, майдон бирлигидан 1,4-9,0 ц/га кам ҳосилдорликни “Наджими” (17,9 ц/га), “Шалах” (11,3 ц/га) ва “Юбилейный Навои” (10,3 ц/га) навлари намоён қилганлиги маълум бўлди.

2018 йилда майдон бирлигидан 9 ёшли ўрикнинг “Субхоны” (st) нави (59,2 ц/га) нисбатан “Моника Бланка” (77,5 ц/га) нави – 18,3 ц/га (30,9 %) энг юқори, аксинча, “Наджими” (39,6 ц/га) ҳамда “Юбилейный Навои” (38,6 ц/га) навларида – 19,6-20,6 ц/га (33,1-34,8 %) энг кам ҳосилдорлик бўлганлиги аниқланди. Шунингдек, “Субхоны” (st) нави нисбатан 3,4-16,4 % га кўп “Шалах” (61,2 ц/га), “Субхоны Гигант” (65,2 ц/га), “Исфарақ бадамский” (65,9 ц/га) ва “Калони кандак” (68,9 ц/га) навлари намоён қилган бўлса, “Исфарақ” (55,9 ц/га) ва “Субхоны Заря” (50,2 ц/га) навлари эса мутаносиб равишда 3,3 ва 9,0 ц/га кам ҳосилдорликни ташкил қилди.

Маҳаллий ва интродукция қилинган 10 ёшли ўрик навлари 2019 йилда майдон бирлигидан “Моника Бланка” нави (107,5 ц/га) энг юқори ҳамда “Субхоны Заря” (47,6 ц/га) ва “Наджими” (45,9 ц/га) навлари эса энг кам ҳосилдорликни намоён қилди. Шунингдек, “Субхоны” (st) нави (80,2 ц/га) нисбатан “Шалах” нави – 5,7 ц/га ёки 7,1 % га юқори, аксинча, “Калони кандак” (1,7 ц/га), “Субхоны Гигант” (9,3 ц/га), “Исфарақ бадамский” (9,3 ц/га), “Юбилейный Навои” (10,7 ц/га) ҳамда “Исфарақ” (11,3 ц/га) навлари 2,1-14,1 % кам ҳосилдорликка эга эканлиги аниқланди.

Тадқиқот натижаларига кўра, энг юқори ҳосилдорлик “Моника Бланка” (64,0 ц/га) ва “Калони кандак” (56,7 ц/га) навларида кузатилган бўлса, энг кам ҳосилдорлик эса “Субхоны Заря” (39,5 ц/га), “Юбилейный Навои” (39,5 ц/га) ва “Наджими” (34,5 ц/га) навларида аниқланди. Шунингдек, “Субхоны” (st) нави (52,9 ц/га) нисбатан “Субхоны Гигант” нави – 0,8 ц/га юқори ҳамда “Шалах” (52,8 ц/га), “Исфарақ” (52,4 ц/га) ва “Исфарақ бадамский” (52,4 ц/га) навлари эса – 0,1-0,5 ц/га ёки 0,2-0,9 % га кам ҳосилдорлик бўлганлиги аниқланди.

2017-2019 йиллардаги 8-10 ёшли ўрик навларининг ҳосилдорлик кўрсаткичлари математик ва статистик ишлов берилганда бир туп дарахтдан ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5}$ – 0,6 кг ва $Sx_{\%}$ – 3,8 %; 2017 йилдаги ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5}$ – 0,8 ц/га ва $Sx_{\%}$ – 4,1 %, 2018 йилдаги ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5}$ – 2,4 ц/га ва $Sx_{\%}$ – 4,2 %, 2019 йилдаги ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5}$ – 2,7 ц/га ва $Sx_{\%}$ – 3,7 %, шунингдек, 2017-2019 йиллар бўйича ўртча ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5}$ – 1,9 ц/га ва $Sx_{\%}$ – 3,8 % ни ташкил қилди.

Демак маҳаллий ва интродукция қилинган 8-10 ёшли ўрик

навларидан “Исфарақ бадамский” (20,3 ц/га), “Субхоны Заря” (20,6 ц/га) ва “Калони кандак” (22,6 ц/га) навларида энг юқори ҳосилдорлик бўлган бўлса, аксинча, “Наджими” (17,9 ц/га), “Шалах” (11,3 ц/га) ва “Юбилейный Навои” (10,3 ц/га) навларида энг кам ҳосилдорликни намоён қилганлиги маълум бўлди.

Маҳаллий ва интродукция қилинган 6-8 ёшли ўрик навларининг бир туп дарахтидан энг юқори ҳосилни “Алишер” (19,0 кг), “Руҳи Джуванон Миона” (15,7 кг) ва “Шелечко” (15,1 кг) навларида бўлиб, аксинча, энг акм ҳосилни “Салимий” (6,9 кг) ва “Мароканд” (6,5 кг) навларида эканлиги аниқланди.

Шунингдек, бир туп дарахтдан ҳосилни ўрикнинг “Советский” (st) навида 10,7 кг ни ташкил қилган бўлса, унга нисбатан 4,0-0,3 кг ёки 37,4-2,8 фоизга кўп ҳосилни “Нурафшон” (14,7 кг), “Краснощеский” (13,9 кг), “Курсадык” (13,4 кг), “Красный партизан” (13,0 кг), “Сарвари” (12,9 кг), “Мулла Содик” (11,9 кг) ва “Буривестник” (11,0 кг) навлари намоён қилди. Аксинча, “Темурий” (10,6 кг), “Вымпел” (10,6 кг), “Авецина” (8,7 кг), “Ширпайванд” (8,6 кг) ва “Гулистан” (7,5 кг) навларида “Советский” (st) нави нисбатан бир туп дарахтдан кам ҳосил шакллланган бўлиб, мутаносиб равишда – 0,1; 0,1; 2,0; 2,1 ва 3,2 кг кам эканлиги аниқланди. 6 ёшли ўрик навларининг 2017 йилда ҳосилдорлиги аниқланганда, энг юқори ҳосилдорликни “Руҳи Джуванон Миона” (20,9 ц/га), “Шелечко” (20,9 ц/га) ва “Буривестник” (20,6 ц/га) навлари намоён қилди. “Советский” (st) нави (7,6 ц/га) нисбатан (мутаносиб равишда) 13,3; 13,3 ва 13,0 ц/га юқори эканлиги аниқланди. Шунингдек, ўрикнинг “Советский” (st) нави (7,6 ц/га) нисбатан бир гектар майдондан 0,3-1,8 ц кам ҳосилдорлик “Авецина” (7,3 ц/га), “Краснощеский” (6,9 ц/га) ва “Гулистан” (5,8 ц/га) навларида бўлганлиги маълум бўлди.

2017 йилда ўрганилаётган 6 ёшли ўрик навларида ҳосилдорликни паст бўлиши асосан баҳорда қисқа муддатли ёмғингарчилик қора айланганлиги муносабати билан гул тугунчаларни совуқ суриши сабабидир.

2011 йилда экилган 7 ёшли ўрик навларининг 2018 йилда энг юқори ҳосилдорлик “Алишер” нава (76,5 ц/га) бўлди. “Советский” (st) нави (43,6 ц/га) нисбатан 21,6-7,6 ц/га юқори ҳосилдорлик “Руҳи Джуванон Миона” (65,2 ц/га), Нурафшон (62,2 ц/га), Краснощеский (61,6 ц/га), “Курсадык” (53,9 ц/га), “Красный партизан” (52,9 ц/га), “Шелечко” (51,9 ц/га) ва “Сарвари” (51,2 ц/га) навлари намоён қилган бўлса, аксинча, 25,9-39,7 фоизга кам ҳосилдорлик “Гулистан” (32,3 ц/га), “Салимий” (28,6 ц/га) ва “Мароканд” (26,3 ц/га) навларида бўлганлиги аниқланди.

Ўрганилаётгандан 8 ёшли ўрик навларининг 2019 йилда “Советский” (st) нави ҳосилдорлиги 55,6 ц/га ни ташкил этган бўлса, унга нисбатан 38,9 ц/га энг юқори ҳосилдорлик “Алишер” нави (94,5 ц/га) намоён қилди. “Советский” (st) нави нисбатан – 40,1-1,8 % га юқори ҳосилдорлик “Шелечко” (77,9 ц/га), “Краснощеский” (70,5 ц/га), “Нурафшон” (70,5 ц/га), “Руҳи Джуванон Миона” (70,5 ц/га), “Сарвари” (65,6 ц/га), “Курсадык” (64,6 ц/га), “Мулла Содик” (59,6 ц/га) ва “Красный

партизан” (56,6 ц/га) навларида бўлди. Аксинча, 6,7-25,3 ц/га кам ҳосилдорлик “Буривестник” (48,9 ц/га), “Вымпел” (48,6 ц/га), “Авецина” (41,9 ц/га), “Ширпайванд” (41,2 ц/га), “Гулистан” (36,2 ц/га), “Салимий” (32,3 ц/га) ва “Мароканд” (30,3 ц/га) навларида эканлиги аниқланди.

Энг юқори ҳосилдорликни “Алишер” (63,2 ц/га), “Руҳи Джуванон Миона” (52,2 ц/га), “Шелечко” (50,2 ц/га), “Нурафшон” (48,9 ц/га), “Краснощеский” (46,3 ц/га) навларида бўлиб, “Советский” (st) нави (35,6 ц/га) нисбатан мутаносиб равишда 27,6; 16,6; 14,6; 13,3 ва 10,7 ц/га юқори эканлиги маълум бўлди.

Шунингдек, “Советский” (st) нави (35,6 ц/га) нисбатан 9,1-1,0 ц/га ёки 25,6-2,8 фоизга юқори ҳосилдорликни “Курсадык” (44,7 ц/га), “Сарвари” (43,0 ц/га), “Красный партизан” (40,4 ц/га), “Мулла Содик” (39,7 ц/га), “Буривестник” (36,6 ц/га) ва “Темурий” (36,6 ц/га) навлари намоён қилди. Аксинча, “Советский” (st) нави (35,6 ц/га) нисбатан энг кам ҳосилдорлик “Вымпел” (35,1 ц/га), “Авецина” (28,8 ц/га), “Ширпайванд” (28,5 ц/га), “Гулистан” (24,8 ц/га), “Салимий” (22,8 ц/га) ва “Мароканд” (21,7 ц/га) навларида эканлиги аниқланди.

2017-2019 йиллардаги 6-8 ёшли ўрик навларининг ҳосилдорлиги математик ва статистик ишлов берилганда бир туп дарахтдаги ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5} = 0,4$ кг ва $Sx\% = 3,4$ %; ҳосилдорлик: 2017 йилда $ЭКФ_{0,5} = 0,4$ ц/га ва $Sx\% = 3,5$ %, 2018 йилда $ЭКФ_{0,5} = 1,6$ ц/га ва $Sx\% = 3,4$ %, 2019 йилда $ЭКФ_{0,5} = 1,9$ ц/га ва $Sx\% = 3,3$ %, шунингдек, 2017-2019 йиллар бўйича ўртача ҳосилдорликда $ЭКФ_{0,5} = 1,3$ ц/га ва $Sx\% = 3,4$ % ни ташкил қилди.

Демак, “Алишер” (63,2 ц/га) ва “Руҳи Джуванон Миона” (52,2 ц/га) навларида энг юқори ҳосилдорликка эга бўлган бўлса, “Гулистан” (24,8 ц/га), “Салимий” (22,8 ц/га) ва “Мароканд” (21,7 ц/га) навларида эса аксинча энг кам ҳосилдорлик бўлганлиги аниқланди.

Хулоса:

1. Бир тупдан энг кўп мева сонини “Калони кандак” (430,0 дона), “Субхоны Гигант” (428,3 дона), “Алишер” (427,0 дона) навларида, энг оғир мева вазни “Шалах” (54,0 г), “Исфарақ бадамский” (54,0 г), “Моника Бланка” (50,9 г), “Вымпел” (63,1 г), “Шелечко” (59,5 г), “Краснощеский” (52,6 г) навларида, энг йирик мевани “Исфарақ бадамский” (5,0×4,7 см), “Шелечко” (5,3×5,9 см) ва “Вымпел” (5,2×5,0 см) навларида шакллланганлиги аниқланди.

2. Энг юқори ҳосил “Моника Бланка” (19,2 кг), “Калони кандак” (17,0 кг), “Алишер” (19,0 кг), “Руҳи Джуванон Миона” (15,7 кг) ва “Шелечко” (15,1 кг) ҳамда ҳосилдорликни “Моника Бланка” (64,0 ц/га), “Калони кандак” (56,7 ц/га), “Алишер” (63,2 ц/га) ва “Руҳи Джуванон Миона” (52,2 ц/га) навларида эканлиги аниқланди.

3. Энг юқори рентабеллик “Моника Бланка” (8329,6 минг сўм ва 186,3 %), “Калони кандак” (6921,6 минг сўм ва 156,7 %), “Алишер” (8175,3 минг сўм ва 183,1 %) ва “Руҳи Джуванон Миона” (6053,7 минг сўм ва 138,0 %) навларида аниқланди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Рыбаков А.А., Остроухова С.А. Ўзбекистон мевачилиги. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1981. 30-33 б.
2. Агеева Н. Г. Наследование некоторых хозяйственно-ценных признаков гибридным потомством абрикоса / Н. Г. Агеева, В. М. Горина // Пути совершенствования сортимента плодовых, субтропических и орехоплодных культур для промышленного садоводства юга Украины: сб. науч. трудов Гос. Никит. ботан. сада. – Ялта, 2004. – Т. 122. – С. 58-64.
3. Комар-Темна Л. Д. Перспективні гібриди сливи альпійської (*Prunus brigantia* Vill.) з абрикосом звичайним (*Armeniaca vulgaris* Lam.) та абрикосом голоплодним (*Armeniaca leiocharpa* Kostina) / Л. Д. Комар-Темна, В. М. Горина // Науковий вісник Національного університету біоресурсів і природокористування України. – К., 2009. – Вип. 133. – С. 137-143.

4. Горина В. М. Изучение интродуцированных в Крым сортов абрикоса в связи с селекцией / В. М. Горина, В. В. Корзин // Достижения и перспективы развития селекции, возделывания и использования плодовых культур: Матер. Междуна. науч. конф., посвященной 200-летию Никитского ботанического сада, 24-27 окт. 2011 г. – Ялта, 2011. – С. 90-92.
5. Голубева О. Г. О структуре и функциях гаусториев паразитических грибов / О. Г. Голубева // Микология и фитопатология. – 1979. – Т. 13, Вып. 1. – С. 69-77.
6. Программа Северо-Кавказского центра по селекции плодовых, ягодных, цветочно-декоративных культур и винограда на период до 2030 года (Под общей редакцией члена-корреспондента Россельхозакадемии Е.А. Егорова). – Краснодар: ГНУ СКЗНИИСиВ, 2013. – 202 с.
7. Проценко М. А. Эволюция взаимоотношений фитопатогенного гриба и клетки растения-хозяина / М. А. Проценко // Успехи современной биологии. – 1988. – Т. 105, № 1. – С. 145-153.

УДК: 635.132.

ИЗУЧЕНИЕ СОРТОТИПОВ МОРКОВИ

Абдуллаев Илхом Эшкурбанович, ст.преподаватель,
Термезский институт агротехнологий и инновационного развития.

Аннотация. В статье рассматриваются ботанические и агротехнические особенности моркови. Также описываются ее разновидности.

Ключевые слова: морковь обыкновенная, разновидности моркови, сортотипы моркови, корнеплод.

Annotation. The article discusses the botanical and agrotechnical features of carrots. Its varieties are also described.

Keywords: common carrot, carrot varieties, carrot varieties, root crop.

Морковь (*Daucus carota* L., var. *sativus* Hoffm.) является главной овощной культурой семейства «Зонтичных», широко возделываемой по всему миру. Морковь культурная может быть подразделена на 2 типа: восточная (Азиатская) и западная. У восточных (азиатских) морковей корнеплод пурпурного (содержащий антоциан), или желтого цвета, опушенные листья, имеющие серо-зеленый оттенок и тенденцию к раннему цветению (цветушности). У западных морковей корнеплод оранжевого, желтого, красного или белого цвета, зеленые листья без опушения, образование цветоноса возможно только при прохождении стадии яровизации и воздействии низких положительных температур.

Процесс окультуривания моркови начался около 4-5 тыс. лет тому назад, на что указывают обнаруженные свидетельства при раскопках в Афганистане. Изначально это растение использовалось как лекарственное, а затем человек распробовал вкус морковных корешков и с тех пор без моркови трудно представить себе современную кухню.

Родиной сортов с оранжевыми и красными корнеплодами считается Средиземноморье, а желтая и белая морковь родом из Центральной Азии. В диком виде морковь и сейчас произрастает во многих странах Европы, Азии и Северной Африки, в том числе и в России, но она сильно отличается от своего культурного сородича, так как ее корни значительно тоньше. Утолщенные корнеплоды были выведены в результате многовековой селекции.

Согласно распространенной классификации морковь столовая относится к виду *Daucus carota* L. subsp. *Sativus*. Представители вида *Daucus carota* L. ssp. *sativus* – двулетние или однолетние растения, включающие следующие подвиды [7]:

– подвид ssp. *maximus* (Desf.) Thell – характеризуется высоким линейным ростом растений, повышенным проявлением цветущности, как правило, однолетний. Зонтики у этих растений большие, с окрашенным цветком в центре;

– подвид восточный (азиатский), subsp. *Orientalis* (Rubasch.) Setch., характеризуется слабо рассеченными ли-

стьями с лопастными или острогородчатыми долями, темно-зеленого или серо-зеленого цвета. Черешки листьев сильно опушены, равно как и стебли, бутоны розовые;

– подвид европейской моркови, subsp. *Occidentalis* (Rubasch.) – отличается сильно расчлененными листьями с ланцетнолинейными долями, как правило зеленого или светло-зеленого цвета, слабоопушенные или неопушенные вовсе. Стебли этого подвида неопушенные, нераскрывшиеся бутоны – зеленые.

Каротиновая (оранжевая по окраске корнеплода) морковь более популярна в мире среди других разновидностей моркови. Но сегодня в мире активно ведется работа по созданию высокопродуктивных сортов с различной окраской корнеплода [1]. По окраске на сегодняшний день существуют следующие разновидности:

Оранжевая – содержит Р и А-каротиноиды, обеспечивающие окраску, происходит из Европы и Ближнего Востока.

Желтая – содержит ксантофиллы и лютеин, происходит с Ближнего Востока.

Красная – содержит ликопин, происходит из Индии и Китая.

Белая – отсутствуют пигменты, происходит из Афганистана, Ирана, Пакистана.

Фиолетовая – содержит В-каротин и пигмент антоциан, придающий фиолетовую окраску. Родиной этой моркови считается Турция, а также Ближний и Дальний Восток. Сердцевина фиолетовой моркови может быть красной или белой.

Черная – содержит антоциан. Произошла из Турции, Ближнего и Дальнего Востока [2].

Сегодня в мире существуют несколько сотен сортов и гибридов, относящихся к разным сортотипам. Более распространен в мире сортотип – Нантский (50% от всего объема производства). Производство этого сортотипа моркови на 5 континентах увеличивается с каждым годом, так как он отвечает всем требованиям рынка и имеет очень хорошее качество корнеплода. Шантанэ и Курода, в Южной Америке и Восточной Европе популярен сортотип Флаккэ, в Северной Америке

популярна длинная морковь сортотипа Император [3].

Сорта моркови различаются размером, окраской, формой, величиной, химическим составом, вкусовыми данными, лежкоспособностью. Лучшими считаются сорта с малой сердцевинкой, яркоокрашенной мякотью.

Форма корнеплодов может быть: круглая (индекс 1); овальная (сердцевидная) (индекс 1,5); усечено-коническая (индекс 1,5...2,0); коническая (индекс 2,0...3,0); цилиндрическая (индекс 3,0...5,0).

Для полной оценки формы корнеплода определяют индекс формы h/d . При установлении индекса формы используют следующую шкалу: очень короткие – индекс около 1; укороченные – до 2...3; полудлинные – 3...5; удлиненные – 5...8; длинные – свыше 8.

По длине корнеплоды бывают: короткие – до 10 см (каротели (3...6 см); средние – 11...15 см; длинные – свыше 15 см.

Диаметр корнеплода по наибольшей толщине: тонкий – меньше 2,5 см; средний – 2,6...4,0 см; толстый – больше 4,1 см.

При оптимальных условиях выращивания в зависимости от сортовых особенностей масса корнеплодов моркови нарастает: небольшая (меньше 80 г); средняя (80...150 г); большая (больше 150 г).

Форма головки (эпикотиль) корнеплода бывают: гладкая, выпуклая, вытянутая, вогнутая.

Размер головки корнеплода: маленькая (меньше 2 см); средняя (2...3 см); большая (больше 3 см).

Форма сердцевинки: круглая; округло-угловатая; граненая; звездчатая.

Размер сердцевинки: маленькая (меньше 30% диаметра корнеплода); средняя (31-50%); большая (больше 50%).

Поверхность корнеплода: гладкая, неровная, бугристая. На ней хорошо заметны мелкие или глубокие глазки. Боковые корни могут быть нитевидные или грубые.

Окраска поверхности, мякоти и сердцевинки корнеплода разнообразна. У большинства сортов столовой моркови окраска бывает: белая; бело-зеленая; светло-зеленая; желтая; светло-оранжевая; оранжевая; оранжево-красная; красная; розово-оранжевая; светло-фиолетовая; фиолетовая.

Вкус корнеплода определяют по пятибалльной системе: 5 – очень вкусный; 4 – вкусный; 3 – не очень вкусный; 2 – не-вкусный; 1 – непригоден для пищевого использования. Также определяется консистенция мякоти и сердцевинки как, очень нежная, нежная, мало нежная, грубая и ее сочность как очень сочная, сочная, малосочная, не сочная.

Окраска корнеплодов зависит от сорта (гибрида) и условий

Характеристика сортов моркови столовой по морфологическим признакам, 2019–2021 гг.

№	Сорт, гибрид	Сортотип	Форма розетки листьев	Число листьев	Форма пластинка листа	Размер пластинка листа
1	Император	Берликум	полураски-дистая	средняя	треугольная	средняя
2	Минор	Валерия	полураски-дистая	мало	треугольная	средняя
3	Московская зимняя А 515	Шантане	раскидистый	средняя	треугольная	средняя
4	Марлинка	Шантане	прямостоячая	средняя	треугольная	средняя
5	Шантане 2461	Шантане	раскидистая	средняя	треугольная	средняя
6	Марс F1	Нантская	полупрямо-стоячая	средняя	треугольная	средняя
7	Надежда F1	Нантская	полураски-дистая	мало	треугольная	маленькая
8	Минчанка	Шантане	раскидистый	средняя	треугольная	средняя
9	Нантская 4	Нантская	полустоячая	мало	треугольная	маленькая

№	Длина и толщина черешка	Головка корнеплода	Длина корнеплода	Диаметр корнеплода	Форма корнеплода	Масса корнеплода	Размер сердцевинки
1	длинный/тонкий	маленькая	длинный	средний	цилиндрическая	средняя	средняя
2	длинный/тонкий	маленькая	средний	средний	конусовидная	средняя	средняя
3	длинный/тонкий	средняя	средний	толстый	конусовид-ная	средняя	средняя
4	длинный/тонкий	средняя	средний	средний	конический	средняя	средняя
5	длинный/тонкий	средняя	средний	толстый	конический	большая	средняя
6	длинный/тонкий	маленькая	длинный	средний	цилиндрическая	средняя	средняя
7	длинный/тонкий	маленькая	средний	средний	цилиндрический	средняя	средняя
8	средний/тонкий	маленькая	средний	средний	Усечено-коническая	средняя	средняя
9	средний/тонкий	маленькая	средний	средний	Цилиндрическая	средняя	средняя

произрастания. В зависимости от сорта будет предоставлена окраска, а условия произрастания будут влиять на яркость окраски. Так морковь, выросшая на тяжелом суглинке будет значительно ярче моркови, выросшей в песчаной почве.

Продуктовый орган моркови столовой – корнеплод. Окраска корнеплода напрямую зависит от соответствующих красящих пигментов, присущих данному виду. Каротиноиды обуславливают оранжевый и оранжево-красную окраску, Антохлор – желтую, Ликопиноиды – кроваво-красную, Антоциан – фиолетовую.

Всего существует семь основных сортов моркови: Амстердамская, Нантская, Флакк (Валерия), Шантенэ, Берликум, Мини-морковь и Парижская каротель.

Переходные сорта моркови. К переходным относят три сорта моркови: Берликум/Нантская, Флакк/Каротинная и Шантенэ/Данверс.

Для изучения сортов моркови исследования проводились на опытном участке Сурхандарьинской научно-опытной станции НИИ овоще-бахчевых культур картофеля, расположенном южной части Сурхандарьинской области в 2019-2021 годах. Почвы опытного участка - серо-бурые, обыкновенные среднесиловые слабосуглинистые и слабо выщелоченные.

В наших исследованиях закладку опытов, учеты и наблюдения проводили согласно методических указаний [4, 5].

Для изучения было взято 22 сортов моркови столовой: из них 13 отечественной селекции и 9 сорта ВНИИССОК

(Россия).

Все образцы ВНИИССОК (Россия), за исключением Император (позднеспелый), Минор (среднепоздний), Марлинка и Нантская 4 (среднеранняя), относятся к группе среднеспелых. В течение вегетации проводили фенологические наблюдения, описание морфо-биологических признаков растений по сортам, учет урожая.

Морфологическое описание и измерение основных признаков были осуществлены в соответствии с требованиями по апробации [6].

В производстве консервированных продуктов для здорового питания отбираются сорта с корнеплодами однородной формы и размера (поперечный диаметр 30–50 мм), с гладкой поверхностью, без разветвлений и трещин, с небольшой розеткой листьев, минимальным наличием глазков. Лучшими являются цилиндрические или усеченно-конические корнеплоды с небольшой головкой, имеющие толстую кору и тонкую сердцевину, которая мало отличается по цвету от коры. Кора должна быть нежной, сочной, без волокон, красного или оранжево-красного цвета, без зеленоватых или фиолетовых оттенков.

Выводы. Таким образом, среди изученных сортов моркови для промышленной переработки наиболее пригодны оказались сорта Император, Марс F1, Надежда F1, Марлинка и Нантская 4, имеющие цилиндр видную форму, небольшую головку, наименьшую сердцевину, гладкую поверхность.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Леунов В.И. Столовые корнеплоды в России. – М., 2011. – 270 с.
2. Бохан, А. И., Селекция и семеноводство моркови столовой. – Минск: Беларуская наука, 2013. – 207 с.
3. Пивоваров, В.Ф. Селекция и семеноводство овощных культур / В.Ф. Пивоваров. М., ВНИИССОК, 1999, т. 1-2.
4. Морковь от компании Vilmorin-Mikado Руководство. Режим доступа: http://www.vilmorin.ru/sites/russie.sam/files/pdf/vilmorin_morkov_brochure_small.pdf
5. Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Вып.4. Картофель, овощная и бахчевая культура. – М.: Колос, 1975. – С. 5-25; С. 116-135.
6. Литвинов С.С. Методика полевого опыта в овощеводстве. – М.: ВНИИО, 2011. – 648 с.
7. Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов / [В. А. Бакулина, К. А. Белехова, Г. В. Боос и др.]; Под ред. Д. Д. Брежнева. – Москва: Колос, 1982. – 415 с.
8. Классификатор вида *Daucus carota* L. (морковь мясистая) / ВАСХНИЛ, ВНИИ растениеводства им. Н. И. Вавилова – Л., 1990, 26 стр.

УЎТ: 634.21.7/631.542.

МАҲАЛЛИЙ ВА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН ЎРИК НАВЛАРНИНГ БИР ЙИЛЛИК НОВДАНИ КЕСИШДА УЛАРНИНГ ҲОСИЛДОР КЎРСАТКИЧЛАРИ

Қаршиев Алишер Эсанович, мустақил изланувчи,

Академик Махмуд Мирзаев номидаги боғдорчилик, узумчилик ва виночилик илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Мақоладан ўрик дарахти новдаларини кечиш, маҳаллий ва четдан келтирилган ўрик навларини Қашқадарё вилояти шароитида ўрганиш ва истиқболли бўлган навларни танлаш учун олиб борилган тадқиқот қузатувлари ўрин олган.

Калитли сўзлар: шакл, новда, сифатли, куртак, гул, мева, ҳосил, бог, маҳаллий, четдан, иқлим, танлаш.

Аннотация. В статье проведено изучение местных и привозных сортов абрикоса в условиях Кашкадарьинской области и подбор перспективных сортов, а также правильное формирование ветвей и повышение качества плодов и другие положительные черты формируемого растения. и однолетние деревья представлены в статье

Ключевые слова: форма, ветвь, качество, почка, цветок, плод, урожай, сад, местный, зарубежный, климат, селекция.

Abstract: The selection of local and imported promising and productive varieties, improvement of fruit quality and other positive features are presented in the collection of apricot varieties in the conditions of Kashkadarya Province

Key words: form, branch, quality, bud, flower, fruit, crop, garden, local, foreign, climate, selection.

Кириш. Ўрик-юқори потенциал унумдорликка эга бўлган мева тури бўлиб экилган кўчатларда 3-4- йилдаёқ ҳосил элементлари шаклланади. Одатда шакл берилмаган ва кучли ўсувчи новдалари кесилмаган ўрик дарахти дастлабки ҳосил берган йилларда мўл ҳосил берганлиги билан унинг қариш даври тезлашади, мева ва барглари майдалашади, ҳар хил касалликлар билан тез ва кучли зарарланади. Ўрик навларининг хавфли патогенларга қарши чидамлилиги камдан-кам ва кам тарқалган кўринишдаги ҳодисадир. Шу билан боғлиқ ҳолда ҳозирги вақтда маданийлаштирилаётган ўрик навларининг кўпчилиги маълум даражада касалликлар билан зарарланган, барглари, мева гунчалари ва дарахтнинг скелет қисмлари зарарланган, бу эса ҳосил йўқотилишига олиб келади.

Ўрганилганлик даражаси. Хорижий давлатларда ўрик навларини морфо-биологик ва қимматли хўжалик белгиларини ўрганишда МДХ мамлакатларда эса Г.С.Есаян (Ереван), П.Р.Арзуманян, С.Л.Агулян, А.С.Мелконян, В.М.Микаелян, В.К.Смикова (Молдавия), Ш.А.Хабибуллин (Қозғоғистон), А.Н.Веньяминов, Л.А. Долматова, Н.В.Ковалев, К.Г.Никишин Р.Г. Ноздрачёва, Л.А. Крамаренко, Ф.М. Гасимов (Россия), А.Пулатов, В.В.Кузнецовлар (Тожикистон) илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган.

Ўрик дарахтларини кесиш ўз вақтида ва талаб даражасида қилинсагина ижобий натижа беради. Кесишнинг тартибли амалга оширилиши узоқ вақт давомида юқори сифатли мева етиштиришни таъминлайди. Бу тадбирни тўғри амалга ошириш натижасида шохлар орасининг ёритилиши ва шохлар орасида шомол айланишини таъминлайди. Бунинг учун дарахтларга шакл бериш ишларини экилган йилданок бошлаш зарур [1].

Дарахтларнинг шох-шабба қисмини кесиш эски органларни янгиси билан алмаштиради, дарахтда шаклланаётган генератив ва вегетатив органларнинг ривожланиши кучаяди, айримларининг камайиши кузатилади [2].

Ҳар хил кесиш усуллари билан тажрибалар олиб борган В.К.Смиковнинг маълумотларига кўра, нотўғри кесиш натижасида дарахтнинг тарвақайлаб ўсиб кетиши кузатилади. Навларда ҳосилдорликнинг кескин камайиши, меваларининг майдалашиши, серсувлиги ва ифори ўзгаради ёки камайди [3].

Нимжон шохли навларда буташнинг ортиш даражаси ҳақида ва кучли ҳамда ўрта даражадаги шохланишда кучсизланиши ҳақида тадқиқот ишларида келтириб ўтилган [4].

Баҳорда кесиш дарахтларда меваларнинг кўпайиб кетишини олдини олиб, бир йиллик новдалар ҳам қисқартирилади. Ёзда ҳосилсиз шохларни қисқартириш кучли ўсувчи новдаларда ўтказилади. Бунда гул куртаклари кўп шаклланган новдалар ҳосил бўлади. Энг қисқа 10-15 см. дан қисқа новдаларда қисқартириш ишлари олиб борилмайди [5].

Дарахтларига шакл бериш ва кесиш агротехник тадбирлари бўйича тадқиқотлар олиб борган муаллифларнинг фикрича, боғдорчиликда шакл бериш ва кесиш асосий агротехник тадбирлардан бири ҳисобланади. Шу билан боғлиқ ҳолда турли йилларда мевали дарахтларга шакл бериш ва йиллик новдаларни кесиш усуллари билан шуғулланган кўпчилик олимларнинг маълумотларига кўра, ҳар қандай дарахтнинг ер ости қисми ривожланишини ва ўсишини таъминловчи

агротехник чора-тадбирлардан бири бу новдаларни кесишдир. Йиллик новдаларни кесиш натижасида шох-шабба параметрлари, ўсиш ва мева шаклланишининг ўзаро муносабати ўзгаради. Мева шохларининг сони ва узунлиги ошади. Шу билан бир вақтнинг ўзида шох-шабба қисмига тарқалган ёруғлик ошади, дарахтнинг фотосинтез жараёни яхшиланади ва мевали дарахтнинг ҳар томонлама яхши ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. [6. 7. 8. 9].

Тадқиқот услублари. Тадқиқотларда ўрик навларининг ўсиб-ривожланиши ва ҳосилдорлик кўрсаткичлари - мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар Х.Ч.Буриев ва бошқалар (2014) ҳамда тадқиқотлардан олинган маълумотларга математик ва статистик ишлов бериш Microsoft Excel дастури ёрдамида Б.А.Доспехов (1985) тавсия этган услублар бўйича амалга оширилди.

Тадқиқот натижалари: Бир йиллик новдани кесишда маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларнинг бир йиллик новда кесилмаган навларга нисбатан 30 см узунликда кесилганда “Юбилейний Навои” (20,4 кг) нави – 8,5 кг ёки 71,4 % ҳамда 45 см кесилган “Наджими” (19,9 кг) нави – 9,5 кг ёки 91,3 % юқори бир туп дарахтдан ҳосил шакллантирган бўлса, аксинча, 30 см кесилганда “Субхони Заря” (11,8 кг) нави – 0,1 кг ёки 0,8 % ҳамда 45 см кесилганда “Субхони Гигант” (14,6 кг) нави – 1,5 кг ёки 9,3 %, “Исфарақ” (15,3 кг) ва “Субхони” (15,5 кг) навлари – 0,4 кг ёки 2,5 % кам ҳосил берганлиги аниқланди.

Ўрик навларининг бир йиллик новдасини 15 см узунликда кесилганда кесилмаган ушбу навларига нисбатан бир тупдаги дарахтдан ҳосил энг кам бўлганлиги маълум бўлди (1-жадвалга қаранг).

Маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларнинг бир йиллик новдалари табиий усулда кесилмай етиштирилганда энг юқори ҳосилдорликни “Моника Бланка” навида – 64,0 ц/га ёки “Наджими” навида – 34,5 ц/га кам ҳосилдорликни намоён қилган бўлса, кесилмаган навларга нисбатан 30 см узунликда кесилганда “Шалах” (72,3 ц/га), “Исфарақ” (73,0 ц/га), “Субхони Гигант” (73,1 ц/га), “Калони кандак” (75,2 ц/га) ва “Моника Бланка” (83,8 ц/га) навларида 36,9; 39,3; 36,1; 32,6 ва 30,9 % юқори ҳосилдорликка эга эканлиги аниқланди.

Бироқ, бир йиллик новдани 15 см узунликда кесилган кесилмаган ўрик навларига нисбатан бир майдон биригидан энг кам ҳосил “Наджими” (21,4 ц/га) ва “Субхони Заря” (22,6 ц/га) навларда шаклланган бўлса, бошқа ўрик навларида ҳам кесилмаган навларга нисбатан энг кам ҳосилдорликни намоён қилганлиги аниқланди.

Маҳаллий ва интродукция қилинган 6-8 ёшли ўрик навларининг бир йиллик новдани 15 см узунликда кесилганда “Мулла Содик” (25,2 кг) навида ушбу нави кесилмаганига нисбатан – 13,3 кг (111,8 %), 30 см кесилганда “Алишер” (27,0 кг) навида – 8,0 кг (42,1 %), 45 см кесилганда “Шелечко” (19,1 кг) навида – 2,0 кг (11,7 %) га юқори бир туп дарахтдан ҳосил шаклланганлиги аниқланди.

Бир йиллик новда кесилмаганда “Мароканд” навида – 6,5 кг бир тупдан ҳосил берган бўлса, бир йиллик новда 15 ва 45 см узунликда кесилганда “Мароканд” навида (3,3 ва 5,5 кг) новда кесилмаган навиго нисбатан – 3,2 кг (50,8 %) ва 1,0 кг (84,6 %) кам ҳосил берганлиги маълум бўлди (2-жадвалга қаранг).

1-жадвал.

Бир йиллик новдани кесишда маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларнинг ҳосилдорлиги (2017-2019 йй.)
(2009 йилда экилган ўрик навлари)

Навлар номи	Бир туп дарахтдаги ҳосил, кг				Ҳосилдорлик						
	Бир йиллик новдаларни кесиш узунлиги										
	Кесилмаган (назорат)	15 см	30 см	45 см	Кесилмаган (назорат)	15 см		30 см		45 см	
						ц/га	назоратга нисбатан, %	ц/га	назоратга нисбатан, %	ц/га	назоратга нисбатан, %
Субхоны	15,9	11,7	20,4	15,5	52,9	38,8	73,3	67,9	128,4	51,7	97,7
Моника Бланка	19,2	17,1	25,2	20,2	64,0	56,8	88,8	83,8	130,9	67,2	105,0
Шалах	15,9	13,9	21,7	16,5	52,8	46,1	87,3	72,3	136,9	54,9	104,0
Исфарақ	15,7	11,4	21,9	15,3	52,4	37,8	72,1	73,0	139,3	50,8	96,9
Субхоны Заря	11,9	6,8	11,8	19,7	39,5	22,6	57,2	39,1	99,0	65,7	166,3
Субхоны Гигант	16,1	12,0	22,0	14,6	53,7	40,0	74,5	73,1	136,1	48,4	90,1
Наджими	10,4	6,4	16,3	19,9	34,5	21,4	62,0	54,2	157,1	66,3	192,2
Исфарақ бадамский	15,7	10,5	20,9	16,1	52,4	35,0	66,8	69,7	133,0	53,7	102,5
Калони кандақ	17,0	12,3	22,6	18,3	56,7	40,9	72,1	75,2	132,6	61,0	107,6
Юбилейный Навои	11,9	10,7	20,4	15,6	39,5	35,6	90,1	67,8	171,6	52,0	131,6
ЭКФ _{0,5}	0,6	0,5	0,7	0,7	1,9	1,7	-	2,4	-	2,3	-
Sx _н	3,7	4,4	3,6	4,0	3,7	4,4	-	3,6	-	4,0	-

2-жадвал.

Бир йиллик новдани кесишда маҳаллий ва интродукция қилинган ўрик навларининг ҳосилдорлиги (2017-2019 йй.)
(2011 йилда экилган ўрик навлари)

Навлар номи	Бир туп дарахтдаги ҳосил, кг				Ҳосилдорлик						
	Бир йиллик новдаларни кесиш узунлиги										
	Кесилмаган (назорат)	15 см	30 см	45 см	Кесилмаган (назорат)	15 см		30 см		45 см	
						ц/га	назоратга нисбатан, %	ц/га	назоратга нисбатан, %	ц/га	назоратга нисбатан, %
Советский	10,7	6,7	14,7	10,4	35,6	22,4	62,9	48,9	137,4	34,5	96,9
Авецина	8,7	4,0	9,6	6,5	28,9	13,4	46,4	31,8	110,0	21,7	75,1
Алишер	19,0	15,6	27,0	17,8	63,3	51,8	81,8	89,8	141,9	59,2	93,5
Буривестник	11,0	6,3	21,8	8,3	36,6	21,1	57,7	72,6	198,4	27,6	75,4
Вымпел	10,6	7,2	21,1	14,3	35,2	24,0	68,2	70,3	199,7	47,7	135,5
Гулистан	7,5	3,4	8,0	15,1	24,9	11,4	45,8	26,8	107,6	50,4	202,4
Краснощеский	13,9	9,0	19,6	11,9	46,4	30,0	64,7	65,3	140,7	39,6	85,3
Красный партизан	13,0	7,5	18,0	10,3	43,4	25,0	57,6	59,8	137,8	34,3	79,0
Курсадык	13,4	7,2	18,3	10,3	44,7	23,9	53,5	61,0	136,5	34,2	76,5
Мароканд	6,5	3,3	6,9	5,5	21,8	10,9	50,0	23,1	106,0	18,2	83,5
Мулла Содик	11,9	25,2	20,2	11,0	39,7	83,9	211,3	67,3	169,5	36,7	92,4
Нурафшон	14,7	8,6	10,0	12,9	49,0	28,6	58,4	33,4	68,2	43,1	88,0
Рухи Джуванон Миона	15,7	7,8	22,2	7,6	52,3	26,0	49,7	73,9	141,3	25,3	48,4
Салимий	6,9	3,9	8,0	8,0	22,9	13,0	56,8	26,6	116,2	26,6	116,2
Сарвари	12,3	6,1	19,0	9,7	41,0	20,2	49,3	63,4	154,6	32,2	78,5
Темурий	10,7	6,4	12,7	9,9	35,7	21,4	59,9	42,3	118,5	32,9	92,2
Шелечко	17,1	8,6	19,5	19,1	56,9	28,5	50,1	64,8	113,9	63,7	112,0
Ширпайванд	8,6	3,4	14,1	7,0	28,5	11,3	39,6	47,0	164,9	23,2	81,4
ЭКФ _{0,5}	0,4	0,4	0,6	0,4	1,3	1,3	-	1,9	-	1,4	-
Sx _{av}	3,8	4,9	3,5	3,6	3,3	4,9	-	3,5	-	3,5	-

Маҳаллий ва интродукция қилинган 6-8 ёшли ўрик навларнинг бир йиллик новдаси кесилмай етиштирилганда энг юқори ҳосилдорликни “Алишер” (63,3 ц/га) нави ҳамда кам ҳосилдорликни “Мароканд” (21,8 ц/га) нави бўлган бўлса, 30 см узунликда кесилганда “Алишер” (89,8 ц/га), “Руҳи Джуванон Миона” (73,9 ц/га), “Буривестник” (72,6 ц/га) ва “Вимпел” (70,3 ц/га) навларида кесилмаган навларга нисбатан 141,9; 141,3; 198,4 ва 199,7 % юқори ҳосилдорликни намоён қилди.

Бироқ, бир йиллик новдани 15 см узунликда кесилган кесилмаган ўрик навларига нисбатан бир майдон бирлигидан энг кам ҳосил “Мароканд” (10,9 ц/га), “Ширпайванд” (11,3 ц/га) ва “Гулистан” (11,4 ц/га) навларда шаклланган бўлса, бошқа ўрик навларида ҳам кесилмаган навларга нисбатан энг кам ҳосилдорликни намоён қилганлиги аниқланди.

Хулоса

1. Ўрик навларнинг бир йиллик новда кесилмаган навларга нисбатан 30 см узунликда кесилганда “Юбилейний Навои” (20,4 кг), “Наджими” (19,9 кг юқори ҳосил шаклланган бўлса, аксинча, 30 см кесилганда “Субхони Заря” (11,8 кг) ҳамда 45

см кесилганда “Субхони Гигант” (14,6 кг), “Исфарақ” (15,3 кг) ва “Субхони” навлари (15,5 кг) ҳосил берганлиги аниқланди.

2. Йиллик ўсувчи новдаларни 1/3 қисмга қисқартирилганда ҳосилдорлик “Алишер” навида 89,8 т/га (141,9%) ҳамда “Буривестник” 72,6 т/га (198,4%) ни, йиллик ўсувчи новдаларни ½ қисмга қисқартирилганда эса “Наджими” навида 66,3 т/га (192,3%) ва “Субхони Заря” 65,7 т/га (166,2%) ни ташкил этди.

3. Иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларига кўра, ўрик навларини Қашқадарё вилоятининг ўрта ҳудудларида етиштиришда самарали навлардан ретабелликнинг энг юқори кўрсаткичи йиллик ўсувчи новдаларни 30 смга яъни 1/3 қисмга кесишда 2009 йил “Субхони” (st) 140,9 % га нисбатан “Моника Бланка” 186,3 % , “Калони кандақ” 156,7 % ва “Субхони Гигант” 144,3 % , 2011 йил “Советский” (st) 66,8 % га нисбатан “Алишер” 183,1 % , “Руҳи Джуванон Миона” 138 % йиллик ўсувчи новдаларни 45 см яъни ½ қисмга кесишда “Наджими” ва “Субхони Заря” навида эса 62,0 % ва 84,8 % ни ташкил этди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ботез, М. Культура абрикоса /М. Ботез, Н. Бурлой.-М. Колос, 1980-152 с.
2. Черепяхина В. И. Плодоводство / Под ред. В. И. Черепяхина.- М.: Агропромиздат, 1991.- 271 с.
3. Смыков, В. К. Пути повышения продуктивности абрикосовых садов / В. К. Смыков // Повышение продуктивности абрикосовых насаждений : сб. научн. тр. Ялта, 1986, т. 100- с. 7-15.
4. Черепяхин, В. И. Обрезка плодовых деревьев в интенсивных садах / В. М. Черепяхин. М.: Россельхозиздат, 1983.- 160 с.
5. Смыкова, В. К. Абрикос/Под. Ред. В. К. Смыкова.- М.: Агропромиздат, 1989.- 240 с.
6. Агафонов, Н. В. Научные основы размещения и формирования плодовых деревьев / Н. В. Агафонов.-М.: Колос, 1983.- 173 с.
7. Муханин, И. В. «Шоковая» омолаживающая обрезка / И. В. Муханин.- Тамбов: Изд-во ТГТУ,- 2001.- 103 с.
8. Мухин С. А. Обрезка и формирование плодовых деревьев / С. А. Мухин.- Краснодар. 1979.-20 с.
9. Фисенко, А. И. Схемы посадок, формирования и управление ресурсным потенциалом плодовых растений /А.Н.Фисенко//Интенсивные технологии возделывания плодовых культур.- Краснодар. 2004- с. 281-295.

GO‘ZAL KATALPA (*CATALPA SPECIOSE*) KO‘CHATLARINING ILDIZ OTISHI VA RIVOJLANISHIGA YASHIL QALAMCHALARNI EKISH SXEMASINING TA‘SIRI

Xolmurodov Mansur Zaripbayevich,

Toshkent davlat agrar universiteti O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrası dotsenti,

Yakubova Gulxayo Anvarovna,

Toshkent davlat agrar universiteti Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish va landshaftli dizayn mutaxassisligi
2-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Maqolada “Go‘zal catalpa” (*catalpa speciose*) ko‘chatlarining tuman hosil qiluvchi maxsus inshootda yashil yarim yog‘ochlangan qalamchalaridan sun‘iy substratda yetishtirish texnologiyasining muhim elementi, qulay oziqlanish maydonini aniqlash yoritilgan.

Kalit so‘zlar. “Go‘zal catalpa”, ko‘chat, sun‘iy substrat, ildiz, ekish sxema, o‘simlik, issiqlik, havo, vegetativ, yashil qalamcha, oziqlanish maydoni.

Kirish. Ma‘lum sharoitlarda zamonaviy ilmiy-agronomik va texnik talablarga javob beruvchi qulay texnologiya o‘zlashtirilgandigina ko‘chat ishlab chiqarish jarayoni samarali bo‘ladi. Shu bois ko‘chat ishlab chiqarishdagi mehnat talab jarayonlarni maksimal mexanizatsiyalashga imkon beruvchi o‘z ildiziga ega ko‘chat yetishtirishning eng tejankor usullarini tanlash, ishlab chiqish va tadbiiq etish ko‘chatchilik xo‘jaliklari oldida turgan dolzarb vazifalar biri hisoblanadi.

Seleksiya yo‘li bilan olingan navdor o‘simliklarning qimmatli xo‘jalik-biologik belgilarini saqlab qolish uchun vegetativ ko‘paytirishning turli usullaridan foydalaniladi. Biologik, agroteknika va iqtisodiy nuqtai nazardan, ular orasidagi eng istiqbolli yashil qalamchalash hisoblanadi [1].

Tadqiqot uslubi. Go‘zal katalpa ko‘chatlarini sun‘iy substratda yashil qalamchadan yetishtirish texnologiyasining muhim elementi, bu qulay oziqlanish maydonini tanlash

hisoblanadi. Uning to'g'ri tanlanishiga nafaqat qalamchalarning ildiz otuvchanlik sifati, balki ko'chatlarning keyingi rivojlanishi va standart talablariga javob beradigan sifatli bo'lib yetilishiga ham bog'liq bo'ladi.

Bizning tajribalarimizda qalamchalar oziqlanish maydonining uchta varianti sinab ko'rildi - 225 sm², 150 sm² va 75 sm², ularda qalamchalarni mos holdagi ekish sxemasi - 15x15, 15x10 va 15x5 sm.



1-rasm. Go'zal katalpani yarim yog'ochlangan qismlaridan tuman hosil qiluvchi moslamalarda ekish jarayoni.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar barcha ekish sxemalarida qalamchalarning yaxshi ildiz otishini ko'rsatdi. Biroq, eng yaxshi ildiz otuvchanlik qalamchalar 15x10 sm sxemada ekilgan variantda qayd etildi. Qalamchalarni juda qalin ya'ni 15x5 sm sxemada joylashtirish ularda ildiz otuvchanlikning birmuncha pasayishiga olib keldi. Fikrimizcha, bu qalamchalar ildiz otadigan substrat qatlamida issiqlik va havo almashinuv tartibining yomonlashishi va uning ortiqcha namlanib ketishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Yashil qalamchalarning oziqlanish maydoni ko'chatlarda ildiz tizimining rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Qalamchalar 15x15 va 15x10 sm sxemada ekilganda ildiz otgan o'simliklarning ildiz tizimi o'zaro yaqin ko'rsatkichlarga ega bo'ldi (ildizlarning shoxlanish tartibi soni, birinchi tartib ildizlarning soni va uzunligi).

Qalamchalarni qalin, ya'ni 15x5 sm sxemada ekish o'simliklarda ildiz tizimining sust rivojlanishiga olib keldi.

